M U N D A R I J A

1 -Bob

1.1 Natural va butun sonlar

1. $a+(-b)=a-b$
2. $-(-a)=a$
3. $(a+b)+c=a+(b+c)$
4. $-(a+b-c)=-a-b+c$
5. $a\cdot(-b)=(-a)\cdot b=-ab$
6. $(ab)\cdot c=a\cdot(bc)=b\cdot(ac)$

1.1.1 Boshlang'ich tushunchalar. Hisoblashga oid misollar.

(96-7-1) Hisoblang:
$21\cdot 18-19\cdot 18+18\cdot 17-17\cdot 16+16\cdot 15-15\cdot 14$
A) 50 B) 100 C) 98 D) 24 E) 110

Yechish: Umumiy ko'paytuvchini qavsdan tashqariga chiqarish yordamida hisoblaymiz:

$21\cdot 18-19\cdot 18+18\cdot 17-17\cdot 16+16\cdot 15-15\cdot 14=$
$=18(21-19)+17(18-16)+15(16-14)=$
$=18\cdot 2+17\cdot 2+15\cdot 2=2(18+17+15)=100$
Javob: 100 (B).

1. (96-1-1) Ifodaning qiymatini toping:
$26\cdot 25-25\cdot 24+24\cdot 23-23\cdot 22-12\cdot 8$
A)106 B)1 C)54 D)8 E)0

2. (96-3-1) Ifodaning qiymatini toping:
$12-6:3+2\cdot 4$
A)16 B)10 C)18 D)48 E)$4\frac{2}{3}$

3. (96-9-52) Ifodaning qiymatini toping:
$18\cdot 36-16\cdot 36+24\cdot 27-25\cdot 24-21\cdot 5$
A)45 B)1 C)0 D)15 E)115

4. (96-10-1) Ifodaning qiymatini toping:
$21\cdot 13+24\cdot 13+45\cdot 12+25\cdot 44-89\cdot 24$
A)79 B)126 C)89 D)0 E)1

5. (96-11-1) Ifodaning qiymatini toping:
$15-9:3+4\cdot 3$
A)24 B)18 C)48 D)6 E)$7\frac{1}{3}$

6. (96-12-1) Ifodaning qiymatini toping:
$18-12:2+5\cdot 3$
A)$15\frac{1}{2}$ B)51 C)24 D)54 E)27

7. (97-3-1) Hisoblang:
$21\cdot 17-18\cdot 17+17\cdot 15-15\cdot 14+18\cdot 13-15\cdot 13$
A)125 B)135 C)205 D)180 E)165

8. (97-7-1) Hisoblang:
$36\cdot 24-33\cdot 24+17\cdot 11-14\cdot 11+18\cdot 16-15\cdot 16$
A)166 B)155 C)180 D)235 E)153

9. (97-10-1) Hisoblang:
$27\cdot 23-24\cdot 23+21\cdot 19-18\cdot 19+17\cdot 11-14\cdot 11$
A)165 B)159 C)143 D)203 E)189

10. (98-3-9) Hisoblang:
$27048\cdot 27044-27047\cdot 27043$
A)60491 B)58051 C)57091 D)54091 E)56091

11. (98-10-57) Hisoblang:
$45815\cdot 45818-45814\cdot 45816$
A)137446 B)137447 C)241584 D)241586 E)241585

12. (00-5-4) Hisoblang:
$139\cdot 15+18\cdot 139+15\cdot 261+18\cdot 261$
A)13200 B)14500 C)15100 D)16200 E)17500

13. (98-10-50) 6 ni berilgan songa ko'paytirganda, hosil bo'lgan son ...44 ko'rinishida bo'lsa, berilgan son quyidagilardan qaysi biri ko'rinishida bo'lishi mumkin?
A)...24 B)...19 C)...79 D)...14 E)...34

14. (99-8-6) 3680 va 5060 sonlarini ayni bir songa bo'lganda, birinchisida bo'linma 32 ga teng bolsa, ikkinchisida nechaga teng bo'ladi?
A)44 B)38 C)48 D)52 E)46

15. (98-5-8) 50 dan kichik tub sonlar nechta?
A)10 B)15 C)17 D)9 E)16

16. (97-9-61) n raqamining qanday qiymatlarida $50+n$ soni eng kam tub ko'paytuvchilarga ajraladi?
A)3 B)5 C)3;9 D)1;9 E)9

17. (00-5-6) 48 sonining barcha natural bo'luvchilari yig'indisini toping.
A)123 B)100 C)108 D)124 E)128

18. (96-3-80)* Ushbu 31323334...7980 sonning raqamlari yig'indisini toping.
A)473 B)480 C)460 D)490 E)453

19. (96-9-21)* Ushbu 1234567891011...4950 sonning raqamlari yig'indisini toping.
A)335 B)330 C)320 D)315 E)310

20. (96-12-78)* Ushbu 21222324...6970 sonning raqamlari yig'indisini toping.
A)400 B)430 C)410 D)420 E)440

21. (96-13-21)* Ushbu 11121314...5960 sonning raqamlari yig'indisini toping.
A)380 B)370 C)360 D)400 E)390

22. (00-9-15)* $\overline{ABC}+\overline{MN}=\overline{FEDP}$. ($\overline{MN}$- ikki xonali, $\overline{ABC}$ - uch xonali, $\overline{FEDP}$ - to'rt xonali son). $F^{M+N}+A^F$ ni hisoblang.
A) aniqlab bo'lmaydi B)1 C)2 D)9 E)10

23. (99-5-6)* $\overline{abc}+\overline{dec}=\overline{fkmc}$. ($\overline{abc}$ va $\overline{dec}$ - uch xonali, $\overline{fkmc}$ - to'rt xonali sonlar). $f^{a+d}+(b+d)^c$ ni hisoblang.
A) aniqlab bo'lmaydi B)1 C)2 D)3 E)4

24. (01-2-3) 999^2 ni hisoblang.
A) 997991 B)998001 C)999001 D)998991 E)997001

25. (02-5-4) 1; 2; 3; 15; 17; 23; 24; 169; 289; 361 sonlar ketma-ketligida nechta tub son bor?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 7 E) 8

26. (02-12-31) 7 ga karrali ikki xonali natural sonlar nechta?
A) 14 B) 12 C) 15 D) 11 E)13

27. (02-12-33) $249 \cdot 250 - 250 \cdot 251 + 251 \cdot 252 - 252 \cdot 253 + 253 \cdot 254 - 254 \cdot 255$ ni hisoblang.
A) -1514 B) -1516 C) -1512 D) -1518 E) -1510

28. (03-8-30) $4^{12}+4^{12}+4^{12}+4^{12}$ yig'indining yarmini hisoblang.
A) 2^{25} B) 2^{24} C) 4^{48} D) $2 \cdot 4^{16}$ E) 4^{25}

29. (03-10-1) $2001 \cdot 2004 - 2002 \cdot 2003$ ni hisoblang.
A) -2 B) 2 C) 0 D) 2000 E) 4

30. (03-10-16) Dastlabki 100 ta natural sonlarni yozganda, 7 raqami necha marta takrorlanadi?
A) 10 B) 20 C) 19 D) 18 E) 17

1.1.2 Bo'linish belgilari.

1. Oxirgi raqami 0,2,4,6,8 lar bilan tugaydigan sonlar 2 ga bo'linadi.

2. Oxirgi ikki raqami 0 bilan tugasa yoki 4 ga bo'linsa, bunday sonlar 4 ga bo'linadi.

3. Oxirgi uchta raqami 0 bilan tugasa yoki 8 ga bo'linsa, bunday sonlar 8 ga bo'linadi.

4. Oxirgi raqami 0 yoki 5 bilan tugaydigan sonlar 5 ga bo'linadi.

5. Raqamlar yig'indisi 3 ga bo'linadigan sonlar 3 ga bo'linadi.

6. Raqamlar yig'indisi 9 ga bo'linadigan sonlar 9 ga bo'linadi.

7. Agar sonning juft o'rinda turgan raqamlar yig'indisi bilan toq o'rinda turgan raqalar yig'indisining ayirmasi 11 ga bo'linsa, bunday sonlar 11 ga bo'linadi.

(98-10-2) Quyidagi sonlardan qaysi biri 36 ga qoldiqsiz bo'linmaydi?
A)2016 B)3924 C)1782 D)8244 E)2484

Yechish: Biror son 36 ga qoldiqsiz bo'linishi uchun 4 ga ham 9 ga ham bo'linishi kerak. 1782 soni esa 4 ga bo'linmaydi. Shuning uchun u son 36 ga ham bo'linmaydi. J: 1782 (C).

1. (97-4-2) 17827516 quyidagi sonlardan qaysi biriga qoldiqsiz bo'linadi?
A)3 B)10 C)4 D)5 E)9

2. (97-4-12) n raqamining qanday qiymatlarida $6134n$ soni 3 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A)1 B)4 C)2 D)4; 2 E)1; 4; 7

3. (97-9-62) 41582637 quyidagi sonlardan qaysi biriga qoldiqsiz bo'linadi?
A)4 B)9 C)5 D)10 E)6

4. (97-9-72) n raqamining qanday qiymatlarida $7851n$ soni 9 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A)2 B)4 C)6 D)9 E)2; 6

5. (98-7-4) x raqamining qanday eng kichik qiymatida $(147 + \overline{3x2})$ son 3 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A)5 B)0 C)4 D)7 E)1

6. (98-10-51) Berilgan $p = 10189144, q = 396715256$ va $r = 78901644$ sonlardan qaysilari 8 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A)hech qaysisi B)p va q C)p va r D)p E)r

7. (98-12-4) x raqamining qanday eng katta qiymatida $(147 + \overline{3x2})$ son 3 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A)7 B)8 C)9 D)4 E)5

8. (98-12-70)* Agar a toq son bo'lsa, quyidagi sonlardan qaysi biri albatta toq son bo'ladi?
A) $a^2 + 27$ B) $5(a + 13)$ C) a^8
D) $\frac{a(a+3)}{2}$ E) $\frac{(a+1)(a+2)}{2}$

9. (99-3-7) Quyidagi sonli ketma-ketliklardan qaysilari tub sonlardan iborat?
1) 0; 3; 5; 7; 11; 2) 1; 3; 5; 7; 13; 3) 3; 5; 7; 9; 11; 4) 2; 3; 5; 7; 17; 5) 3; 5; 17; 19; 381
A) 1; 2 B)2; 4 C)5 D)3 E)4

10. (99-7-10) 30 dan kichik tub sonlar nechta?
A)11 B)9 C)10 D)12 E)8

11. (96-7-2) Berilgan sonlardan qaysilari 15 ga qoldiqsiz bo'linadi?
$x = 220350$, $y = 3,21 \cdot 10^6$, $z = 1024145$.
A) faqat x B) faqat z C) y va z
D) x va y E) x va z

12. (97-3-2) $x = 30112$, $y = 3,3 \cdot 10^5$ va $z = 102588$ sonlardan qaysilari 12 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) faqat y B) faqat x C) x va z
D) faqat z E) y va z

13. (97-7-2) Quyidagi sonlardan qaysilari 18 ga qoldiqsiz bo'linadi?
$x = 10842$, $y = 5,49 \cdot 10^4$, $z = 306198$
A) faqat x B) faqat y C) x va y
D) faqat z E) y va z

14. (97-10-2) Quyidagi sonlardan qaysilari 6 ga qoldiqsiz bo'linadi?
$x = 123386$, $y = 402108$, $z = 2,61 \cdot 10^5$
A) faqat x B) faqat y C) faqat$z$
D) y va z E) x va z

15. (97-2-5) Natural sonlar uchun quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Berilgan sonlar bo'linadigan sonlarning eng kattasi ularning eng katta umumiy bo'luvchisi bo'ladi
B) Agar ikki qo'shiluvchidan biri 11 ga bo'linib, ikkinchisi 11 ga bo'linmasa, ularning yig'indisi 11 ga bo'linmaydi
C) 3 ga bo'lingan son 9 ga ham bo'linadi
D) 3 ga va 5 ga bo'linadigan son 15 ga bo'linadi
E) Raqamlarning yig'indisi 3 ga bo'linadigan juft son 6 ga bo'linadi

16. (98-2-3) Quyidagi sonlardan qaysi biri 15 ga qoldiqsiz bo'linmaydi?
A) 6525 B) 3105 C)4620 D) 6145 E)1245

17. (98-3-3) Berilgan $p = 1018978560$, $q = 8976119441$ va $r = 987610734$ sonlardan qaysilari 16 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) Hech qaysi B) p C) q D) r E) p va q

18. (98-9-4) Quyidagi sonlardan qaysi biri 12 ga qoldiqsiz bo'linmaydi?
A) 9216 B) 13626 C)12024 D) 18312 E) 52308

19. (99-2-2) 821 ga qanday eng kichik musbat sonni qo'shganda, yig'indi 6 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) 4 B) 1 C)5 D) 7 E) 9

20. (99-2-3) $3p-3 \in N$ ga tegishli son 1; 2; 3; 6; 9 va 18 ga qoldiqsiz bo'linadi. p ning eng kichik natural qiymatini toping.
A) 14 B) 21 C)7 D) 5 E) 24

21. (00-7-3) 752 sonining o'ng tomoniga qanday raqam yozilsa, hosil bo'lgan son 36 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) 0 B) 2 C) 6 D) 7 E) 4

22. (00-8-3) $3 * 470$ yozuvdagi yulduzchani shunday raqam bilan almashtiringki, hosil bo'lgan son 45 ga qoldiqsiz bo'linsin.
A) 4 B) 5 C) 0 D) 6 E) 8

23. (96-6-5) Natural sonlarga nisbatan quyidagi mulohazalarning qaysi biri noto'g'ri?
A) berilgan sonlarga bo'linadigan sonlarning eng kichigi bu sonlarning eng kichik karralisi bo'ladi
B) agar qo'shiluvchilarning har biri 13 ga bo'linsa, u holda ularning yig'indisi ham 13 ga bo'linadi
C) agar biror sonning raqamlar yig'indisi 9 ga bo'linsa, u holda 9 ga bo'linadi
D) oxirgi raqami 4 ga bo'lingan son 4 ga bo'linadi
E) 3 ga hamda 2 ga bo'lingan sonlarning barchasi 6 ga ham bo'linadi.

24. (01-2-2) n ning qanday eng kichik natural qiymatida 2^n+1 soni 33 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) 7 B) 3 C)6 D) 4 E) 5

25. (01-11-2) Quyidagi sonlardan qaysi biri 45 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) $42 \cdot 85$ B) $35 \cdot 61$ C) $80 \cdot 123$ D) $36 \cdot 20$
E) $143 \cdot 30$

26. (02-4-28) 246*013579 soni 9 ga bo'linishi uchun yulduzchaning o'rniga qanday raqam qo'yilishi kerak?
A) 0 B) 4 C) 7 D) 8 E) 9

27. (02-12-21) Quyidagi ko'paytmalardan qaysi biri 45 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) $42 \cdot 85$ B) $35 \cdot 61$ C) $80 \cdot 123$ D) $39 \cdot 18$
E) $243 \cdot 80$

28. (03-2-69)* Agar $m \in N$ bo'lsa, quyidagi keltirilganlardan qaysi biri doimo juft bo'ladi?
A) $m(m+6)$ B) m^2+18m C) $\frac{m^2-16}{m+4}$
D) m^5+13m E) m^4+8

29. (03-6-37) 3, 6, 7 va 9 raqamlaridan ularni takrorlamasdan mumkin bo'lgan barcha 4 xonali sonlar tuzilgan. Bu sonlar ichida nechtasi 4 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) 2 B) 4 C) 6 D) 8 E) 12

1.1.3 Qoldiqli bo'lish.

a-bo'linuvchi, b-bo'luvchi, n-bo'linma, r-qoldiq.

1. $a = b \cdot n + r, \quad 0 \le r < b$

(98-6-7) 3^{20} ni 7 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.
A) 6 B) 3 C)1 D) 2 E) 4

Yechish: $(mk+r)^n$ sonni k ga bo'lgandagi qoldiq r^n ni k ga bo'lgandagi qoldiqqa teng, ya'ni $(mk+r)^n = m_1k+r^n \quad (m_1-bo'linma)$ bo'lgani uchun $9^{10} = (7+2)^{10} = 7n+2^{10} = 7n+32^2 = 7n+(4\cdot7+4)^2 = 7n+7n_1+4^2 = 7(n+n_1)+16 = 7(n+n_1+2)+2$ ekanini hosil qilamiz. Demak qoldiq 2 ga teng ekan. J:2 (D).

1. (96-6-2) 243 ni qandaydir songa bo'lganda bo'linma 15 ga, qoldiq 3 ga teng chiqdi. Bo'luvchi nechaga teng?
A) 17 B) 16 C) 18 D) 19 E) 21

2. (97-2-2) 215 ni 19 ga bo'lganda, qoldiq 6 bo'ladi. Bo'linma nechaga teng?
A) 13 B) 12 C) 9 D) 11 E) 14

3. (97-8-2) 358 ni qanday songa bo'lganda bo'linma 17 va qoldiq 1 bo'ladi?
A) 19 B) 21 C) 22 D) 20 E) 23

4. (97-12-2) Natural sonni 18 ga bo'lganda, bo'linma 15 ga, qoldiq 3 ga teng bo'ldi. Bo'linuvchini toping.
A) 173 B) 243 C) 253 D) 273 E) 263

5. (98-6-1) Qandaydir sonni 1995 ga bo'lganda, qoldiq 1994 ga teng bo'lsa, shu sonni 5 ga bo'lgandagi qoldiqni toping?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1 E) 0

6. (98-7-3) Qaysi tenglik qoldiqli bo'lishni ifodalaydi?
1) $43 = 9\cdot5-2$ 2) $43 = 8\cdot5+3$ 3) $43 = 7\cdot5+8$
4) $43 = 21 \cdot 2 + 1$
A) 1; 2; 4 B) 2; 3; 4 C) 2; 4 D) 3; 4
E) hammasi

7. (98-11-51) Qandaydir sonni 289 ga bo'lganda, qoldiq 287 ga teng bo'lsa, shu sonni 17 ga bo'lgandagi qoldiqni toping?
A) 15 B) 2 C) 5 D) 16 E) 0

8. (98-11-57) 9^{10} ni 7 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.
A) 1 B) 3 C) 2 D) 6 E) 4

9. (98-12-3) Qaysi tenglik qoldiqli bo'lishni ifodalaydi?
1) $47 = 4\cdot11+3$ 2) $47 = 6\cdot6+11$ 3) $47 = 9\cdot5+2$
4) $47 = 7 \cdot 7 - 2$
A) 1; 3 B) 1; 2; 3 C) 1; 4 D) 2; 3
E) hammasi

10. (99-1-3) Ifodani 6 ga bo'lgandagi qoldig'ini toping.
$7 + 69 + 671 + 6673 + 66675$
A) 1 B) 4 C) 3 D) 5 E) 2

11. (99-3-5) 36455478354 ni 2.4.5.9.10 va 25 ga bo'lganda hosil bo'ladigan qoldiqlar yig'indisini toping?
A) 18 B) 16 C) 15 D) 14 E) 12

12. (99-3-6) 4^{12} ni 9 ga bo'lganda qoldiq necha bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 4 D) 7 E) 8

13. (99-8-25)* Ikkita natural sonni 5 ga bo'lganda, mos ravishda 1 va 3 qoldiq hosil bo'ladi. Bu sonlar kvadratlarining yig'indisini 5 ga bo'lganda, qoldiq nechaga teng bo'ladi?
A) 4 B) 1 C) 2 D) 3 E) 0

14. (99-8-26) n sonini 7 ga bo'lganda, qoldiq 5 ga, m sonini 7 ga bo'lganda, qoldiq 6 ga teng. mn ko'paytmani 7 ga bo'lganda, qoldiq nechaga teng bo'ladi?
A) 4 B) 0 C) 1 D) 2 E) 3

15. (00-2-10) 3 ga bo'linmaydigan natural sonning kubini 9 ga bo'lganda, qoldiq qanday sonlar bo'lishi mumkin?
A) 1 yoki 8 B) 0 yoki 1 C) 0 yoki 8
D) 3 yoki 6 E) 0; 1 yoki 8

16. (00-5-5) 35 ta natural sonni ketma-ket yozish natijasida hosil bo'lgan 123...3435 sonini 25 ga bo'lish natijasida hosil bo'lgan qoldiq nechaga teng?
A) 15 B) 20 C) 5 D) 10 E) 0

17. (00-7-4) 624 ni qanday songa bo'lganda bo'linma 41 ga qoldiq esa 9 ga teng bo'ladi?
A) 16 B) 17 C) 13 D) 15 E) 12

18. (01-6-2) Barcha uch xonali sonlar ichida 45 ga qoldiqsiz bo'linadiganlari nechta?
A) 19 B) 20 C) 18 D) 21 E) 17

19. (01-7-8)* 2146, 1991 va 1805 sonlarining har birini qanday natural songa bo'lganda, qoldiqlari bir xil chiqadi?
A) 7 B) 13 C) 21 D) 31 E) 37

20. (02-3-12) Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri hamma vaqt to'g'ri?
A) Har bir qo'shiluvchi 11 ga bo'linsa, yig'indi ham 11 ga bo'linadi
B) Birorta ham qo'shiluvchi 11 ga bo'linmasa, yig'indi ham 11 ga bo'linmaydi
C) Qo'shiluvchilardan kamida bittasi 11 ga bo'linsa, yig'indi ham 11 ga bo'linadi
D) Yig'indi 11 ga bo'linsa, har bir qo'shiluvchi ham 11 ga bo'linadi
E) Yig'indi 11 ga bo'linmasa, birorta ham qo'shiluvchi 11 ga bo'linmaydi

21. (03-4-5) Nechta ikki xonali son 15 ga qoldiqsiz bo'linadi?
A) 4 B) 5 C) 7 D) 6 E) 8

22. (03-7-7) 2002^{2002} sonini 5 ga bo'lganda qoldiq nimaga teng?
A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

1.1.4 Umumiy bo'luvchi va umumiy karrali. EKUB va EKUK.

(96-9-1) 594 va 378 ning umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 8 B) 7 C) 9 D) 5 E) 6

Yechish: Ikki sonning umumiy bo'luvchilari soni ularning eng katta umumiy bo'luvchisining umumiy bo'luvchilari soniga teng:

$$594 = 2 \cdot 3^3 \cdot 11, \quad 378 = 2 \cdot 3^3 \cdot 7$$

bo'lgani uchun 594 va 378 sonlarining eng katta umumiy bo'luvchisi $2^1 \cdot 3^3$ ga teng. 2,3, ..., p tub sonlar darajalarining $l = 2^m \cdot 3^n \cdots p^k$ ko'paytmasi shaklida yozilgan l sonining bo'luvchilari soni $(m+1)(n+1)\cdots(k+1)$ ga teng bo'lgani uchun berilgan sonlarning umumiy bo'luvchilari soni $n = (1+1)(3+1) = 8$ ga teng. **J:** 8 (A).

1. (96-3-2) 8 va 6 sonlarining eng kichik umumiy karralisini toping.
A) 16 B) 24 C) 12 D) 8 E) 48

2. (96-3-61) 630 va 198 ning umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 5 B) 6 C) 4 D) 7 E) 8

3. (96-11-2) 10 va 8 sonlarining eng kichik umumiy karralisini toping.
A) 80 B) 10 C) 18 D) 40 E) 24

4. (96-12-2) 6 va 4 sonlarining eng kichik umumiy karralisini toping.
A) 6 B) 14 C) 24 D) 28 E) 12

5. (96-12-59) 840 va 264 ning umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 9 B) 4 C) 6 D) 8 E) 7

6. (96-13-1) 420 va 156 ning umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 7 B) 5 C) 6 D) 4 E) 8

7. (97-4-1) n raqamining qanday qiymatlarida $10+n$ va 10 sonlarining eng kichik umumiy karralisi 60 bo'ladi?
A) 2 B) 0 C) 5;2 D) 2;0 E) 5

8. (97-5-10) Qaysi juftlik o'zaro tub sonlardan iborat?
A) (8; 14) B) (11; 22) C) (12; 35)
D) (12; 34) E) (10; 26)

9. (97-8-5) Quyidagi mulohazalarning qaysi biri natural sonlarga nisbatan noto'g'ri?
A) berilgan sonlarga bo'linadigan sonlarning eng kichigi bu sonlarning eng kichik umumiy karralisi bo'ladi.
B) 3 hamda 4 ga bo'lingan son, 12 ga ham bo'linadi.
C) oxirgi raqami 0 yoki 4 bo'lgan son 4 ga bo'linadi.
D) oxirgi raqami 0 yoki 5 bo'lgan son 5 ga bo'linadi.
E) faqat o'ziga va birga bo'lingan 1 dan katta son tub son bo'ladi.

10. (97-9-10) Qaysi juftlik o'zaro tub sonlardan iborat?
A) (21; 14) B) (21; 10) C) (12; 15)
D) (10; 15) E) (8; 14)

11. (98-2-2) 8 va 12 sonlari eng kichik umumiy karralisining natural bo'luvchilari nechta?
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9 E) 10

12. (98-5-1) 312 va 12 sonlarining umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 2 B) 4 C) 3 D) 6 E) 1

13. (98-9-2) 15 va 25 sonlari eng kichik umumiy karralisining natural bo'luvchilari nechta?
A) 5 B) 4 C) 6 D) 7 E) 8

14. (98-10-1) 21 va 35 sonlarining eng kichik umumiy karralisi bilan eng katta umumiy bo'luvchisining yig'indisini toping.
A) 108 B) 110 C) 112 D) 109 E) 114

15. (98-11-2) 270 va 300 sonlari eng kichik umumiy karralisining 4 va 6 sonlarining eng kichik umumiy karralisiga nisbatini toping.
A) 25 B) 45 C) 225 D) 95 E) 125

16. (99-2-4) 24, 18 va 30 sonlari eng kichik umumiy karralisining eng katta umumiy bo'luvchisiga nisbatini toping.
A) 90 B) 72 C) 48 D) 30 E) 60

17. (99-7-1) 56 va 16 sonlarining umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 5 E) 6

18. (00-3-3) Quyidagi tasdiqlarning qaysilari to'g'ri?
1) Toq va juft sonlar doimo o'zaro tub;
2) Ikkita juft son o'zaro tub bo'la olmaydi;
3) Ikkita turli tub sonlar doim o'zaro tub;
4) Ikkita ketma-ket natural sonlar doim o'zaro tub;
5) 39 va 91 sonlari o'zaro tub.
A) 1; 3; 5 B) 4; 5 C) 2; 3; 5
D) 2; 3; 4 E) 3; 4

19. (00-3-5) 76 va 96 sonlarining eng kichik umumiy karralisining eng katta umumiy bo'luvchisiga nisbatini toping?
A) 10 B) 0,1 C) 9 D) 12 E) $\frac{1}{12}$

20. (00-7-2) 18 va 12 sonlari eng kichik umumiy karralisining eng katta umumiy bo'luvchisiga ko'paytmasini toping?
A) 220 B) 218 C) 214 D) 216 E) 212

21. (00-7-7) 9, 10, 22 va 25 sonlari orasida nechta o'zaro tub sonlar jufti bor?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 6 E) 5

22. (00-10-2) 108 va 135 sonlarining eng kichik umumiy karralisini 12 va 54 sonlari eng kichik umumiy karralisiga nisbatini toping?
A) 8 B) 5 C) 12 D) 6 E) 10

23. (99-8-19) Ikki sonning ko'paytmasi 294 ga, ularning eng katta umumiy bo'luvchisi 7 ga teng. Bu sonlarning eng kichik umumiy karralisini toping.
A) 42 B) 52 C) 56 D) 49 E) 70

24. (01-12-1) Dastlabki 30 ta natural sonlar ichida 6 soni bilan o'zaro tub bo'lgan sonlar nechta?
A) 7 B) 8 C) 9 D) 10 E) 11

25. (02-5-5) 36 ning natural bo'luvchilari nechta?
A) 5 B) 7 C) 8 D) 9 E) 4

26. (03-4-3) [4; 8] kesmada nechta o'zaro tub sonlar jufti bor?
A) 5 B) 6 C) 4 D) 7 E) 8

27. (03-10-11) $8^{n+2} \cdot 12^{n-3}$ ko'paytmaning natural bo'luvchilari soni 42 ga teng bo'lsa, n nechaga teng bo'ladi?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 5 E) 6

1.1.5 Oxirgi raqam.

(96-13-11) 2^{100} ning oxirgi raqamini toping?
A) 2 B) 0 C) 4 D) 6 E) 8

Yechish: 2 soni darajalarining oxirgi raqamlari har 4-darajadan keyin takrorlanib kelishini kuzatish mumkin:

$$2^1 = 2; \quad 2^2 = 4; \quad 2^3 = 8; \quad 2^4 = 16; \quad 2^5 = 32;$$
$$2^6 = ...4; \quad 2^7 = ...8; \quad 2^8 = ...6; \ ...$$

2 ning daraja ko'rsatkichi 4 ga bo'linsa, u son 6 bilan tugar ekan. **J:** 6 (D).

1. (96-3-71) 8^{99} ning oxirgi raqamini toping.
A) 0 B) 2 C) 4 D) 6 E) 8

2. (96-9-11) 7^{100} ning oxirgi raqamini toping.
A) 3 B) 5 C) 7 D) 9 E) 1

3. (96-12-69) 3^{101} ning oxirgi raqamini toping.
A) 3 B) 1 C) 7 D) 9 E) 5

4. (97-1-2) Ayirma qanday raqam bilan tugaydi?

$$17 \cdot 28 \cdot 41 \cdot 35 - 24 \cdot 12 \cdot 87$$

A) 0 B) 2 C) 4 D) 6 E) 8

5. (97-5-13) 6^{1971} ning oxirgi raqamini toping.
A) 2 B) 6 C) 8 D) 4 E) 1

6. (97-6-2) Yig'indining oxirgi raqamini toping.

$$16 \cdot 27 \cdot 38 \cdot 19 + 22 \cdot 43 \cdot 98$$

A) 8 B) 6 C) 4 D) 2 E) 0

7. (97-9-13) 2^{1971} ning oxirgi raqamini toping.
A) 2 B) 6 C) 4 D) 8 E) 0

8. (97-11-2) Yig'indining oxirgi raqamini toping.

$$15 \cdot 25 \cdot 37 \cdot 43 + 34 \cdot 48 \cdot 77$$

A) 4 B) 9 C) 0 D) 5 E) 7

9. (99-1-2) Ayirmaning oxirgi raqamini toping.

$$9^{20} - 7^{20}$$

A) 0 B) 7 C) 1 D) 3 E) 2

10. (99-6-7) Ifodaning qiymati qanday raqam bilan tugaydi?

$$11^6 + 14^6 - 13^3 - 8$$

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 6

11. (99-6-11) Yig'indi qanday raqam bilan tugaydi?

$$9^{1996} + 9^{1997}$$

A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 5

12. (99-8-8) Oxirgi raqami 3 ga teng bo'lgan 13 ta ko'paytuvchining ko'paytmasi qanday raqam bilan tugaydi.
A) 3 B) 1 C) 9 D) 7 E) 6

13. (00-1-2)* 1 dan 50 gacha bo'lgan sonlarning ko'paytmasi nechta nol bilan tugaydi?
A) 14 B) 10 C) 13 D) 11 E) 12

14. (00-2-9) Ushbu $1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot ... \cdot 50$ ko'paytma nechta nol bilan tugaydi.
A) 8 B) 10 C) 9 D) 14 E) 12

15. (00-3-8) Ayirmaning oxirgi raqamini toping.
$1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot ... \cdot 26 \cdot 27 - 1 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 7 \cdot ... \cdot 25 \cdot 27$
A) 4 B) 3 C) 5 D) 6 E) 8

16. (00-5-2) 3^{2000} soni qanday raqam bilan tugaydi?
A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 7

17. (00-6-1)* 10 dan boshlab 75 dan katta bo'lmagan barcha natural sonlarni ko'paytirish natijasida hosil bo'lgan sonning oxirida nechta nol qatnashadi?
A) 15 B) 16 C) 17 D) 18 E) 14

18. (01-2-4) Ushbu $43^{43} - 17^{17}$ ayirmani 10 ga bo'lganda hosil bo'ladigan qoldiqni toping.
A) 5 B) 2 C) 1 D) 0 E) 7

19. (02-9-7) $1998^{2002} + 1997^{2001}$
yig'indining oxirgi raqamini toping.
A) 7 B) 5 C) 3 D) 1 E) 9

1.1.6 Butun sonlar.

(97-12-7) Quyidagi ifodalarning qaysi biri 1 ga teng?
A) $(-(-1)^2)^3$ B) $((-1)^3)^3$ C) $(-(-1)^4)^5$
D) $((-1)^5)^3$ E) $((-1)^3)^4$

Yechish: -1 ning juft darajasi 1 ga teng bo'lgani uchun $((-1)^3)^4 = (-1)^4 = 1$. **Javob:** (E).

1. (96-3-6) Hisoblang.

$$-8 + 6 : (-2) - 2 : (-11)$$

A) 23 B) 11 C) -11 D) -10 E) 143

2. (96-6-9) Quyidagi ifodalardan qaysi biri -1 ga teng?
A) $((-1)^2)^3$ B) $(-(-1)^2)^3$ C) $((-1)^3)^2$
D) $(-(-1)^3)^3$ E) $-((-1)^5)^3$

3. (96-11-6) Hisoblang.

$$-8 - 6 : (-2) - 2 : (-11)$$

A) 17 B) -55 C) 55 D) 77 E) -77

4. (96-12-6) Hisoblang.

$$8 + 6 : (-2) - 2 \cdot (-11)$$

A) 99 B) 15 C) 33 D) -52 E) 27

5. (97-2-9) Quyidagi ifodalardan qaysi biri 1 ga teng?
A) $(-(-1)^2)^3$ B) $((-1)^3)^5$ C) $-((-1)^5)^4$
D) $((-1)^3)^4$ E) $-((-1)^2)^3$

6. (97-8-9) Quyidagilardan qaysi biri -1 ga teng?
A) $((-1)^3)^2$ B) $(-(-1)^3)^6$ C) $(-(-1)^2)^4$
D) $-((-1)^3)^4$ E) $((-1)^2)^4$

7. (99-3-2)* Hisoblang.

$$1 - 3 + 5 - 7 + 9 - 11 + ... + 97 - 99$$

A) -46 B) -48 C) -50 D) -52 E) -54

8. (01-1-2)* Yig'indini hisoblang.

$$4 - 7 + 8 - 11 + 12 - 15 + ... + 96 - 99$$

A) -75 B) -80 C) -72 D) -63 E) -60

1.2 Kasrlar.

1.2.1 Oddiy kasrlar.

1. $\frac{-a}{-b} = \frac{a}{b}$
2. $\frac{a+b-c}{m} = \frac{a}{m} + \frac{b}{m} - \frac{c}{m}$
3. $\frac{ab}{c} = \frac{a}{c} \cdot b = \frac{b}{c} \cdot a$
4. $\frac{a}{c} + \frac{b}{c} = \frac{a+b}{c}$
5. $\frac{a}{b} + \frac{c}{d} = \frac{ad+bc}{bd}$
6. $\frac{-a}{b} = \frac{a}{-b} = -\frac{a}{b}$
7. $c \cdot \frac{a}{b} = \frac{ca}{b}$
8. $\frac{a}{b} \cdot \frac{c}{d} = \frac{ac}{bd}$
9. $\frac{a}{b} : \frac{c}{d} = \frac{ad}{bc}$
10. $c : \frac{a}{b} = \frac{cb}{a}$
11. $\frac{a}{b} = \frac{ac}{bc} = \frac{a:c}{b:c}$
12. $\frac{a}{b} : c = \frac{a}{bc}$

(00-6-16) Hisoblang.

$$\frac{1}{2 \cdot 5} + \frac{1}{5 \cdot 8} + \frac{1}{8 \cdot 11} + \frac{1}{11 \cdot 14} + \frac{1}{14 \cdot 17}$$

A) $\frac{15}{34}$ B) $\frac{5}{17}$ C) $\frac{5}{34}$ D) $\frac{16}{173}$ E) $\frac{15}{136}$

Yechish: Har bir maxrajdagi ko'paytuvchilar 3 ga farq qiladi. Ixtiyoriy n natural son uchun

$\frac{1}{n(n+3)} = \frac{1}{3}\cdot(\frac{1}{n} - \frac{1}{n+3})$ ekanligidan

$$\frac{1}{3}\cdot(\frac{1}{2}-\frac{1}{5})+\frac{1}{3}\cdot(\frac{1}{5}-\frac{1}{8})+\frac{1}{3}\cdot(\frac{1}{8}-\frac{1}{11})+\frac{1}{3}\cdot(\frac{1}{11}-\frac{1}{14})+$$
$$+\frac{1}{3}\cdot(\frac{1}{14}-\frac{1}{17}) = \frac{1}{3}\cdot(\frac{1}{2}-\frac{1}{5}+\frac{1}{5}-\frac{1}{8}+\frac{1}{8}-\frac{1}{11}+\frac{1}{11}-$$
$$-\frac{1}{14}+\frac{1}{14}-\frac{1}{17}) = = \frac{1}{3}(\frac{1}{2}-\frac{1}{17}) = \frac{5}{34}$$

ni hosil qilamiz. J: $\frac{5}{34}$ (C).

1. (96-1-8) $\frac{9}{11}$ va 1 sonlari orasida maxraji 33 ga teng bo'lgan nechta kasr son bor?
   A) 2 B) 1 C) 5 D) 6 E) 4

2. (96-3-12) Hisoblang.
$$-\frac{1}{2}-\frac{1}{3}$$
   A) $\frac{5}{6}$ B) $-\frac{2}{5}$ C) $\frac{2}{5}$ D) $-\frac{5}{6}$ E) $\frac{1}{5}$

3. (96-3-13) Ayirmani toping.
$$\frac{1}{2}-\frac{2}{3}$$
   A) $\frac{1}{6}$ B) 1 C) $-\frac{1}{3}$ D) -1 E) $-\frac{1}{6}$

4. (96-11-13) Hisoblang.
$$-\frac{1}{4}-\frac{1}{5}$$
   A) $-\frac{9}{20}$ B) $-\frac{2}{9}$ C) $-\frac{1}{10}$ D) $\frac{9}{20}$ E) $\frac{2}{9}$

5. (96-11-14) Ayirmani toping.
$$\frac{1}{4}-\frac{4}{5}$$
   A) $-\frac{11}{20}$ B) -1 C) $-\frac{7}{20}$ D) $\frac{13}{20}$ E) $\frac{3}{20}$

6. (96-12-13) Hisoblang.
$$-\frac{1}{3}-\frac{1}{4}$$
   A) $-\frac{2}{7}$ B) $-\frac{7}{12}$ C) $\frac{1}{6}$ D) $-\frac{1}{6}$ E) $\frac{7}{12}$

7. (96-12-14) Ayirmani toping.
$$\frac{1}{3}-\frac{3}{4}$$
   A) $-\frac{1}{6}$ B) $-\frac{5}{12}$ C) $\frac{1}{6}$ D) $\frac{5}{12}$ E) -1

8. (98-7-5) Hisoblang.
$$243 : (9 : 11)$$
   A) 27 B) $2\frac{5}{11}$ C) $\frac{11}{27}$ D) $198\frac{9}{11}$ E) 297

9. (98-10-8) Kasrning qiymati 40 dan qanchaga kam?
$$\frac{(20-48)(-5-20)}{-5}$$
   A) 160 B) 140 C) 180 D) 200 E) 120

10. (00-5-9) Ko'paytmani hisoblang.
$$\left(1-\frac{1}{2}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{3}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{4}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{5}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{6}\right)$$
    A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{1}{5}$ D) $\frac{1}{6}$ E) $\frac{1}{7}$

11. (96-3-9) Ifodaning qiymatini toping.
$$-\frac{3}{15}+\frac{1}{5}-\frac{1}{3}$$
    A) $-\frac{19}{30}$ B) $-\frac{1}{3}$ C) $\frac{19}{30}$ D) $\frac{1}{3}$ E) $\frac{3}{13}$

12. (96-3-10) Ifodaning hisoblang.
$$\frac{1}{3}\cdot\left(-\frac{2}{7}\right):\left(-\frac{5}{42}\right)$$
    A) $-\frac{4}{5}$ B) $\frac{5}{441}$ C) $\frac{10}{882}$ D) $-\frac{5}{441}$ E) $\frac{4}{5}$

13. (96-11-9) Ifodaning qiymatini toping.
$$-\frac{3}{15}+\frac{1}{5}+\frac{1}{3}$$
    A) $-\frac{1}{3}$ B) $\frac{2}{15}$ C) $\frac{7}{15}$ D) $\frac{1}{3}$ E) $\frac{4}{15}$

14. (96-11-11) Hisoblang.
$$\left(-\frac{1}{3}\right)\cdot\frac{2}{7}:\frac{5}{42}$$
    A) $\frac{4}{5}$ B) $\frac{5}{441}$ C) $-\frac{4}{5}$ D) $\frac{10}{882}$ E) $-\frac{5}{441}$

15. (96-12-9) Ifodaning qiymatini toping.
$$\frac{3}{15}-\frac{1}{5}-\frac{1}{3}$$
    A) $\frac{1}{3}$ B) $-\frac{3}{10}$ C) $\frac{3}{10}$ D) $\frac{1}{7}$ E) $-\frac{1}{3}$

16. (96-12-10) Hisoblang.
$$-\frac{1}{3}\cdot\left(-\frac{2}{7}\right):\frac{5}{42}$$
    A) $\frac{5}{441}$ B) $\frac{4}{5}$ C) $-\frac{5}{441}$ D) $-\frac{4}{5}$ E) $\frac{10}{882}$

17. (97-7-11) Hisoblang.
$$2\cdot 4^{-2}+\left(\frac{2}{3}\right)^{-3}-\left(\frac{1}{5}\right)^{0}$$
    A) $3\frac{1}{2}$ B) $4\frac{2}{3}$ C) 2 D) 2,5 E) 0

18. (97-10-11) Hisoblang.
$$12\cdot 3^{-3}+\left(\frac{3}{5}\right)^{-2}-\left(\frac{1}{2}\right)^{0}$$
    A) 2 B) $2\frac{2}{9}$ C) $4\frac{1}{3}$ D) $3\frac{2}{9}$ E) 0

19. (00-8-51) Hisoblang.
$$\frac{3375-1331}{4}:511-1$$
    A) -1 B) 0 C) 1 D) 25 E) -25

20. (96-1-24) Hisoblang.

$$\frac{9^2 \cdot 3^5}{81^2}$$

A) 1 B) 3 C) $\frac{1}{81}$ D) 9 E) 27

21. (96-9-65) Hisoblang.

$$\frac{27^3}{3^4 \cdot 9^2}$$

A) 3 B) $\frac{1}{3}$ C) 1 D) 9 E) $\frac{1}{9}$

22. (98-5-12) Hisoblang.

$$\frac{1}{1-\frac{1}{1-2^{-1}}} + \frac{1}{1+\frac{1}{1+2^{-1}}}$$

A) $\frac{2}{5}$ B) $\frac{2}{3}$ C) $-\frac{2}{5}$ D) $\frac{1}{2}$ E) $-\frac{4}{5}$

23. (98-7-2) Hisoblang.

$$\frac{488 \cdot 475 - 462}{244 + 475 \cdot 243}$$

A) 3 B) 1 C) $\frac{1}{2}$ D) 2 E) $1\frac{1}{2}$

24. (98-7-24) Hisoblang.

$$\frac{5(3 \cdot 7^{15} - 19 \cdot 7^{14})}{7^{16} + 3 \cdot 7^{15}}$$

A) 7 B) 49 C) $\frac{1}{7}$ D) $\frac{1}{49}$ E) 3

25. (98-12-2) Hisoblang.

$$\frac{244 \cdot 395 - 151}{244 + 395 \cdot 243}$$

A) 1 B) 2 C) 3 D) $1\frac{1}{2}$ E) $\frac{1}{2}$

26. (98-12-23) Hisoblang.

$$\frac{5 \cdot 2^{32} - 4 \cdot 2^{30}}{4^{16}}$$

A) 4 B) 2 C) 5 D) 16 E) $\frac{1}{4}$

27. (99-6-1) Hisoblang.

$$\frac{10^9 \cdot 3^5}{3^3 \cdot 10^{11}}$$

A) $0,09$ B) $0,9$ C) 9 D) $0,03$ E) $0,3$

28. (99-7-14) Hisoblang.

$$\frac{2}{1+\frac{1}{1+2^{-1}}} - \frac{2}{1+\frac{1}{1-2^{-1}}}$$

A) $\frac{7}{15}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{11}{18}$ D) $\frac{8}{15}$ E) $\frac{1}{3}$

29. (97-4-18) Hisoblang.

$$\frac{110^6 \cdot 77^4}{55^8 \cdot 154^2}$$

A) 30 B) $30\frac{9}{25}$ C) $31\frac{1}{25}$ D) $31\frac{9}{25}$ E) 31

30. (97-9-78) Hisoblang.

$$\frac{72^6 \cdot 24^4}{36^8 \cdot 8^3}$$

A) 24 B) 32 C) 16 D) 36 E) 28

31. (98-5-5) Hisoblang.

$$\frac{1000^{10}}{(700-200)^{12}} \cdot 500^2$$

A) 512 B) 1000 C) 2048 D) 1024 E) 500

32. (99-7-7) Hisoblang.

$$\frac{100^5}{(80+20)^{10}} \cdot 50^5$$

A) $\frac{1}{32}$ B) 16 C) 8 D) $\frac{1}{64}$ E) $\frac{1}{128}$

33. (96-9-58) $\frac{3}{4}$ va $\frac{8}{9}$ sonlari orasida maxraji 36 ga teng bo'lgan nechta kasr son bor?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

34. (96-10-8) $\frac{2}{3}$ dan katta va $\frac{5}{6}$ dan kichik bo'lgan, maxraji 30 ga teng bo'lgan nechta kasr mavjud?
A) 1 B) 2 C) 4 D) 5 E) 3

35. (98-7-15) Ushbu $m = \frac{119}{120}$, $n = \frac{240}{242}$; sonlar uchun quyidagi munosabatlardan qaysi biri to'gri?
A) $n > m$ B) $n < m$ C) $n = m$
D) $n - 1 = m$ E) $n = \frac{2m+2}{242}$

36. (98-3-5) Agar $a = \frac{5}{11}$, $b = \frac{3}{7}$ $c = \frac{6}{13}$; bo'lsa a, b va c ni o'sish tartibida joylashtring.
A) $a; b; c$ B) $b; a; c$ C) $b; c; a$ D) $c; b; a$ E) $c; a; b$

37. (98-10-7) Sonlarni o'sish tartibida joylashtiring?

$$a = \frac{49}{150}; \quad b = \frac{102}{300}; \quad c = \frac{22}{75}$$

A) $a < c < b$ B) $b < c < a$ C) $c < a < b$
D) $b < c < a$ E) $a < b < c$

38. (98-10-53) Sonlarni o'sish tartibida jolashtiring?

$$a = \frac{5}{11}; \quad b = \frac{6}{13}; \quad c = \frac{7}{15}$$

A) $a < b < c$ B) $b < a < c$ C) $b < c < a$
D) $c < b < a$ E) $c < a < b$

39. (98-12-14)* $m = \frac{1107}{1109}$, $n = \frac{2216}{2220}$ sonlar uchun quyidagi munosabatlardan qaysi biri to'gri?
A) $m < n$ B) $m > n$ C) $m = n$
D) $n = m + 1$ E) $n = \frac{2m+2}{2220}$

40. (99-4-10) Sonlarni kamayish tartibida joylashtiring?

$$a = \frac{7}{36}; \quad b = \frac{11}{34}; \quad c = \frac{7}{32}; \quad d = \frac{9}{25}$$

A) $a > b > c > d$ B) $b > a > d > c$
C) $d > a > b > c$ D) $a > c > b > d$
E) $d > b > c > a$

41. (00-5-7) $\frac{1}{30}$ va $\frac{1}{45}$ kasr umumiy maxrajining barcha natural bo'luvchilari soni nechta?
A) 11 B) 7 C) 12 D) 13 E)8

42. (98-12-62)* Hisoblang.

$$\frac{1}{1\cdot 2}+\frac{1}{2\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 4}+...+\frac{1}{999\cdot 1000}$$

A) $0,750$ B) $1,125$ C) $0,998$
D) $1,450$ E) $0,999$

43. (00-2-4)* Hisoblang.

$$\frac{1}{15}+\frac{1}{35}+\frac{1}{63}+\frac{1}{99}+\frac{1}{143}+\frac{1}{195}$$

A) $\frac{4}{15}$ B) $\frac{7}{15}$ C) $\frac{17}{45}$ D) $\frac{11}{15}$ E) $\frac{2}{15}$

44. (00-3-15)* Hisoblang.

$$\frac{1}{1\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 5}+\frac{1}{5\cdot 7}+...+\frac{1}{13\cdot 15}$$

A) $\frac{11}{15}$ B) $\frac{7}{30}$ C) $\frac{8}{15}$ D) $\frac{7}{15}$ E) $\frac{2}{5}$

45. (00-8-57)* Yig'indini hisoblang.

$$\frac{1}{1\cdot 2}+\frac{1}{2\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 4}+...+\frac{1}{99\cdot 100}$$

A) $\frac{1}{9}$ B) $\frac{1}{10}$ C) $\frac{1}{100}$ D) $\frac{1}{99}$ E) $\frac{99}{100}$

46. (00-9-10)* Hisoblang.

$$\frac{1}{15}+\frac{1}{35}+\frac{1}{63}+\frac{1}{99}+...+\frac{1}{255}$$

A) $\frac{7}{51}$ B) $\frac{2}{15}$ C) $\frac{2}{25}$ D) $\frac{3}{35}$ E) $\frac{7}{40}$

47. (99-5-1)* Hisoblang.

$$\frac{1}{12}+\frac{1}{20}+\frac{1}{30}+\frac{1}{42}+...+\frac{1}{182}$$

A) $\frac{11}{42}$ B) $\frac{10}{33}$ C) $\frac{1}{4}$ D) $\frac{12}{35}$ E) $\frac{15}{56}$

48. (01-5-2) Hisoblang.

$$\frac{2^{-2}\cdot 5^3\cdot 10^{-4}}{2^{-3}\cdot 5^2\cdot 10^{-5}}$$

A) 100 B) $0,01$ C) 2 D) 5 E) 10

49. (01-7-5) Maxraji 27 ga teng, $\frac{2}{3}$ dan katta va 1 dan kichik, qisqarmas kasrlar nechta?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7 E) 8

50. (02-1-3)

$$\frac{(-2)\cdot(-3)^{17}-(-3)^{16}}{9^7\cdot 15}$$

sonning uchdan bir qismini toping.
A) 1 B) 3 C) 2 D) 9 E) 6

51. (02-3-3) $\frac{3}{7}$, $\frac{4}{17}$, $\frac{21}{23}$ sonlariga bo'lganda, butun son chiqadigan eng kichik natural sonni toping.
A) 84 B) 36 C) 42 D) 63 E) 34

52. (02-7-55) Hisoblang?

$$\frac{1}{2+\frac{1}{3+\frac{1}{1+\frac{1}{2}}}}$$

ni qiymatini toping.
A) $\frac{11}{25}$ B) $\frac{17}{25}$ C) $\frac{1}{4}$ D) $\frac{3}{4}$ E) $\frac{13}{25}$

53. (03-1-9)* Yig'indini hisoblang.

$$\frac{1}{8}+\frac{1}{24}+\frac{1}{48}+\frac{1}{80}$$

A) $0,1$ B) $0,2$ C) $0,4$ D) $0,6$ E) $0,8$

54. (03-5-3) $\frac{3}{17}$, $\frac{8}{13}$, $\frac{16}{19}$ sonlarga bo'linganda, bo'linma butun son chiqadigan eng kichik natural son nechaga teng?
A) 48 B) 24 C) 36 D) 60 E) 96

55. (03-6-4) $\frac{2}{7}$, $\frac{4}{11}$, $\frac{6}{13}$ va $\frac{8}{19}$ sonlariga bo'linganda, bo'linma butun son chiqadigan eng kichik natural sonni toping.
A) 6 B) 12 C) 18 D) 24 E) 48

56. (03-6-5) Agar $\frac{29}{31}+\frac{38}{41}+\frac{47}{51}=a$ bo'lsa, $\frac{2}{31}+\frac{3}{41}+\frac{4}{51}$ quyidagilardan qaysi biriga teng?
A) $3-a$ B) $4-a$ C) $5-a$ D) $3-\frac{a}{2}$ E) $4-\frac{a}{2}$

57. (03-6-53)

$$\left((-17)^{-4}\right)^{-6}:\left((-17)^{-13}\right)^{-2}-\left(\frac{1}{17}\right)^2$$

ni hisoblang.
A) $\frac{1}{289}$ B) $\frac{1}{17}$ C) 1 D) 0 E) $\frac{16}{17}$

58. (03-7-6) $\frac{2}{7}$, $\frac{4}{11}$, $\frac{6}{13}$ sonlariga bo'linganda, bo'linma butun son chiqadigan eng kichik natural sonni toping.
A) 6 B) 12 C) 18 D) 24 E) 48

59. (03-7-8) Agar $\frac{29}{31}+\frac{38}{41}+\frac{47}{51}+\frac{56}{61}=a$ bo'lsa, $\frac{2}{31}+\frac{3}{41}+\frac{4}{51}+\frac{5}{61}$ quyidagilardan qaysi biriga teng?
A) $3-a$ B) $4-a$ C) $5-a$ D) $3-\frac{a}{2}$ E) $4-\frac{a}{2}$

60. (03-7-43)* Hisoblang.

$$\frac{2}{5\cdot 7}+\frac{2}{7\cdot 9}+\frac{2}{9\cdot 11}+...+\frac{2}{73\cdot 75}$$

A) $\frac{16}{75}$ B) $\frac{28}{75}$ C) $\frac{1}{5}$ D) $\frac{14}{75}$ E) $\frac{2}{5}$

61. (03-7-65) Hisoblang.

$$\frac{2^{19}\cdot 27^3+15\cdot 4^9\cdot 9^4}{6^9\cdot 2^{10}+12^{10}}$$

A) 1 B) 2 C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{2}{3}$ E) $\frac{1}{2}$

62. (03-8-29)* Hisoblang.

$$1+\frac{1}{10\cdot 11}+\frac{1}{11\cdot 12}+\frac{1}{12\cdot 13}+\frac{1}{13\cdot 14}+\frac{1}{14\cdot 15}+\frac{1}{15\cdot 16}$$

A) $1\frac{3}{80}$ B) $1,16$ C) $1\frac{3}{40}$ D) $1\frac{7}{80}$ E) $1\frac{13}{80}$

1.2.2 Butun va kasr qismli sonlar.

(97-10-6) Hisoblang.

$$1\frac{8}{17}\cdot 3\frac{2}{5}:\frac{11}{12}\cdot 2\frac{1}{5}:\frac{4}{9}$$

A) $2,7$ B) $24\frac{3}{17}$ C) 27 D) $29\frac{1}{9}$ E) $7\frac{1}{3}$

Yechish: Avval kasrlarni noto'g'ri kasrga keltiramiz so'ngra ularning surat va maxrajlarini qisqartiramiz:

$$1\frac{8}{17}\cdot 3\frac{2}{5}:\frac{11}{12}\cdot 2\frac{1}{5}:\frac{4}{9}=\frac{25}{17}\cdot\frac{17}{5}\cdot\frac{12}{11}\cdot\frac{11}{5}\cdot\frac{9}{4}=27$$

Javob: 27 (C)

1. (96-3-14) Ushbu $\left(-2\frac{1}{2}\right)^3$ ifodani hisoblang.
   A) $8\frac{1}{8}$ B) $2\frac{1}{8}$ C) $31\frac{1}{4}$ D) $-8\frac{1}{8}$ E) $-15\frac{5}{8}$

2. (96-12-15) Hisoblang.
$$\left(-1\frac{1}{2}\right)^3$$
   A) $6\frac{3}{4}$ B) $1\frac{1}{8}$ C) $-3\frac{3}{8}$ D) $-1\frac{1}{8}$ E) $-2\frac{1}{4}$

3. (97-5-9) Amalni bajaring.
$$1\frac{3}{5}-3\frac{1}{5}$$
   A) $-1\frac{2}{5}$ B) $1\frac{2}{5}$ C) $1\frac{3}{5}$ D) $2\frac{2}{5}$ E) $-1\frac{3}{5}$

4. (97-9-9) Amalni bajaring.
$$3\frac{4}{7}-5\frac{2}{7}$$
   A) $-1\frac{5}{7}$ B) $1\frac{4}{7}$ C) $1\frac{5}{7}$ D) $-\frac{4}{7}$ E) $1\frac{2}{7}$

5. (96-7-6) Hisoblang.
$$5\frac{5}{7}:2\frac{2}{5}\cdot 5\frac{1}{4}:1\frac{1}{6}\cdot\frac{2}{3}$$
   A) $7\frac{1}{7}$ B) $8\frac{1}{7}$ C) $6\frac{6}{7}$ D) $5\frac{5}{7}$ E) $4\frac{5}{6}$

6. (96-7-9) Hisoblang.
$$\left(7\frac{1}{3}-6\frac{7}{8}\right):\frac{3}{4}+8\frac{8}{9}\cdot 2\frac{1}{80}$$
   A) $17\frac{2}{3}$ B) $18\frac{1}{2}$ C) $21\frac{1}{2}$ D) $16\frac{1}{3}$ E) $17\frac{1}{2}$

7. (96-7-11) Hisoblang.
$$\left(\frac{1}{7}\right)^0+6\cdot 2^{-3}+\left(\frac{2}{5}\right)^{-2}$$
   A) 8 B) $7\frac{1}{7}$ C) 7 D) $-4\frac{4}{25}$ E) -7

8. (96-11-15) Hisoblang. $\left(-1\frac{1}{3}\right)^3$
   A) $-2\frac{10}{27}$ B) $2\frac{10}{27}$ C) $1\frac{1}{27}$
   D) $-\frac{1}{27}$ E) $-1\frac{1}{27}$

9. (97-1-3) Hisoblang.
$$1\frac{1}{4}+\frac{5}{12}:(\frac{1}{3}\cdot 2\frac{1}{2}-\frac{7}{8})$$
   A) $11\frac{1}{4}$ B) $-1\frac{1}{4}$ C) $9\frac{1}{4}$ D) $-8\frac{3}{4}$ E) $-9\frac{1}{4}$

10. (97-3-6) Hisoblang.
$$\frac{3}{4}\cdot 1\frac{1}{7}:\frac{2}{15}\cdot 12\frac{1}{4}:7\frac{1}{2}$$
   A) $10\frac{1}{2}$ B) 11 C) $9\frac{1}{4}$ D) $7\frac{1}{2}$ E) $5\frac{1}{7}$

11. (97-3-9) Hisoblang.
$$\left(5\frac{3}{4}-4\frac{8}{9}\right)\cdot 2+67\frac{1}{2}:2\frac{1}{7}$$
   A) $24\frac{1}{3}$ B) $33\frac{2}{9}$ C) $36\frac{1}{9}$ D) $31\frac{1}{3}$ E) $28\frac{2}{3}$

12. (97-3-11) Hisoblang.
$$4\frac{1}{2}\cdot 6^{-2}+\left(\frac{2}{5}\right)^{-3}-\left(\frac{2}{5}\right)^{0}$$
   A) $15\frac{3}{4}$ B) $15\frac{1}{8}$ C) $11\frac{3}{5}$ D) $6\frac{3}{8}$ E) $14\frac{3}{4}$

13. (97-6-3) Hisoblang.
$$\left(\frac{5}{9}-1\frac{1}{6}\cdot\frac{1}{2}\right):\frac{5}{9}+\frac{1}{3}$$
   A) $\frac{3}{20}$ B) $\frac{17}{60}$ C) $\frac{7}{30}$ D) $-\frac{7}{60}$ E) $-\frac{11}{30}$

14. (97-7-6) Hisoblang.
$$\frac{42}{95}\cdot 1\frac{3}{14}:\frac{3}{5}:2\cdot 4\frac{3}{4}$$
   A) $\frac{13}{8}$ B) $1\frac{3}{8}$ C) $2\frac{1}{8}$ D) $1\frac{5}{7}$ E) $2\frac{3}{5}$

15. (97-7-9) Hisoblang.
$$\left(4\frac{1}{10}-3\frac{4}{15}\right)\cdot\frac{5}{6}+4\frac{1}{10}:1\frac{1}{5}$$
   A) $3\frac{5}{9}$ B) $4\frac{1}{9}$ C) $5\frac{2}{3}$ D) $2\frac{3}{5}$ E) $3\frac{7}{9}$

16. (97-10-9) Hisoblang.
$$\left(12\frac{1}{9}-10\frac{2}{5}\right):38\frac{1}{2}+2\frac{8}{9}\cdot 18$$
   A) $24\frac{1}{15}$ B) $32\frac{7}{45}$ C) $38\frac{3}{5}$ D) 47 E) $52\frac{2}{45}$

17. (97-11-3) Hisoblang.
$$\left(3\frac{17}{36}-5\frac{7}{12}\right):\frac{2}{9}-\frac{3}{26}\cdot 4\frac{1}{3}$$
   A) -9 B) $8\frac{1}{2}$ C) 9 D) -10 E) $-9\frac{1}{2}$

18. (98-3-8) Hisoblang.
$$3\frac{1}{3}\cdot 2\frac{1}{4}\cdot\left(-\frac{1}{2}\right)\cdot\frac{4}{5}$$
   A) 3 B) -3 C) $2,5$ D) $-2,5$ E) -4

19. (98-6-8) Hisoblang.
$$\left(1992\frac{3}{5}-1990\frac{2}{3}\right)\cdot 1\frac{1}{29}$$
   A) $-2\frac{14}{435}$ B) $\frac{14}{435}$ C) 2 D) -2 E) $2\frac{1}{29}$

20. (98-10-9) Hisoblang.

$$\left(4\frac{5}{8}\cdot 4\frac{1}{5}\cdot\frac{8}{37}-3\frac{3}{5}\right)^{-1}$$

A) $1\frac{3}{5}$ B) $1\frac{2}{5}$ C) $1\frac{3}{4}$ D) $1\frac{2}{3}$ E) $1\frac{1}{3}$

21. (98-10-55) $5\frac{7}{12}$ son $11\frac{1}{6}$ ga ko'paygan bo'lsa, u necha marta ko'paygan?
A) 3 B) 2 C) 2,5 D) 3,5 E) 1,75

22. (98-10-56) Hisoblang.

$$2\frac{2}{3}:1\frac{1}{7}\cdot 3\frac{3}{7}\cdot\left(-\frac{1}{4}\right)$$

A) 4 B) 3 C) -2 D) $\frac{2}{7}$ E) $\frac{7}{4}$

23. (98-11-58) Hisoblang.

$$\left(1997\frac{3}{5}-1996\frac{1}{6}\right)\cdot 1\frac{1}{29}$$

A) $\frac{13}{29}$ B) $2\frac{1}{29}$ C) $1\frac{13}{29}$ D) $3\frac{1}{29}$ E) $1\frac{14}{29}$

24. (98-12-11) Hisoblang.

$$\left(2\frac{1}{2}-1\frac{3}{8}\right)\cdot\left(3\frac{1}{2}-\frac{3}{6}\right)\cdot 1\frac{1}{3}$$

A) 4 B) 8 C) $4\frac{1}{2}$ D) 12 E) 3

25. (99-4-2) Hisoblang.

$$6\frac{3}{4}\cdot 5\frac{1}{4}-4\frac{5}{8}\cdot 5\frac{3}{8}$$

A) $10\frac{19}{64}$ B) $11\frac{27}{64}$ C) $11\frac{9}{64}$ D) $10\frac{39}{64}$ E) $10\frac{37}{64}$

26. (99-4-11) Hisoblang.

$$7\frac{5}{13}\cdot 2-1\frac{2}{5}\cdot 6+4\cdot 2\frac{4}{13}-3\cdot 1\frac{1}{5}$$

A) $11\frac{2}{5}$ B) 12 C) 13,5 D) $11\frac{8}{13}$ E) 14

27. (00-2-6) $\frac{11}{25}$ va $4\frac{6}{11}$ sonlariga teskari sonlar ko'paytmasi nechaga teng?
A) $\frac{1}{2}$ B) 1 C) $\frac{3}{4}$ D) 2 E) $\frac{1}{3}$

28. (01-8-3) Hisoblang.

$$5\frac{4}{19}\cdot 3\frac{4}{7}+1\frac{15}{19}:\frac{7}{25}-1\frac{2}{3}$$

A) $23\frac{2}{3}$ B) $23\frac{1}{3}$ C) $22\frac{2}{3}$ D) $24\frac{1}{3}$ E) $22\frac{1}{3}$

29. (03-11-54) Hisoblang.

$$\left(6\frac{1}{2}-8\frac{3}{4}\right):\frac{1}{8}+11\frac{3}{7}$$

A) $-7\frac{3}{7}$ B) $6\frac{3}{7}$ C) $-6\frac{4}{7}$ D) $-7\frac{5}{7}$ E) $-6\frac{5}{7}$

30. (03-11-59) Hisoblang.

$$10-2\frac{1}{2}:3\frac{3}{4}+\left(2\frac{1}{2}-1\frac{1}{3}\right)\cdot 6$$

A) $16\frac{2}{3}$ B) $17\frac{1}{3}$ C) $15\frac{2}{3}$ D) $16\frac{1}{3}$ E) 17

1.2.3 O'nli kasrlar.

(98-12-8) Hisoblang.

$$\frac{3,21\cdot 5,95-4,44}{2,21\cdot 5,95+1,51}$$

A) 1 B) 2 C) $\frac{1}{2}$ D) $1\frac{1}{2}$ E) $\frac{61}{186}$
Yechish:

$$3,21\cdot 5,95-4,44=(2,21+1)\cdot 5,95-4,44=$$

$$=2,21\cdot 5,95+5,95-4,44=2,21\cdot 5,95+1,51$$

ekanida

$$\frac{3,21\cdot 5,95-4,44}{2,21\cdot 5,95+1,51}=$$

$$=\frac{2,21\cdot 5,95+1,51}{2,21\cdot 5,95+1,51}=1$$

ni hosil qilamiz J: 1 (A)

1. (96-1-7) 0,6 ga teskari sonni toping.
A) $-0,6$ B) $1\frac{2}{3}$ C) 0,4 D) -6 E) $\frac{3}{6}$

2. (96-9-57) 0,8 songa teskari sonni toping.
A) $-0,8$ B) 8 C) $-\frac{5}{4}$ D) 1,25 E) 0,2

3. (96-10-7) $-1,5$ soniga teskari sonni toping.
A) 1,5 B) $-0,75$ C) $-\frac{2}{3}$ D) $\frac{2}{3}$ E) -3

4. (98-3-4) $0,0015\cdot 0,016$ ko'paytma quyidagi sonlardan qaysi biriga teng emas?
A) $2,4\cdot 10^{-5}$ B) $240\cdot 10^{-7}$ C) $24\cdot 10^{-6}$
D) $0,24\cdot 10^{-4}$ E) $0,0024\cdot 10^{-3}$

5. (98-10-4) Hisoblang.

$$2,014:0,19-2,5\cdot 0,3$$

A) 20,85 B) 1,85 C) 8,85 D) 7,85 E) 9,85

6. (98-10-52) $0,0025\cdot 0,026$ ko'paytma quyidagi sonlardan qaysi biriga teng emas?
A) $6,5\cdot 10^{-5}$ B) $650\cdot 10^{-7}$ C) $65\cdot 10^{-6}$
D) $0,65\cdot 10^{-4}$ E) $0,0065\cdot 10^{-3}$

7. (99-4-7) $2,5-4,3$ ga teskari sonni toping.
A) 0,8 B) 1,8 C) $-\frac{5}{9}$ D) $-1\frac{1}{4}$ E) $\frac{5}{9}$

8. (00-5-13) Ifodani hisoblang.

$$3,8\cdot(2,01-3,81)$$

A) 6,84 B) 5,82 C) $-6,84$ D) $-5,82$ E) 5,84

9. (01-8-17) Hisoblang.

$$0,21:(0,05+\frac{3}{20})-2,5\cdot 1,4$$

A) $-2,45$ B) $-2,55$ C) -2 D) $-3,35$ E) $-2,35$

10. (01-2-11) Hisoblang.

$$4-3,3:\left(2\frac{1}{7}-1\frac{1}{5}\right)$$

A) 3,5 B)2,5 C) $-1,5$ D) $-2,5$ E) 0,5

11. (00-5-17) Ifodaning qiymatini toping.

$$-2,4+3\frac{1}{3}-(-2,6)$$

A) $-10,6$ B)$12,5$ C) $3\frac{8}{15}$ D) $-12,5$ E) $-3\frac{8}{15}$

12. (00-5-18) Hisoblang.

$$\left(-\frac{3}{8}\right)\cdot(-32)+0,5\cdot(-8)$$

A) 8 B)4 C) 6 D) 7 E) 10

13. (00-5-28) $0,0000087$ sonini standart ko'rinishida yozing.
A) $8,7\cdot10^{-5}$ B) $8,7\cdot10^{7}$ C) $8,7\cdot10^{-6}$
D) $8,7\cdot10^{-7}$ E) $8,7\cdot10^{-4}$

14. (98-5-6) $-5,2$ bilan $10,4$ orasida nechta butun son bor?
A) 16 B) 10 C) 15 D) 12 E) 11

15. (98-7-11) Son o'qida -4 dan $2,3$ birlik masofada joylashgan sonlarni aniqlang.
A) $-6,3$ B) $-6,3$ va $1,7$ C) $6,3$ va $1,7$
D) $-6,3$ va $-1,7$ E) $-1,7$

16. (98-12-10) Son o'qida -2 dan $4,7$ birlik masofada joylashgan sonlarni aniqlang.
A) $-6,7;2,7$ B) $-6,7;-2,7$ C) $6,7;2,7$
D) $-6,7$ E) $-2,7$

17. (99-7-8) Koordinatalari $-3,2$ va $4,2$ bo'lgan sonlar orasida nechta butun son bor?
A) 7 B) 6 C) 9 D) 8 E) 10

18. (96-1-5) Hisoblang.

$$\left(2,5-2\frac{1}{3}\right)\cdot5,2:2\frac{3}{5}$$

A) $\frac{2}{3}$ B)$\frac{1}{3}$ C) 3 D) $\frac{3}{7}$ E) $2\frac{1}{3}$

19. (96-3-64) Ushbu

$$2,701\cdot10^{-4}+3,205\cdot10^{-3}$$

yig'indi quyidagi sonlarning qaysi biriga teng?
A) $5,906\cdot10^{-3}$ B)$5,906\cdot10^{-4}$ C) $3,4751\cdot10^{-3}$
D) $3,0215\cdot10^{-4}$ E) $5,906\cdot10^{-7}$

20. (96-6-1) Hisoblang.

$$1,75-\left(-1\frac{2}{7}\right)\cdot6,5\cdot\frac{7}{9}$$

A) $-4,75$ B)$2,15$ C) $8,25$ D) $4,75$ E) $7,55$

21. (96-9-4) $1,011\cdot10^{-3}+2,1\cdot10^{-4}$ yig'indi quyidagi sonlarning qaysi biriga teng?
A) $3,111\cdot10^{-3}$ B) $3,111\cdot10^{-4}$ C) $3,111\cdot10^{-7}$
D) $1,221\cdot10^{-3}$ E) $1,221\cdot10^{-4}$

22. (96-9-56) Hisoblang.

$$6\frac{3}{8}-\left(2,5-2\frac{1}{3}\right):1\frac{1}{3}$$

A) $5\frac{2}{3}$ B)$6\frac{1}{4}$ C) $4\frac{1}{3}$ D) $2\frac{1}{3}$ E) $5\frac{1}{4}$

23. (96-10-25) Hisoblang.

$$\frac{0,5^5\cdot32^2}{4^3}$$

A) 2 B)$\frac{1}{2}$ C) 4 D) $\frac{1}{4}$ E) 8

24. (96-12-62) Yig'indi quyidagi sonlarning qaysi biriga teng?

$$1,015\cdot10^{-4}+3,14\cdot10^{-5}$$

A) $4,155\cdot10^{-4}$ B) $4,155\cdot10^{-5}$ C) $4,155\cdot10^{-9}$
D) $1,329\cdot10^{-4}$ E) $1,329\cdot10^{-5}$

25. (96-13-4) Ushbu

$$3,104\cdot10^{-2}+1,81\cdot10^{-3}$$

yig'indi quyidagi sonlarning qaysi biriga teng?
A) $3,285\cdot10^{-3}$ B) $3,285\cdot10^{-2}$ C) $4,914\cdot10^{-2}$
D) $4,914\cdot10^{-3}$ E) $4,914\cdot10^{-5}$

26. (97-1-7) Hisoblang.

$$\left(\frac{1}{6}-1\frac{1}{15}+\frac{1}{10}\right):0,6+0,4$$

A) $1\frac{11}{15}$ B)$0,88$ C) $-1\frac{1}{3}$ D) $-\frac{14}{15}$ E) $-0,08$

27. (97-2-1) Hisoblang.

$$-1\frac{3}{4}\cdot6,5\cdot\left(-\frac{4}{7}\right)-3,75$$

A) $-2,75$ B)$-10,25$ C) $2,75$ D) $10,25$ E) $3,75$

28. (97-6-7) Hisoblang.

$$0,8+0,2:\left(\frac{7}{15}-1\frac{1}{6}+\frac{9}{20}\right)$$

A) 0 B)1 C) $1,6$ D) $-0,6$ E) -1

29. (97-8-1) Hisoblang.

$$5,8-\frac{3}{7}\cdot2,2\cdot\left(-2\frac{1}{3}\right)$$

A) $3,6$ B)-8 C) 8 D) $-3,6$ E) 6

30. (97-11-7) Hisoblang.

$$0,2+1,8\cdot\left(\frac{4}{9}-1\frac{1}{2}+\frac{1}{6}\right)$$

A) $-1,4$ B)$1,8$ C) $0,04$ D) $-0,36$ E) -2

31. (97-12-1) Hisoblang.

$$-\frac{8}{9}\cdot12,25\cdot1\frac{1}{8}-(-2,25)$$

A) 10 B)$-14,5$ C) -10 D) $14,5$ E) $-10,25$

32. (98-1-3) Hisoblang.

$$19,9\cdot18-19,9\cdot16+30,1\cdot18-30,1\cdot16$$

A) 98 B)100 C) 10 D) 110 E) 102

33. (98-1-5) Hisoblang.

$$1\frac{1}{6}+1\frac{5}{6}\cdot(1,854:1,8-1,5\cdot 2,02)$$

A) -4 B)$-2\frac{5}{6}$ C) $-2\frac{1}{2}$ D) 4 E) $2\frac{1}{3}$

34. (98-1-7) Hisoblang.

$$(\frac{2}{3}:3-1)\cdot 1,5^2-0,25$$

A) $1,5$ B)-2 C) -5 D) $-0,2$ E) $-1,5$

35. (98-1-13) Hisoblang.

$$\frac{5}{6}+2\cdot(0,63:0,6-1,6)$$

A) $\frac{19}{30}$ B)$-1\frac{1}{6}$ C) $-\frac{4}{15}$ D) $-1\frac{4}{15}$ E) $\frac{8}{15}$

36. (98-8-3) Hisoblang.

$$109\cdot 9,17-5,37\cdot 72-37\cdot 9,17+1,2\cdot 72$$

A) 360 B)350 C) 290 D) 380 E) 310

37. (98-8-5) Hisoblang.

$$\frac{3}{16}+\frac{1}{16}\cdot(0,312:0,3-3,15\cdot 1,6)$$

A) $\frac{1}{4}$ B)$\frac{3}{16}$ C) $-\frac{1}{16}$ D) $-\frac{1}{8}$ E) $-\frac{5}{8}$

38. (98-8-7) Hisoblang.

$$\left(\frac{5}{6}\cdot 5-5\right):\frac{2}{3}-0,5^2$$

A) 1 B)-1 C) $0,5$ D) $-1,75$ E) $-1,5$

39. (98-8-13) Hisoblang.

$$(0,98-0,312:0,3)\cdot 25+\frac{1}{9}$$

A) $15\frac{1}{9}$ B)$-14\frac{8}{9}$ C) $-10\frac{7}{18}$ D) $-1\frac{7}{18}$ E) $1\frac{11}{18}$

40. (98-11-1) Hisoblang.

$$\left(-\frac{2}{3}\right)^2\cdot(-0,75)^3\cdot(1,5)^4\cdot\left(-\frac{4}{3}\right)^3$$

A) $1,75$ B)$2,75$ C) $2,5$ D) $2,25$ E) $1,5$

41. (98-12-60) Hisoblang.

$$\left(1\frac{1}{9}\cdot 0,27-3\frac{1}{3}\cdot 0,15\right)-1500\cdot(-0,1)^3$$

A) $1,3$ B)$1,4$ C) $1,5$ D) $1,6$ E) $1,7$

42. (98-12-68) Hisoblang.

$$(0,3)^{-3}+\left(\frac{3}{7}\right)^{-1}+(-0,5)^{-2}\cdot\frac{3}{4}+(-1)^{-8}\cdot 6$$

A) $51\frac{5}{9}$ B)$42\frac{4}{9}$ C) $34\frac{2}{3}$ D) $48\frac{10}{27}$ E) $52\frac{2}{27}$

43. (99-4-4) Hisoblang.

$$2.8\cdot\left(2\frac{1}{3}:2,8-1\right)+2\frac{4}{5}$$

A) $5,6$ B)$2\frac{2}{3}$ C) $2\frac{1}{5}$ D) $2,8$ E) $3\frac{1}{5}$

44. (99-6-2) Hisoblang.

$$13,5\cdot 5,8-8,3\cdot 4,2-5,8\cdot 8,3+4,2\cdot 13,5$$

A) 42 B)52 C) 50 D) 48 E) 54

45. (99-8-7) Ifodaning qiymatini toping.

$$79,9-79,8+79,7-79,6+79,5-79,4+...+$$
$$+60,3-60,2+60,1-60$$

A) 100 B)20 C) 10 D) $18,8$ E) $9,9$

46. (00-2-1) Ifodaning qiymatini toping.

$$12,7\cdot 64+173\cdot 3,6+12,7\cdot 36+17,3\cdot 64$$

A) 3000 B)1800 C) 2000 D) 3600 E) 2200

47. (00-6-2) Hisoblang.

$$(0,2\cdot 0,1-0,1):0,25+0,75$$

A) $1,07$ B)$-2,45$ C) $3,95$ D) $0,43$ E) $0,97$

48. (00-6-3) Ifodaning qiymatini toping.

$$(1\frac{2}{3}\cdot 2,2+1):2\frac{1}{5}-\frac{5}{11}$$

A) 1 B)$1,6$ C) $2\frac{1}{3}$ D) $0,6$ E) $1\frac{2}{3}$

49. (00-8-52) Hisoblang.

$$\left(-\frac{4}{6}\right)\cdot\left(\frac{8}{6}\right)^3\cdot\left(-\frac{3}{2}\right)^2\cdot(0,75)^3$$

A) $1,5$ B)$1,75$ C) $2,75$ D) 2 E) $-1,5$

50. (96-1-3) Ifodaning qiymatini toping.

$$\frac{6,8\cdot 0,04\cdot 1,65}{3,3\cdot 5,1\cdot 0,16}$$

A) 6 B)$\frac{1}{2}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{6}$ E) $\frac{5}{12}$

51. (96-9-54) Ifodaning qiymatini toping.

$$\frac{0,7\cdot 1,8\cdot 2,6}{7,2\cdot 7,8\cdot 1,4}$$

A) $\frac{1}{24}$ B)$\frac{2}{5}$ C) $0,04$ D) $\frac{1}{12}$ E) $\frac{2}{3}$

52. (96-10-3) Ifodaning qiymati nechaga teng?

$$\frac{0,15\cdot 1,6\cdot 4,6}{9,2\cdot 0,03\cdot 6,4}$$

A) $\frac{5}{8}$ B)$\frac{2}{5}$ C) 2 D) $0,2$ E) $\frac{5}{4}$

53. (96-10-5) Hisoblang.

$$(5\frac{1}{3}-3,2):2\frac{2}{3}+1\frac{2}{5}$$

A) $2\frac{1}{2}$ B)$2,2$ C) $3,2$ D) 2 E) $1,8$

54. (97-1-1) Hisoblang.

$$\frac{0,215-1,6\cdot 0,215}{3,45-3\frac{3}{4}}$$

A) $-0,43$ B) $0,43$ C) $4,3$ D) $-4,2$ E) $0,45$

55. (97-6-1) Hisoblang.

$$\frac{0,15-0,15\cdot 6,4}{0,175-\frac{3}{8}}$$

A) $4,05$ B) $40,5$ C) $-0,405$ D) $2,1$ E) $-0,21$

56. (97-11-1) Hisoblang.

$$\frac{0,64\cdot 0,45-0,45}{1,05-1\frac{1}{2}}$$

A) $-3,6$ B) $0,36$ C) $0,64$ D) $-0,36$ E) $0,19$

57. (98-2-1) Hisoblang.

$$\frac{1,8}{(4\frac{2}{5}\cdot 6\frac{1}{3}-2\frac{1}{3}\cdot 4,4)\cdot\frac{5}{22}}$$

A) $0,4$ B) $4,5$ C) $4,2$ D) $4,4$ E) $0,45$

58. (98-4-1) Hisoblang.

$$(1,6^2-2,2\cdot\frac{3}{11}):1,4$$

A) $1,4$ B) $1,2$ C) $1,5$ D) $1,6$ E) $1,8$

59. (98-6-4) Hisoblang.

$$\frac{[(1,2:36)+0,3]\cdot 9}{0,2}$$

A) $148,5$ B) $1,5$ C) 150 D) 15 E) 16

60. (98-7-9) Hisoblang.

$$\frac{2,21\cdot 5,95+1,51}{6,42\cdot 5,95-8,88}$$

A) 1 B) $\frac{1}{2}$ C) $1\frac{1}{2}$ D) $-\frac{62}{41}$ E) $\frac{62}{41}$

61. (01-5-1) Ifodaning qiymatini hisoblang.

$$\frac{(6\frac{3}{5}-3\frac{3}{14})\cdot 5\frac{5}{6}}{(21-1,25):2,5}$$

A) $2,5$ B) 3 C) $-2,5$ D) 4 E) 5

62. (01-6-1) Hisoblang.

$$\frac{400-21,5\cdot 18,5}{1,5\cdot 2\frac{1}{5}+2,8\cdot 1\frac{1}{2}}$$

A) $\frac{2}{7}$ B) $\frac{3}{5}$ C) $\frac{3}{7}$ D) $\frac{5}{7}$ E) $\frac{3}{10}$

63. (01-8-9) Hisoblang.

$$\frac{(\frac{3}{2})^{-3}\cdot(3,375)^{-1}}{(2,25)^{-2}\cdot(\frac{2}{3})^{-1}}$$

A) $2\frac{1}{4}$ B) $\frac{4}{9}$ C) $\frac{8}{27}$ D) $3\frac{3}{8}$ E) $1\frac{1}{2}$

64. (98-9-1) Hisoblang.

$$\frac{\frac{5}{19}\cdot(3\frac{4}{5}\cdot 5\frac{1}{3}+4\frac{2}{3}\cdot 3,8)}{0,005}$$

A) 2010 B) 1800 C) 2120 D) 2000 E) 2200

65. (98-11-54) Hisoblang.

$$\frac{0,202-0,004}{\frac{8}{9}\cdot 18\cdot 0,125}$$

A) $0,099$ B) $0,99$ C) $0,0099$ D) 1 E) $1,98$

66. (99-2-1) Hisoblang.

$$\frac{7,4+\frac{13}{17}\cdot 0,15\cdot 1\frac{4}{13}\cdot 6\frac{2}{3}}{0,2\cdot 5-0,16}$$

A) 10 B) 8 C) 12 D) 6 E) 11

67. (99-4-3) Ifodaning qiymatini toping.

$$\frac{3,2\cdot 0,027\cdot 0,005}{0,09\cdot 0,0025\cdot 0,64}$$

A) 10 B) 12 C) 8 D) 11 E) 15

41. (03-7-15) Avtomobil butun yo'lning $\frac{3}{7}$ qismini 1 soatda, qolgan qismini 2 soatda bosib o'tdi. Uning birinchi tezligi ikkinchi tezligidan necha marta katta?
A) $\frac{2}{3}$ B) $\frac{3}{2}$ C) $\frac{9}{8}$ D) $\frac{8}{9}$ E) $\frac{5}{4}$

42. (03-10-4) Orasidagi masofa 384 km bo'lgan ikki mashina bir vaqtda bir tomonga harakat qilmoqda. 12 soatdan keyin orqadagi mashina oldingi mashinaga yetib oldi. Keyingi mashinaning tezligi oldingi mashinaning tezligidan qancha ortiq?
A) 32 B) 16 C) 28 D) 30 E) 42

43. (03-10-35) Soat 9^{00} da ma'lum marshrut bo'yicha tezligi 60 km/soat bo'lgan avtobus jo'natildi. Oradan 40 minut o'tgandan keyin, shu mashrut bo'yicha tezligi 80 km/soat bo'lgan ikkinchi avtobus jo'natildi. Soat nechada ikkinchi avtobus birinchi avtobusni quvib yetadi?
A) 10^{40} B) 11^{20} C) 11^{40} D) 12^{00} E) 12^{20}

44. (03-11-56) Motosiklchi mo'ljaldagi tezlikni 15 km /soatga oshirib, 6 soatda 7 soatda bosib o'tishi kerak bo'lgan masofaga qaraganda 40 km ko'p yo'lni bosib o'tdi. Motosiklchining mo'ljaldagi tezligini toping (km/soat).
A) 60 B) 45 C) 55 D) 50 E) 40

1.11.4 Ishga oid masalalar.

1. Foydali mulohazalar: agar ishchi ishni 48 kunda tugatsa,
   a) 1 kunda ishning $\frac{1}{48}$ qismini tugatadi;
   b) 6 kunda ishning $\frac{1}{48}\cdot 6=\frac{1}{8}$ qismini tugatadi;
   c) 4 ta shunday ishchi 6 kunda ishning $\frac{1}{48}\cdot 4\cdot 6=\frac{1}{2}$ qismini tugatadi;
2. Agar 1-kombayn hosilni x soatda, 2-kombayn y soatda, ikkala kombayn birgalikda hosilni z soatda yig'ib olsa, u holda
$$\frac{1}{x}+\frac{1}{y}=\frac{1}{z}$$
bo'ladi.

(98-10-11) Bir kombayn daladagi hosilni 15 soatda, boshqasi esa shu hosilni 10 soatda yig'ib olishi mumkin. Ikkala kombayn birgalikda hosilni qancha soatda yig'ib olishi mumkin?

A) 7 B) 8 C) 5,5 D) 5 E) 6

Yechish: Yuqoridagi tenglikka $x = 15$, $y = 10$ ni qo'yib z ni topamiz:

$$\frac{1}{z} = \frac{1}{15} + \frac{1}{10} = \frac{2+3}{30} = \frac{5}{30} = \frac{1}{6}, \qquad z = 6.$$

J: $z = 6$ (E).

1. (96-3-67) Qadimiy masala. Meshdagi suv Anvarning o'ziga 20 kunga, ukasiga esa 60 kunga yetadi. Meshdagi suv ikkalasiga necha kunga yetadi?
A) 15 B) 14 C) 12 D) 16 E) 13

2. (96-9-7) Qadimiy masala. Meshdagi suv Anvarning o'ziga 14 kunga, ukasi ikkalasiga esa 10 kunga yetadi. Meshdagi suv Anvarning ukasiga necha kunga yetadi?
A) 35 B) 39 C) 28 D) 26 E) 32

3. (96-12-65) Qadimiy masala. Meshdagi suv Anvarning o'ziga 14 kunga, ukasiga esa 35 kunga yetadi. Meshdagi suv ikkalasiga necha kunga yetadi?
A) 12 B) 10 C) 8 D) 9 E) 7

4. (96-13-7) Qadimiy masala. Meshdagi suv Anvarning o'ziga 35 kunga, akasi ikkalasiga esa 10 kunga yetadi. Meshdagi suv Anvarning akasiga necha kunga yetadi?
A) 20 B) 14 C) 16 D) 15 E) 18

5. (98-2-4) Hovuzdagi suv ikki quvur orqali orqali chiqariladi. Birinchi quvur to'la hovuzni 30 minutda, ikkala quvur birgalikda uni 18 minutda bo'shatadi. Ikkinchi quvur to'la hovuzni necha minutda bo'shatadi?
A) 50 B) 45 C) 42 D) 48 E) 52

6. (98-4-14) Birinchi quvur hovuzni 2 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa uch marta tezroq. Ikkala quvur birgalikda hovuzni qancha vaqtda to'ldiradi?
A) 45 min B) 40 min C) $\frac{1}{2}$ soat D) 25 min E) 35 min

7. (98-12-73) Birinchi quvur hovuzni 3 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa 5 soatda. Ikkala quvur birgalikda hovuzni qancha vaqtda to'ldiradi?
A) $1\frac{7}{8}$ B) $2\frac{1}{2}$ C) $2\frac{1}{5}$ D) $1\frac{4}{5}$ E) 2

8. (99-2-7) Hovuzga 2 ta quvur o'tkazilgan. Birinchi quvur bo'sh hovuzni 10 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa 15 soatda bo'shatadi. Hovuz bo'sh bo'lgan vaqtda ikkala quvur birdaniga ochilsa, hovuz necha soatdan keyin to'ladi?
A) 25 B) 28 C) 30 D) 32 E) 24

9. (00-4-19) Usta muayyan ishni 12 kunda, uning shogirdi esa 30 kunda bajaradi. Agar 3 ta usta va 5 ta shogird birga ishlasalar, o'sha ishni necha kunda bajarishadi?
A) 2,4 B) 3,6 C) 2,5 D) 1,2 E) 2,8

10. (00-7-9) Muayyan ishni bajarishga bir ishchi 3 soat, ikkinchi ishchi esa 6 soat vaqt sarflaydi. Birinchi ishchi 1 soat ishlagandan keyin, unga ikkinchi ishchi qo'shildi. Ikkala ishchi birgalikda qolgan ishni necha soatda tugatishadi?
A) 2 soat 30 min B) 1 soat 40 min C) 1 soat 20 min D) 2 soat E) 1soat 30 min

11. (01-6-7) Bir ishchi buyurtmani 6 soatda, boshqasi esa 10 soatda bajaradi. Ular birgalikda 3 soat ishlaganlaridan keyin ishning qancha qismi bajarilmay qolgan bo'ladi?
A) $\frac{1}{4}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{1}{5}$ D) $\frac{2}{5}$ E) $\frac{4}{5}$

12. (01-10-13) Birinchi brigada ishni 24 kunda, ikkinchisi esa 16 kunda tamomlay oladi. Agar birinchi brigadaga ikkinchi brigada 4 kun yordamlashsa, birinchi brigada ishni necha kunda tamomlay oladi?
A) 12 B) 14 C) 15 D) 16 E) 18

13. (02-1-32) Biror topshiriqni usta 20 kunda, shogird 30 kunda bajaradi. Ular birgalikda ishlasa, bu topshiriqni necha kunda bajarishadi?
A) 10 B) 12 C) 14 D) 15 E) 16

14. (02-6-18) 12 ta ishchi ma'lum miqdordagi ishni 4 soatda bajaradi. Xuddi shu ishni 3 soatda bajarish uchun necha ishchi kerak?
A) 9 B) 15 C) 16 D) 14 E) 8

15. (03-8-23) Hovuzga uchta quvur o'tkazilgan bo'lib, birinchi va ikkinchi quvurlar birgalikda hovuzni 12 soatda,birinchi va uchinchi quvurlar birgalikda hovuzni 15 soatda, ikkinchi va uchunchi quvurlar birgalikda hovuzni 20 soatda to'ldiradi. Uchala quvur birgalikda ochilsa, hovuzni necha soatda to'ldiradi?
A) 10 B) 8 C) 9 D) 11 E) 7

16. (03-9-7) Ikkita ishchi birgalikda ishlab, ma'lum ishni 12 kunda tamomlaydi. Agar ishchilarning bittasi shu ishning yarmini bajargandan keyin, ikkinchi ishchi qolgan yarmini bajarsa, shu ishni 25 kunda tamomlashi mumkin. Ishchilardan biri boshqasiga qaraganda necha marta tez ishlaydi?
A) 1,2 B) 1,5 C) 1,6 D) 1,8 E) 2,0

17. (03-10-24) Eski traktor maydonni 6 soatda, yangisi esa 4 soatda haydaydi. Shu maydonni 3 ta eski va 2 ta yangi traktor qancha vaqtda haydaydi?
A) 1 soatda B)1,5 soatda C) 2 soatda D) 2,5 soatda E) 45 minutda

18. (03-12-46) Mehnat unumdorligi bir xil bo'lgan 9 kishi ma'lum hajmdagi ishni 15 kunda tugatishdi. 12 kishi o'shancha mehnat unumdorligi bilan ishlasa, o'sha hajmdagi ishni necha kunda tugatishi mumkin?
A) 20 B) $18\frac{1}{2}$ C) $14\frac{1}{4}$ D) $12\frac{3}{4}$ E) $11\frac{1}{4}$

1.11.5 Aralashmaga oid masalalar.

1. Massasi m, konsentrasiyasi $x\%$ bo'lgan eritma massasi n, konsentrasiyasi $y\%$ bo'lgan eritma bilan aralashtirilsa, massasi $m+n$, konsentrasiyasi $z = \frac{mx+ny}{m+n}\%$ bo'lgan eritma hosil bo'ladi.

(98-4-4) Massasi 300 g va konsentrasiyasi 15% bo'lgan eritma massasi 500 g va konsentrasiyasi 9% bo'lgan eritma bilan aralashtirildi.Hosil bo'lgan aralashmaning konsentrasiyasini % ni toping.
A) 12,75 B) 11,75 C) 12,25 D) 11,25 E) 10,75
Yechish: 300 g li eritmada konsentrasiyasi 15% bo'lgan modda miqdori $0,15 \cdot 300 = 45$ g ga, 500 g li eritmada konsentrasiyasi 9% bo'lgan modda miqdori $0,09 \cdot 500 = 45$ g ga teng.Shuning uchun aralashmada bu moddaning miqdori $45 + 45 = 90$ ga teng.Aralashma $300g + 500g = 800g$ bo'lgani uchun 90 g uning $\frac{90}{800} \cdot 100\% = 11,25\%$ ini tashkil qiladi.
J: 11,25% (D).

1. (97-2-3) Qotishma mis va qo'rg'oshindan iborat. Qotishmaning 60% i mis bo'lib, mis qo'rg'oshindan 2 kg ko'p. Qotishmada qancha mis bor?
A) 5 B) 7 C) 6 D) 5,5 E) 6,2

2. (97-5-12) Qo'rg'oshin va misdan quyilgan ikkita quyma bor. Birinchi quymada 3 kg qo'rg'oshin va 2 kg mis bor. Ikkinchi quymada 13 kg qo'rg'oshin va 7 kg mis bor. Qaysi quymada qo'rg'oshinning foiz miqdori ko'p va necha foiz?
A) 1-quymada 5% B) 2-quymada 65%
C) 2-quymada 5% D) 1-quymada 60%
E) 2-quymada 20%

3. (97-9-12) Qo'rg'oshin va misdan quyilgan ikkita quyma bor. Birinchi quymada 2 kg qo'rg'oshin va 6 kg mis bor. Ikkinchi quymada 12 kg qo'rg'oshin va 3 kg mis bor. Qaysi quymada qo'rg'oshinning foiz miqdori ko'p va u necha foiz ko'p?
A) 2-quymada 55% B) 1-quymada 25%
C) 2-quymada 80% D) 2-quymada 45%
E) 1-quymada 55%

4. (98-12-65) Massasi 400 g va konsentrasiyasi 8% bo'lgan eritma massasi 600 g va konsentrasiyasi 13% bo'lgan eritma bilan aralashtirildi.Hosil bo'lgan aralashmaning konsentrasiyasini ($\%da$) ni toping.
A) 11 B) 12 C) 9 D) 10 E) 10,5

5. (00-4-28) Yig'ilgan 1 t mevaning 82% i suvdan iborat. Ma'lum vaqtdan keyin bu mevadagi suvning miqdori 70% ga tushdi. Endi bu mevaning og'irligi necha kg chiqadi?
A) 810 B) 820 C) 700 D) 780 E) 600

6. (00-4-29) Yog'liligi 2% bo'lgan 80 l sut bilan yog'liligi 5% bo'lgan necha litr sut aralashtirilsa, yog'liligi 3% bo'lgan sut olish mumkin?
A) 20 B) 30 C) 40 D) 50 E) 60

7. (00-5-15) 140 g suvga 60 g tuz qo'shish natijasida hosil bo'lgan tuzli eritmada necha prosent tuz bor?
A) 20 B) 30 C) 25 D) 35 E) 45

8. (00-5-20) Bir idishda 40% li, ikkinchi idishda 35% li eritma bor. Ularni aralashtirib, 37% li 1 l eritma olish uchun har bir eritmadan necha litrdan olish kerak?
A) 0,3 va 0,7 B) 0,2 va 0,8 C) 0,4 va 0,6
D) 0,1 va 0,9 E) 0,55 va 0,45

9. (01-11-4) Kumush va misdan iborat qotishmaning og'irligi 2 kg. Kumushning og'irligi mis og'irligining $\frac{1}{7}$ qismini tashkil etadi. Qotishmadagi kumushning og'irligini toping.
A) 310 g B) 300 g C) 270 g
D) 250 g E) 350 g

10. (01-12-14) 15 kg eritmaning 35 foizi tuzdan iborat. Tuzning miqdori 25 foiz bo'lishi uchun eritmaga necha kg chuchuk suv qo'shish kerak?
A) 6 B) 5 C) 5,5 D) 5,25 E) 7

11. (01-12-35) 800 kg mevaning tarkibida 80% suv bor. Bir necha kundan keyin mevaning og'irligi 500 kg ga tushdi. Endi uning tarkibida necha foiz suv bor?
A) 62 B) 68 C) 66 D) 60 E) 64

12. (02-7-52) 20 litr tuzli suvning tarkibida 12% tuz bor. Bu eritmada tuz miqdori 15% bo'lishi uchun necha litr suv bug'lantirishi kerak?
A) 4 B) 3 C) 5 D) 4,2 E) 4,8

13. (03-5-15) Massasi 36 kg bo'lgan mis va rux qotishmasining tarkibida 45% mis bor. Qotishmaning tarkibida 60% mis bo'lishi uchun unga yana necha kg mis qo'shish kerak?
A) 13,5 B) 14 C) 12 D) 15 E) 12,8

14. (03-8-7) Siment va qumdan iborat 30 kg qorishmaning 60%ini siment tashkil etadi. Qorishmaning 40%i simentdan iborat bo'lishi uchun qorishmaga qancha qum qo'shish kerak?
A) 10 B) 12 C) 15 D) 18 E) 20

15. (03-8-25) Qotishma kumush va oltindan iborat bo'lib, o'zaro 3 : 5 nisbatda. Agar qotishmada 0,45 kg oltin bo'lsa, qotishmaning og'irligini (kg) toping.
A) 0,72 B) 0,21 C) 1,21 D) 0,8 E) 0,9

16. (03-10-6) Eritma tarkibida 60 g tuz bor. Unga 400 g toza suv qo'shilsa, tuzning konsentrasiyasi 1,5 marta kamaydi. Dastlabki eritma necha gramm bo'lgan?
A) 800 B) 840 C) 780 D) 900 E) 640

17. (03-12-12) A aralashmaning bir kilogrammi 1000 so'm, B aralashmaning bir kilogrammi esa 2000 so'm turadi. B va A aralashmadan 3 : 1 nisbatda tayyorlangan 1 kg aralashma necha so'm turadi?
A) 1500 B) 1750 C) 1650 D) 1800 E) 1850

1.12 FUNKSIYALAR.

1.12.1 Funksiyalarning xossalari.

1. (96-3-16) Ushbu $f(x) = \frac{x-2}{x^2-1}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) $(-\infty;1) \cup (1;\infty)$ B) $(0;\infty)$ C) $(-\infty;\infty)$
D) $(-\infty;-1) \cup (-1;1) \cup (1;\infty)$ E) $(-\infty;0)$

2. (96-11-17) Ushbu $F(x) = \frac{x-3}{x^2-4}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) $(-2;\infty)$ B) $(-\infty;\infty)$

C) $(-\infty;-2)$ D) $(-\infty;-2)\cup(-2;\infty)$
E) $(-\infty;-2)\cup(-2;2)\cup(2;\infty)$

3. (96-12-17) Funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

$$f(x)=\frac{x+2}{x^2-1}$$

A) $(-\infty;\infty)$ B) $(-\infty;-1)\cup(-1;1)\cup(1;\infty)$
C) $(-\infty;0)$ D) $(0;\infty)$ E) $(-\infty;-1)\cup(-1;\infty)$

4. (97-4-15) k ning qanday butun qiymatlarida

$$y=\frac{x^2+3x}{x^2+kx+1}$$

funksiyaning aniqlanish sohasi $(-\infty;1)\cup(1;\infty)$ bo'ladi?
A) 4 B) -2 C) 2 D) 1 E) -1

5. (99-1-12) Funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
$y=\frac{2x-3}{x(x+2)}$
A) $(-\infty;-2)\cup(-2;0)\cup(0;\infty)$
B) $(-\infty;0)\cup(2;\infty)$ C) $(-\infty;-2)\cup(0;\infty)$
D) $(-\infty;1,5)\cup(1,5;\infty)$ E) $(-\infty;\infty)$

6. (96-1-16) Agar $f(x)=(1+\frac{1}{x}).(7+4x)$ bo'lsa, $f(-\frac{1}{2})$ ni toping.
A) 9 B) -3 C) 15 D) -5 E) 1

7. (96-9-67) Agar $f(x)=(x-\frac{1}{3}).(2x+\frac{1}{4})$ bo'lsa, $f(1)$ ni toping.
A) -4,5 B) $\frac{7}{12}$ C) 4,5 D) 1,5 E) -1

8. (96-10-17) Agar $f(x)=(2x+1)(\frac{3}{x}-3)$ bo'lsa, $f(-1)$ ni toping.
A) 0 B) 6 C) -6 D) -3 E) 18

9. (98-12-93) $f(x)=\begin{cases}2x^2+1, & |x|<3\\ 5x-1, & |x|\geq 3\end{cases}$ funksiya berilgan. $f(x^2+7)$ funksiyani toping.
A) $5x^2-34$ B) $2x^2+8$ C) $5x^2+36$
D) $5x^2+34$ E) $2(x^2+7)^2+1$

10. (00-2-8) Agar $f(x)=x^2-8x+7$ bo'lsa, $f(4-\sqrt{11})$ ni hisoblang.
A) 2 B) $2-\sqrt{2}$ C) $2+\sqrt{11}$ D) 3 E) $5-\sqrt{11}$

11. (96-7-26) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri juft?
A) $g(x)=\frac{5x^3}{(x-3)^2}$ B) $g(x)=\frac{x(x-2)(x-4)}{x^2-6x+8}$
C) $g(x)=\frac{9x^2}{x^2-25}$ D) $g(x)=x^2+|x+1|$
E) $g(x)=\frac{x^4-2x^2}{3x}$

12. (97-3-26) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri toq?
A) $y=\frac{5x^3}{(x-3)^2}$ B) $y=\frac{x(x-4)(x-2)}{x^2-6x+8}$
C) $y=\frac{9x^2}{x^2-25}$ D) $y=|x+1|+x^2$
E) $y=\frac{x^4-2x^2}{3x}$

13. (97-7-26) Quyidagilardan qaysi biri juft funksiya?
A) $y=\frac{(x-8)^2}{3}$ B) $y=2x|x|+5$
C) $y=\frac{x^4+x^2+1}{2}$ D) $y=\frac{7x}{x^2-9}$
E) $y=|x-3|+5x^2$

14. (97-10-26) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri toq?
A) $y=\frac{7x}{x+3}$ B) $y=\frac{3x^4+x^2}{8}$
C) $y=|x+3|-6x$ D) $y=\frac{2x}{x^2-9}$
E) $y=\frac{x(x-8)}{5x+3}$

15. (99-1-13) $y=x|x|$ funksiya uchun qaysi tasdiq to'g'ri?
A) toq funksiya B) juft funksiya
C) kamayuvchi funksiya D) juft funksiya ham emas, toq funksiya ham emas
E) aniqlanish sohasi musbat sonlardan iborat

16. (02-1-13) $g(x)=\frac{x^2+1}{x^2-1}$ funksiya berilgan. $g(\frac{\sqrt{a^2-1}}{a-1})$ ni toping. $(|a|>1)$
A) a B) a^{-1} C) $\sqrt{a}$ D) $2\sqrt{a}$
E) $2a-1$

17. (02-1-26) $y(x)=x^2$ funksiya berilgan. $0,5y(x)-2y(\frac{1}{x})$ ni toping.
A) $\frac{x^4-4}{2x^2}$ B) $\frac{x^3-4}{2x^2}$ C) $\frac{x^4+4}{2x^2}$ D) $\frac{x^4-4}{2}$
E) to'g'ri javob keltirilmagan

18. (02-1-44) Agar $f(x)=\frac{x^2-1}{x^2}$, $g(x)=\frac{1}{x^2}$ bo'lsa, $f(g(2))$ ni hisoblang.
A) -15 B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{3}{4}$ D) $-1\frac{1}{3}$ E) $-\frac{1}{2}$

19. (02-4-5) $y=(x+3)(x^2+x+1)$ funksiya grafigining Oy o'qi bilan kesishish nuqtasi otdinatasini toping.
A) -3 B) 3 C) -1 D) 1 E) 0

20. (02-8-17) Agar $f(x)=\sqrt{x^3-1}$ bo'lsa, $f(\sqrt[3]{x^2+1})$ nimaga teng?
A) $|x|$ B) x C) -x D) 0 E) $\sqrt{2}$

21. (03-1-15) Agar $f(x)=\begin{cases}|x+1|, & x>-2\\ 3-4|x|, & x\leq -2\end{cases}$ bo'lsa, $f(-1)-f(-3)$ ni hisoblang.
A) 0 B) 3 C) 6 D) 4 E) 9

22. (03-2-6) $y=f(x)$ funksiyani aniqlanish sohasi [-1;2] dan iborat. $y=f(1+x)$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) [-2;-1] B) [-2;1] C) [-4;2] D) [-1;0] E) [0;3]

23. (03-3-48) Agar $f(x)=\frac{2x+1}{3x-1}$ bo'lsa, $f(\frac{1}{x})+f(\frac{x}{9})$ funksiyani aniqlang.
A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{x}{3}$ C) $-\frac{x}{3}$ D) $-\frac{1}{3}$ E) $\frac{1}{3x-1}$

24. (03-6-13) $f(\frac{3x-2}{2})=x^2-x-1$. $f(0)-?$
A) $-\frac{5}{9}$ B) $-\frac{13}{9}$ C) $-\frac{7}{9}$ D) -1 E) $-\frac{11}{9}$

25. (03-7-18) $f(\frac{3x-2}{2})=x^2-x-1$. $f(1)-?$
A) $-\frac{5}{9}$ B) $-\frac{13}{9}$ C) $-\frac{7}{9}$ D) -1 E) $-\frac{11}{9}$

26. (03-9-42) Agar $f(x+1)=3-2x$ va $f(\varphi(x))=6x-3$ bo'lsa, $\varphi(x)$ funksiyani aniqlang.
A) $4-3x$ B) $3x-4$ C) $4x+3$
D) $4x-3$ E) $6x-8$

27. (03-11-17) Agar $f(x+2)=x^3+6x^2+12x+8$ bo'lsa, $f(\sqrt{3})$ ni toping.
A) $3\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{3}$ C) $4\sqrt{3}$ D) 12 E) $5\sqrt{3}$

1.12.2 Chiziqli funksiya.

1. $y = kx + b$ funksiyaning grafigi Oy o'qini $(0; b)$ nuqtada kesib o'tuvchi to'g'ri chiziqdir. Funksiya
   a) $k > 0$ da o'suvchi;
   b) $k < 0$ da kamayuvchi;
   c) $k = 0$ da o'zgarmas.

2. $y = kx + b$ funksiyaning grafigi Ox o'qi bilan α burchak tashkil etsa, $tg\alpha = k$ bo'ladi.

3. $y = k_1x + b_1$ va $y = k_2x + b_2$ to'g'ri chiziqlar
   a) $k_1 \neq (k_2)$ da kesishadi;
   b) $k_1 = k_2$ da parallel bo'ladi.
   Xususan, $k_1 = k_2$, $b_1 = b_2$ da ustma-ust tushadi;
   $k_1 = k_2$, $b_1 \neq b_2$ da ustma-ust tushmaydi;

4. $a_1x + b_1y = c_1$ va $a_2x + b_2y = c_2$ to'g'ri chiziqlar
   a) $\frac{a_1}{a_2} \neq \frac{b_1}{b_2}$ da kesishadi;
   b) $\frac{a_1}{a_2} = \frac{b_1}{b_2}$ da parallel bo'ladi. Xususan,

$$\frac{a_1}{a_2} = \frac{b_1}{b_2} = \frac{c_1}{c_2}$$

   da ustma-ust tushadi;

$$\frac{a_1}{a_2} = \frac{b_1}{b_2} \neq \frac{c_1}{c_2}$$

   da ustma-ust tushmaydi;

5. $(x_0; y_0)$ nuqtadan $ax + by + c = 0$ to'g'ri chiziqqacha masofa:

$$d = \frac{|ax_0 + by_0 + c|}{\sqrt{a^2 + b^2}}$$

(99-1-47) $2y = 2x+3$ to'g'ri chiziqning OX o'qi bilan hosil qilgan burchagini toping.
A) 45^0 B) 30^0 C) 60^0 D) 75^0 E) 135^0
Yechish: Tenglikdan y ni topamiz:

$$y = 1 \cdot x + \frac{3}{2}$$

Agar $y = kx + b$ to'g'ri chiziqning OX o'qi bilan hosil qilgan burchagi α bo'lsa, $tg\alpha = k$ formula o'rinli ekanidan foydalanamiz. Bizning holda $k = 1$ bo'lgani uchun $tg\alpha = 1$, ya'ni $\alpha = 45^0$. **Javob:** $\alpha = 45^0$ (A).
(98-3-44) k ning qanday qiymatlarida $kx + 3y + 5 = 0$ va $(k + 1) \cdot x - 2y - 1 = 0$ to'g'ri chiziqlar parallel bo'ladi?
A) -3 va 5 B) $\frac{3}{5}$ C) -5 va 3 D) -3 va 2 E) $-\frac{3}{5}$
Yechish: $kx + 3y + 5 = 0$ tenglikdan $y = -\frac{k}{3}x - \frac{5}{3}$ ni, $(k + 1)x - 2y - 1 = 0$ tenglikdan esa $y = \frac{k+1}{2}x - \frac{1}{2}$ ni topamiz. Ma'lumki ikkita $y = k_1x + b_1$ va $y = k_2x + b_2$ to'g'ri chiziqlar parallel bo'lishi uchun $k_1 = k_2$ bo'lishi kerak. Bu erdan

$$\frac{k+1}{2} = -\frac{k}{3}$$

tenglikni hosil qilamiz. Uni yechamiz.

$$3k + 3 = -2k, \quad k = -\frac{3}{5}$$

J: $-\frac{3}{5}$ (E).
(98-3-41) $y = 1$ ga nisbatan $y = 2x + 1$ ga simmetrik bo'lgan to'g'ri chiziqning tenglamasini toping.
A) $y = 2x - 1$ B) $y = 2x + 1$ C) $y = 1 - 2x$
D) $y = 2x$ E) $y = -2x$
Yechish: $y = 2x+1$ to'g'ri chiziqning ikkita nuqtasini olamiz. Masalan,$(0; 1), (1; 3)$. Endi ularga $y = 1$ ga nisbatan simmetrik bo'lgan $(0; 1), (1; -1)$ nuqtalar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini topamiz:
Javob: $y = 1 - 2x$ (C).

1. (96-3-15) Quyidagi nuqtalarning qaysi biri $f(x) = -3x + 4$ funksiyaning grafigiga tegishli?
   A) $(3; -5)$ B) $(-3; 5)$ C) $(5; -3)$
   D) $(2; 4)$ E) $(4; 2)$

2. (96-3-23) Grafigi rasmda tasvirlangan funksiyaning qiymatlari x ning qanday qiymatlarida manfiy bo'lishini tengsizlik yordamida ifodalang?



   A) $x > 0$ B) $x \geq 0$ C) $x \geq -1$
   D) $x > -1$ E) $x \leq -1$

3. (96-7-16) k ning qanday qiymatda $y = kx + 6$ funksiyaning grafigi $M(0,5; 4,5)$ nuqtadan o'tadi?
   A) 3 B) -3 C) -2 D) 4 E) -30

4. (96-12-16) Quyidagi nuqtalarning qaysi biri $f(x) = -4x + 3$ funksiyaning grafigiga tegishli?
   A) $(-1; 1)$ B) $(2; 5)$ C) $(-5; 2)$
   D) $(1; -1)$ E) $(0; -3)$

5. (98-2-14) Koordinata o'qlari $\frac{x}{5} + \frac{y}{12} = 1$ to'g'ri chiziqdan qanday uzunlikdagi kesma ajratadi?
   A) 12,5 B) 13 C) 14 D) 13,5 E) 11,5

6. (98-9-15) Koordinata o'qlari

$$\frac{x}{8} - \frac{y}{6} = 1$$

   to'g'ri chiziqdan qanday uzunlikdagi kesma ajratadi?
   A) 12 B) 14 C) 9 D) 8 E) 10

7. (98-10-42) n ning qanday qiymatida $2y = 8+n-(3n+4)x$ va $3y = 5-2n-(4n-3)x$ tenglamalar bilan berilgan to'g'ri chiziqlarning kesishish nuqtasi OY o'qda yotadi?
   A) 2 B) 1,5 C) $-1,5$ D) 3,5 E) -2

8. (99-3-10) a ning qanday qiymatlarida $2ax+3y = 3$ va $4x + 3y = 7$ to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasining abssissasi manfiy bo'ladi.
   A) $a < 3$ B) $a > 3$ C) $a < 2$
   D) $a > 2$ E) $a > 1$

9. (96-1-26) a ning qanday qiymatlarida $ax+2y=3$ va $2x-y=-1$ to'g'ri chiziqlar kesishadi?
A) $a=3$ B) $a\neq 2$ C) $a\in R$
D) $a\neq -4$ E) $a\neq -2$

10. (99-6-4) k ning qanday qiymatida $y=kx-10$ funksiyaning grafigi $A(-4;14)$ nuqtadan o'tadi?
A) -2 B) -1 C) -6 D) -3 E) -4

11. (99-8-33) $f(-2)=3$ va $f(2)=5$ shartni qanoatlantiruvchi chiziqli funksiyani aniqlang.
A) $f(x)=\frac{1}{2}x+4$ B) $f(x)=2x-1$
C) $f(x)=2x+1$ D) $f(x)=3x+9$
E) $f(x)=x+3$

12. (99-9-13) $y=\sqrt{3}x+2$ va $y=-x+2$ to'g'ri chiziqlarning kesishishidan hosil bo'lgan o'tkir burchakni toping.
A) 65^0 B) 75^0 C) 60^0 D) 85^0 E) 55^0

13. (96-6-13) Agar $k<0$ va $l>0$ bo'lsa, $y=kx+l$ funksiyaning grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choraklarida joylashgan?
A) I;II B) I;II;III C) II;I;IV
D) I;III;IV E) II;III;IV

14. (97-2-13) Agar $k<0$ va $l>0$ bo'lsa, $y=kx+l$ funksiyaning grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choragida joylashadi?
A) I;II va III B) I va II C) I;III va IV
D) II;III va IV E) I;II va IV

15. (97-8-13) Ushbu $y=kx+l$ ($k<0$ va $l<0$) funksiyaning grafigi qaysi choraklarda joylashgan?
A) I;II va III B) I;III va IV C) II va IV
D) II;III va IV E) I;II va IV

16. (97-12-12) Agar $k>0$ va $l<0$ bo'lsa, $y=kx+l$ funksiyaning grafigi qaysi choraklardan o'tadi?
A) I;II va IV B) III va IV C) II;III va IV
D) I;II va III E) I;III va IV

17. (96-11-16) Quyidagi nuqtalarning qaysi biri $f(x)=-2x+5$ funksiyaning grafigiga tegishli?
A) $(1;2)$ B) $(2;1)$ C) $(3;1)$
D) $(2;3)$ E) $(1;-3)$

18. (96-11-24) Grafigi rasmda tasvirlangan funksiyaning qiymatlari x ning qanday qiymatlarida -2 dan kichik bo'lmaydi?



A) $x<0$ B) $x>0$ C) $x\geq 0$
D) $x\leq 0$ E) $x>-1$

19. (96-12-24) Grafigi rasmda tasvirlangan funksiyaning qiymatlari x ning qanday qiymatlarida -2 dan kichik bo'ladi?



A) $x\geq 0$ B) $x>0$ C) $x<0$
D) $x\leq 0$ E) $x>-1$

20. (97-8-60) Rasmda $a=4$; $b=3$ va $c=5$ bo'lsa, OC to'g'ri chiziqning burchak koefisentini toping.



A) $\frac{4}{3}$ B) $\frac{3}{5}$ C) $\frac{4}{5}$ D) $\frac{3}{4}$ E) $\frac{5}{4}$

21. (96-9-77) a va b ning qanday qiymatlarida $ax+by=-4$ va $2x-2y=4$ to'g'ri chiziqlar ustma-ust tushadi?
A) $a=2$; $b=-2$ B) $a=-2$; $b=2$
C) $a=b=2$ D) $a=2$; $b=-1$
E) $a=4$; $b=2$

22. (96-10-27) a ning qanday qiymatlarida $ax+2y=4$ va $y-x=4$ to'g'ri chiziqlar parallel bo'ladi?
A)$a=1$ B) $a=2$ C) $a=-2$
D) $a\in R$ E) $a=-1$

23. (98-10-91) k ning qanday qiymatlarida $kx+3y+1=0$ va $2x+(k+1)y+2=0$ to'g'ri chiziqlar parallel bo'ladi?
A)2 B) -2 C) -3 D) 2 va -2 E) -3 va 2

24. (98-11-14) $y_1=-\frac{41}{5}x$ funksiyaning grafigi $y=kx+\frac{41}{5}$ funksiyaning grafigiga k ning qaysi qiymatida parallel bo'ladi?
A) $(\frac{5}{41})^{-1}$ B) $\frac{5}{41}$ C) $-(\frac{5}{41})^{-1}$ D) $-\frac{5}{41}$ E) $\emptyset$

25. (99-1-46) $x+y=1$ tenglama bilan berilgan to'g'ri chiziqqa parallel to'g'ri chiziqni toping.
A)$2x+2y+3=0$ B) $y=x-1$ C) $x-y=2$
D) $y=x+1$ E) $y=-\frac{1}{2}x+1$

26. (00-5-68) $A(-2;5)$ nuqtadan $5x-7y-4=0$ to'g'ri chiziqqa parallel ravishda o'tuvchi to'g'ri chiziqning tenglamasini ko'rsating.
A)$3x-4y+35=0$ B) $3x+4y-35=0$
C) $5x-7y-45=0$ D) $5x-7y+45=0$
E) $4x-5y+45=0$

27. (00-10-10) k ning qanday qiymatlarida $y_1 = -\frac{21}{5}x$ $y_2 = kx - \frac{21}{5}$ funksiyaning grafiklari o'zaro parallel bo'ladi?
A) $\frac{21}{5}$ B) $\frac{5}{21}$ C) $-(\frac{5}{21})^{-1}$ D) $-\frac{5}{41}$ E) $\emptyset$

28. (98-7-31) OY o'qqa nisbatan $y = -3x + 1$ to'ri chiziqqa simmetrik bo'gan to'g'ri chiziqning tenglamasini ko'rsating.
A)$y = 3x - 1$ B) $y = -3x - 1$ C) $y = 3x + 1$
D) $y = -3x + 1$ E) $y = -\frac{1}{3}x + 1$

29. (98-10-88) $y = x$ ga nisbatan $y = 2x + 1$ ga simmetrik bo'gan to'g'ri chiziqning tenglamasini toping.
A)$y = 2x - 1$ B) $y = \frac{x}{2} - 1$ C) $y = \frac{x}{2} + 1$
D) $y = \frac{x-1}{2}$ E) $y = \frac{x+1}{2}$

30. (98-12-29) OX o'qqa nisbatan $y = 2x + 3$ to'ri chiziqqa simmetrik bo'gan to'g'ri chiziqning tenglamasini ko'rsating.
A)$y = -2x - 3$ B) $y = 2x - 3$ C) $y = -2x + 3$
D) $y = 3x - 2$ E) $y = \frac{1}{2}x + \frac{1}{3}$

31. (01-2-51) $A(3;1)$ nuqtadan o'tuvchi va $y = 2x - 3$ to'ri chiziqqa parallel
bo'lgan to'g'ri chiziqning tenglamasini yozing.
A)$y = 2x - 1$ B) $y = 2x - 5$ C) $y = 3x - 2$
D) $y = 2x - 4$ E) $y = x - 5$

32. (01-2-53) $A(-1;7)$ va $B(3;3)$ nuqtalar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziqqa parallel va $C(1;3)$ nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing.
A)$y = -x + 4$ B) $y = 2x + 4$ C) $y = -x - 4$
D) $y = -2x + 4$ E) $y = -2x - 4$

33. (01-3-12) Ushbu

$$(a+3)x + (a^2 - 16)y + 2 = 0$$

to'g'ri chiziq a ning qanday qiymatida abssissa o'qiga parallel bo'ladi?
A) -3 B) 2 C) -2 D) 3 E) 4

34. (01-12-3) $y_1 = \sqrt{3}x + \frac{1}{\sqrt{3}}$ va $y_2 = -\frac{1}{\sqrt{3}}x - \sqrt{3}$ to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakni toping.
A)90^0 B) 60^0 C) 80^0 D) 95^0 E) 0^0

35. (01-12-40) m va n ning qanday qiymatlarida $2xm - 3ny = 12$ va $3xm + 2ny = 44$ to'g'ri chiziqlar $(1;2)$ nuqtada kesishadi?
A) $m = 10$, $n = 4$ B) $m = 8$, $n = 6$
C) $m = 4$, $n = 10$ D) $m = 12$, $n = 2$
E) $m = 7$, $n = 7$

36. (02-1-45) Agar barcha x lar uchun $f(x) = 6x - 3$ bo'lsa, $y = f(x-1)$ tenglama bilan aniqlanadigan to'g'ri chiziqning burchak koeffisientini toping.
A) 6 B) 5 C) 7 D) -6 E) -5

37. (02-2-55) $(-4;-1)$ nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq Oy o'qini $(0;3)$ nuqtada kesib o'tadi. To'g'ri chiziqning Ox o'qini musbat yo'nalishiga og'ish burchagini toping.
A)45^0 B) 30^0 C) 60^0 D) $arctg2$ E) 35^0

38. (02-5-11) $y = 2x + 5$ va $6x - 3y = 2$ to'g'ri chiziqlar Oxy tekislikning qaysi choragida kesishadi?
A) I B) II C) III D) IV E) kesishmaydi

39. (02-11-11) a ning qanday qiymatlarida $3x - 4y = 3$ va $3x - 2ay = 5$ to'g'ri chiziqlarning kesishish nuqtasi musbat ordinataga ega?
A)$a < 2$ B) $a = 2$ C) $a > 2$
D) $a \in (2;3)$ E) $a > 3$

40. (02-12-5) $y = 2x + 1$ va $y = -2 - x$ funksiyalarning grafiklari qaysi koordinatalar choragida kesishadi?
A) I B) II C) III D) IV E) kesishmaydi

41. (01-4-12) $M(x,y)$ nuqtaning koordinatalari yig'indisi 3 ga teng. Bu nuqta va koordinata boshi orasidagi eng qisqa masofa qanchaga teng bo'ladi?
A)$3\sqrt{2}$ B) $2\sqrt{3}$ C) $1,5\sqrt{2}$ D) $4,5\sqrt{2}$ E) 9

42. (96-3-30) $M(2,2)$ nuqtadan $y = x - 1$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan eng qisqa masofani toping.
A)$\frac{1}{2}$ B) 2,5 C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $\frac{1}{4}$ E) 6,25

43. (96-11-31) $M(2,1)$ nuqtadan $y = x + 2$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan eng qisqa masofani toping.
A)2,25 B) $1,5\sqrt{2}$ C) $\frac{1}{4}$ D) $\frac{1}{2}$ E) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

44. (96-12-31) $M(2,2)$ nuqtadan $y = x + 1$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan eng qisqa masofani toping.
A)1,5 B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ C) $\frac{1}{2}$ D) 2,25 E) $\frac{1}{4}$

45. (01-12-2) $y = 2x - 1$ va $y = 2x + 1$to'g'ri chiziqlar orasidagi masofani toping.
A) 1 B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) 2 D) $\frac{2}{\sqrt{5}}$ E) $\frac{3\sqrt{3}}{5}$

46. (03-2-35) k ning qanday qiymatida $2x + y = 9$ va $kx + 5y = 18$ to'g'ri chiziqlarning kesishgan nuqtasi to'rtinchi koordinat burchagining bissektrisasiga tegishli?
A)3 B) 7 C) 4 D) 5 E) 9

47. (03-11-30) Koordinatalar boshidan $5x + 12y = 60$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofani aniqlang.
A) $4\frac{8}{13}$ B) 5 C) $5\frac{3}{13}$ D) $4\frac{7}{13}$ E) 4,8

48. (03-12-14) a parametrning qanday qiymatida $3x + ay - 13 = 0$ va $2x - 3y + 5 = 0$ to'g'ri chiziqlarning kesishish nuqtasi birinchi koordinat choragining bissektrisasiga yotadi?
A) 0,6 B) $-0,8$ C) 0,4 D) $-0,6$ E) $-0,4$

49. (03-12-32) $3x + 4y + 7 = 0$ va $3x + y - 5 = 0$ to'g'ri chiziqlarning kesishish nuqtasi birinchi koordinata boshidan qanday masofada joylashgan?
A) 5 B) 6 C) 8 D) $8\sqrt{2}$ E) 10

1.12.3 Kvadrat funksiya.

1. $y = ax^2 + bx + c$ $(a \neq 0)$ kvadrat uchhadning grafigi paraboladan iborat va
a) $a > 0$ da parabola shoxlari yuqoriga yo'nalgan;
b) $a < 0$ da parabola shoxlari pastga yo'nalgan;
c) $D > 0$ da parabola Ox o'qi bilan 2 ta umumiy nuqtaga ega;

d) $D=0$ da parabola Ox o'qi bilan 1 ta umumiy nuqtaga ega;
e) $D<0$ da parabola Ox o'qi bilan umumiy nuqtaga ega emas.

2. Parabola uchining koordinatalari:

$$x_0=-\frac{b}{2a},\quad y_0=ax_0^2+bx_0+c=-\frac{D}{4a}.$$

3. Parabola simmetriya o'qining tenglamasi: $x=x_0$.

4. $ax^2+bx+c=0$ tenglamaning x_1, x_2 ildizlari $y=ax^2+bx+$ funksiyaning nollari deyiladi va $\frac{x_1+x_2}{2}=x_0$ bo'ladi.

5. Qiymatlar sohasi:
$a>0$ da $[y_0;\infty)$; $a<0$ da esa $(-\infty;y_0]$

6. $y=f(x)$ funksiyani (a;b) vektorga parallel ko'chirsak $y=f(x-a)+b$ funksiya hosil bo'ladi.

(98-8-24) Agar $B(-2;-7)$ nuqta $y=kx^2+8x+m$ parabolaning uchi bo'lsa, k va m ning qiymatini toping.
A) $k=1$, $m=-9$ B) $k=2$, $m=-1$
C) $k=-1$, $m=-16$ D)$k=-2$, $m=-16$
E) $k=2$, $m=1$
Yechish: Ma'lumki $y=ax^2+bx+c$ parabola uchining abssissasi $x_0=-\frac{b}{2a}$ formuladan topiladi. Shuning uchun $-2=-\frac{8}{2k}$, yani k=2 bo'ladi. Endi $y=2x^2+8x+m$ tenglikka B nuqtaning koordinatalarini qo'yib m ning qiymqtini topamiz. $-7=8-16+m$, $m=1$
J: $k=2, m=1$. (E).

1. (96-6-21) Ushbu $y=x^2-4x+3$ parabolaning uchi koordinatalar tekisligining qayerida joylashgan.
A) to'rtinchi chorakda B) Ox o'qida
C) uchinchi chorakda D) ikkinchi chorakda
E) birinchi chorakda

2. (97-1-15) Ushbu $y=\frac{3+4x-x^2}{2}$ funksiyaning qiymatlari sohasini toping.
A) $(0;\infty)$ B) $(-\infty;1,5]$ C) $[-\frac{1}{2};\infty)$
D)$(-\infty;3,5]$ E) $(-\infty;\infty)$

3. (97-2-21) Ushbu $y=x^2+4x-2$ parabolaning uchi koordinatalar tekisligining qayerida joylashgan.
A) I chorakda B) II chorakda C) OY o'qida
D) III chorakda E) IV chorakda

4. (97-3-16) k ning qanday qiymatida $y=kx^2-2$ funksiyaning grafigi $A(-1;1)$ nuqtadan o'tadi?
A) 4 B) -3 C) 3 D) 2 E) -1

5. (97-8-21) $y=x^2-6x+10$ parabolaning uchi koordinatalar tekisligini qayerida joylashgan.
A) II chorakda B) III chorakda C) OY o'qida
D) IV chorakda E) I chorakda

6. (98-1-17) Agar $f(x)=5+ax^2$ va $q(x)=b-x$ funksiyalar $x=0$ va $x=1$ da bir xil qiymatlar qabul qilsa,a va b ning qiymatini toping.
A) $a=-1$, $b=5$ B) $a=1$, $b=-5$
C) $a=5$, $b=-1$ D)$a=-5$, $b=1$
E) $a=-1$, $b=-5$

7. (98-3-10) $A(0;-2)$, $B(2;-1)$ va $C(4;-2)$ nuqtalardan o'tuvchi parabola qaysi funksiyaning grafigi hisoblanadi?
A) $y=-\frac{1}{2}x^2+2x-3$ B) $y=-\frac{1}{4}x^2+x-2$
C) $y=-\frac{1}{4}x^2+x-3$ D) $y=-\frac{1}{3}x^2+\frac{4}{3}x-\frac{7}{3}$
E) $y=-\frac{1}{2}x^2+2x-2$

8. (98-4-45) $y=kx^2-2kx+3$ va $y=2-kx$ funksiyalarning grafiklari k ning nechta butun qiymatlarida kesishmaydi?
A) 3 B) 2 C) cheksiz ko'p D) 4 E) 5

9. (98-6-31) $y=2x^2+bx+c$ parabolaning uchi $(-3;-5)$ nuqtada joylashgan.Bu funksiya nollarining o'rta arifmetigini toping.
A) -1 B) -2 C) -3 D) 1 E) 5

10. (98-8-17) Agar $f(x)=2-ax^2$ va $g(x)=2b+x$ funksiyalarning qiymatlari $x=-1$ va $x=0$ da teng bo'lsa, a va b ning qiymatini toping.
A) $a=-1$, $b=1$ B) $a=1$, $b=1$
C) $a=1$, $b=-1$ D)$a=5$, $b=-1$
E) $a=2$, $b=2$

11. (98-10-14) t ning qanday qiymatlarida $y=tx^2-4x+t$ funksiyaning grafigi OX o'qining yuqori qismida joylashadi?
A) $t\in[0;2)$ B) $t\in(0;2)$ C) $t\in(-2;2)$
D) $t\in[-2;2]$ E) $t\in(2;\infty)$

12. (98-10-59) $A(1;1)$, $B(0;3)$ va $C(2;3)$ nuqtalardan o'tuvchi parabola qaysi funksiyaning grafigi hisoblanadi?
A) $y=2x^2+2x-3$ B) $y=2x^2-2x-3$
C) $y=2x^2-4x+3$ D) $y=2x^2-3x+2$
E) $y=2x^2+3x-2$

13. (98-11-79) m ning qaysi qiymatida $y=1$ to'g'ri chiziq, $y=x^2-2x+m$ parabolaga urinadi?
A) 4 B) 1 C) 3 D) 2 E) 5

14. (98-12-94) $y=(k-2)x^2-3kx+2$ va $y=kx^2+kx+4$ funksiyalarning grafiklari kesishmaydigan k ning barcha butun qiymatlari yig'indisini toping.
A) 0 B) 1 C) -2 D) 3 E) 5

15. (99-3-11) a ning qanday qiymatlarida $y=9x^2-12x+35a$ parabola abssissalar o'qi bilan ikkita umumiy nuqtaga ega bo'ladi?
A) $a=\frac{4}{35}$ B) $a<\frac{4}{35}$ C) $a>\frac{4}{35}$
D) $a<\frac{18}{35}$ E) $a>\frac{18}{35}$

16. (99-9-15) Quyidagi parabolalardan qaysi biri OX o'qi bilan kesishadi?
1) $y=2x^2-5x+8$; 2) $y=-2x^2-8x-8$;
3) $y=x^2-3x-8$; 4) $y=-3x^2+6x-12$
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) hech qaysisi

17. (99-10-20) Koordinatalar boshidan $y=x^2-4x+3$ parabolaning simmetriya o'qigacha bo'lgan masofani toping.
A) 3 B) 1 C) 2,5 D) 1,5 E) 2

18. (00-1-9) t ning qanday qiymatlarida tenglamasi

$$y = tx^2 + 16tx + 68t$$

bo'lgan parabola OX o'qidan yuqorida yotmaydi?
A) $(-\infty; 0)$ B) $(0; 4)$ C) $(-\infty; -4)$
D) $(-\infty; -4) \cup (4; \infty)$ E) $(-4; 0)$

19. (00-2-26) $A(1; 9)$ nuqta $y = -x^2+ax+4$ parabola grafigiga tegishli. Parabola uchining ordinatasini toping.
A) 13 B) 6 C) 4 D) 2 E) 7

20. (00-2-28) $y = x^2$ parabolani $\vec{a}(-3; 2)$ vektor bo'yicha parallel ko'chirganda, uning tenglamasi qanday bo'ladi?
A) $y = x^2+6x+11$ B) $y = x^2+5$ C) $y = x^2-1$
D) $y = x^2 + 9$ E) $y = x^2 + 4x - 9$

21. (00-5-37) $y = -6x^2+7x-2$ kvadrat funksiyaning nollari yig'indisini toping.
A) $-1\frac{1}{6}$ B) $1\frac{5}{6}$ C) $\frac{1}{6}$ D) $1\frac{1}{6}$ E) $\frac{5}{6}$

22. (00-6-11) a ning qanday qiymatlarida $y = ax^2 + 4x + c$ parabolaga koordinata o'qlarini A(1;0) va B(0;4) nuqtalarda kesib o'tadi?
A) -8 B) 4 C) -4 D) 1 E) $\emptyset$

23. (00-7-22) a ning qanday qiymatida $y = x^2 - 4x + 12 - a$ parabolaganing uchi M(2;4) nuqtada yotadi?
A) 3 B) 2 C) 4 D) 5 E) 6

24. (00-10-50) Ushbu $10x^2 + 20x - 30 < 0$ tengsizlikning yechimlari to'plamida $q = 10x^2-20x-30$ qanday qiymatlar qabul qiladi?
A) $-40 < q < 120$ B) $q \in R$ C) $q > 0$
D) $0 < q < 30$ E) $q < 0$

25. (97-12-21) Agar $a < 0$ va $b^2 - 4ac < 0$ bo'lsa, $y = ax^2 + bx + c$ funksiya grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choraklarida joylashgan?
A) I, II B) III, IV C) II, III D) I, II va IV
E) I,II,III va IV

26. (98-11-13) Ushbu $y = -3x^2+8x-8$ funksiyaning grafigi qaysi choraklarda joylashgan?
A) II, III, IV B) barcha choraklarda
C) III, IV D) I, II, III E) I, III ,IV

27. (00-8-11) Ushbu $f(x) = -4x^2+2x-1$ funksiyaning grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choraklarida joylashgan?
A) III; IV B) I; II; III C) I; III D) II; IV
E) I; II; III; IV

28. (00-10-9) Ushbu $y = -2x^2 + 4x - 8$ funksiyaning grafigi qaysi choraklarda joylashgan?
A) II, III, IV B) I, II, III, IV C) I, III, IV
D) I, II, III E) III ,IV

29. (96-6-22) Ushbu $y = ax^2 + bx + c$ ($a > 0$, $b^2-4ac > 0$) funksiyaning grafigi quyidagilardan qaysi biri bo'lishi mumkin?



A) A rasm B) B rasm C) C rasm
D) D rasm E) E rasm

30. (97-2-22) Agar $a > 0$ va $b^2 - 4ac < 0$ bo'lsa, $y = ax^2 + bx + c$ funksiya grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choraklarida joylashgan?
A) I, IV B) I, II va IV C) faqat IV
D) III, IV
E) I, II

31. (98-1-16) Rasmda qanday funksiyaning grafigi tasvirlangan?



A) $y = 3x-x^2$ B) $y = 3x^2-3$ C) $y = 3(1-x^2)$
D) $y = x^2 + 3x$ E) $y = 3x^2 + 3$

32. (98-2-12) Quyida keltirilgan funksiyalardan qaysi birining grafigi rasmdagi paraboladan iborat?



A) $y = (x+2)\cdot(x+1)$ B) $y = (x-2)\cdot(1-x)$
C) $y = (x+2)\cdot(x-1)$ D) $y = (x+2)\cdot(1-x)$
E) $y = (2-x)\cdot(1-x)$

33. (98-8-16) Rasmda qaysi funksiyaning grafigi tasvirlangan?



A) $y = x^2+3x$ B) $y = 3(x^2+1)$ C) $y = 3-3x^2$
D) $y = 3(x^2-1)$ E) $y = 2x^2-3$

34. (01-9-38) $y = x^2+px+q$ parabola $x = 5$ nuqtada OX o'qiga urinadi. $\frac{q}{p}$ ni toping.
A) 1 B) -2 C) 2,5 D) -2,5 E) 2

35. (01-9-40) a ning qanday qiymatlarida $y = x^2 - 2(a+1)x + 1$ parabolaning uchi $y = \frac{3}{4}$ to'g'ri chiziqdan pastda, $y = ax^2 - x + d$ parabolaning uchi esa shu to'g'ri chiziqdan yuqorida yotadi?
A) $(-0,5;1)$ B) $(-0,25;0) \cup (1;\infty)$
C) $(-1,5;-0,5) \cup (2;\infty)$ D) $(-1,5;-0,25)$
E) $(-0,25;1)$

36. (01-12-9) a ning qanday haqiqiy qiymatlarida $y_1 = x^2 - x + a$ parabola $y_2 = x^2 - x - a^2$ parabola ichida yotadi?
A) $(0;1)$ B) $[-1;0]$ C) $(-1;0)$ D) $[-1;0)$
E) $(-\infty;-1) \cup (0;\infty)$

37. (01-12-18) a ning qanday qiymatlarida $y = 2ax+1$ va $y = (a-6)x^2 - 2$ funksiyalarning grafiklari kesishmaydi?
A) $(-3;6)$ B) $(-\infty;6) \cup (3;\infty)$
C) $\emptyset$ D) $(-6;0)$ E) $(-6;3)$

38. (01-12-41) t ning qanday qiymatlarida $f(x) = 3x^2+2tx-(t-1)^2$ funksiya $f(-1) = -2$ shartni qanoatlantiradi?
A) ± 3 B) ± 1 C) 3 D) -3 E) ± 2

39. (01-2-25) Ushbu

$$y = 4x^2 + 4x + 1 \quad \text{va} \quad y = 2x + 1$$

funksiyalar grafiklari kesishish nuqtalarining koordinatalarining yig'indisini toping.
A) -0,5 B) 1 C) 0,5 D) 1,5 E) -1

40. (00-9-64) Ushbu $y = \sqrt{x - x^2}$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.
A) $[0;1]$ B) $[\frac{1}{2};1]$ C) $[0;\frac{1}{2}]$ D) $[0;2]$ E) $[1;\sqrt{2}]$

41. (98-11-66) Ushbu $y = \sqrt{9 - x^2}$ funksiyaning qiymatlar sohasini ko'rsating.
A) $(-\infty;\infty)$ B) $[-3;3]$ C) $[0;\infty)$
D) $[0;3]$ E) $[0;9]$

42. (02-3-30) $y = kx - 7$ to'g'ri chiziq va $y = ax^2 - 13x+17$ parabola absissalari 4 va 2 ga teng bo'lgan nuqtalarda kesishadi. $k-a$ ayirmaning qiymatini toping.
A) 2 B) -2 C) 3 D) -3 E) 1

43. (02-5-12) m ning qanday qiymatlarida $y = (m+4)x^2 - 2(m+2)x + 1$ kvadrat uch hadning grafigi absissalar o'qidan pastda joylashgan?
A) $(-\frac{1}{4};1)$ B) $(-2;1)$ C) $\emptyset$
D) $(-\infty;\infty)$ E) $(-\infty;-4) \cup (-4;\infty)$

44. (02-7-40) $y = x^2 - 4x + 7$ parabola $\vec{a}(2;3)$ vektor yordamida parallel ko'chirishdan hosil bo'lgan kvadrat funksiyani yozing.
A) $y = x^2 - 8x + 22$ B) $y = 2x^2 - 6x + 10$
C) $y = x^2 - 6x + 10$ D) $y = x^2 - 8x + 7$
E) $y = x^2 - 6x - 10$

45. (02-10-50) $y = 2x^2 - 6x + 17$ funksiya grafigining simmetriya o'qi tenglamasini ko'rsating.
A) $x = 1,5$ B) $y = 4x - 6$ C) $y = 3$
D) $x = 6$ E) $y = 2x + 17$

46. (02-11-18) $y = -3x^2+12x-16$ parabola uchining koordinatalari yig'indisini toping.
A) -1 B) 1 C) 0 D) -2 E) 2

47. (02-11-19) a ning nechta butun qiymatida $y = (x-4a)^2 + a^2 + 10a + 21$ parabola uchining absissasi musbat, ordinatasi esa manfiy bo'ladi?
A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

48. (02-12-28) k ning qanday qiymatlarida $(k+2)^2-4x-1$ uchhadning qiymati x ning barcha haqiqiy qiymatlarida noldan kichik bo'ladi?
A) $k < -4$ B) $k < -2$ C) $k < -5$
D) $k < -5,5$ E) $k < -6$

49. (03-1-4) $y = x^2 + bx + 4$ parabola b ning nechta butun qiymatida absissalar o'qiga urinadi?
A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

50. (03-5-22) $y = x^2+4(a-2)x+5$ parabolaning uchi $x + a = 0$ to'g'ri chiziqda yotsa, a ning qiymatini toping.
A) 4 B) 8 C) -4 D) -2 E) 1

51. (03-5-23) $y = (a-2)x^2 - (a-2)x + 6$ va istalgan x haqiqiy son uchun $y > 5$ bo'lsa, a soni qaysi oraliqda bo'ladi?
A) $(2;6)$ B) $(1;5)$ C) $[2;6)$ D) $(0;5)$ E) $\emptyset$

52. (03-5-34) $y = ax^2+c$ funksiyaning grafigi $A(-1;-3)$ va $B(3;0)$nuqtalardan o'tishi ma'lum bo'lsa, $\frac{c}{a}$ ning qiymati nechaga teng.
A) -9 B) 9 C) -8 D) -10 E) $\frac{8}{27}$

53. (03-6-50) x ning qanday qiymatlarida $y = x^2$ funksiyaning qiymati 9 dan katta bo'ladi?
A) $-3 < x < 3$ B) $x < -3$ C) $x > 3$
D) $x \le -3$ E) $x < -3$, $x > 3$

54. (03-7-57) m ning qanday qiymatida $y = mx + 2$ to'g'ri chiziq va $y = -5x^2$ parabola absissasi $x = -1$ bo'lgan nuqtada kesishadi?
A) 3 B) -3 C) -7 D) 7 E) 5

55. (03-8-18) a ning nechta butun qiymatida $y=(x-2a)^2+a^2-9a+14$ parabola uchining absissasi musbat, ordinatasi esa manfiy bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 4 D) 5 E) 6

56. (03-8-46) $y=-2x^2+5x-3$ funksiyaning eng katta qiymatini toping.
A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{1}{4}$ C) 5 D) -3 E) $\frac{1}{2}$

57. (03-11-69) $y=-3x^2+bx+c$ parabolaning uchi $M(-4;3)$ nuqtada yotadi. $b+c$ ning qiymatini toping.
A) -72 B) -55 C) -57 D) -48 E) -69

1.12.4 Aralash bo'lim.

1. $y=f(x)$ va $y=g(x)$ funksiyalar grafiklari kesishgan nuqtalarning absissalari $f(x)=g(x)$ tenglamaning ildizlari bo'ladi.

(00-3-59) Agar $f(x+1)=x^2-3x+2$ bo'lsa, $f(x)$ ni toping.
A) x^2-3x-1 B) x^2-5x+1 C) x^2-5x+6
D) x^2-4 E) $4-x^2$

Yechish: $x+1=t$ deb olamiz. U holda $x=t-1$ bo'ladi. uni $f(x+1)=x^2-3x+2$ tenglikka qo'yamiz. U holda

$f(t)=(t-1)^2-3(t-1)+2=t^2-2t+1-3t+3+2=t^2-5t+6.$

J: $f(x)=x^2-5x+6$ (C).

1. (96-3-28) $x\to 3$ da $f(x)=\frac{x^2-9}{x+3}$ funksiya qanday songa intiladi?
A) 0 B) 3 C) 6 D) -6 E) -3

2. (96-11-29) Funksiya qanday songa intiladi?
$x\to 2$ da $F(x)=\frac{x^2-4}{x-2}$
A) -4 B) 4 C) 6 D) 8 E) -8

3. (96-12-29) $x\to -3$ da $f(x)=\frac{x^2-9}{x-3}$ funksiy qanday songa intiladi?
A) 6 B) 0 C) -3 D) -6 E) 3

4. (97-7-16) k ning qanday qiymatlarida $y=\frac{k}{x}-1$ funksiyaning grafigi $C(-\frac{1}{2};-3)$ nuqtadan o'tadi?
A) 1 B) -2 C) -1 D) $\frac{1}{2}$ E) 4

5. (97-10-16) k ning qanday qiymatida $y=kx^3+2$ funksiyaning grafigi $B(-2;10)$ nuqtadan o'tadi?
A) 2 B) 1 C) $-0,5$ D) -1 E) -3

6. (98-4-41) $f(x)=1-2x$ funksiya berilgan. Agar $f(\varphi(x))=x$ bo'lsa, $\varphi(x)$ funksiyani toping.
A) $\frac{1-x}{2}$ B) $\frac{x+1}{2}$ C) $\frac{x-1}{2}$ D) $\frac{2x-1}{4}$ E) $\frac{1-2x}{3}$

7. (98-11-12) $y=|x-2|+1$ va $y=5$ funksiyalar grafiklari kesishgan nuqtalar absissalari kvadratlarining yig'indisini toping.
A) 52 B) 32 C) 40 D) 36 E) 48

8. (98-12-41) Parallel ko'chirish natijasida grafiklari ustma-ust tushadigan funksiyalarni ko'rsating.
1) $y=3x^3$; 2) $y=-3x^3$
3) $y=-\frac{1}{3}x^3$; 4) $y=\frac{1}{3}x^3$
A) bundaylari yo'q B) 1;2 C) 3;4
D) 1;3 E) hammasi

9. (99-2-22) Ushbu $y=x^2$, $y=|x|$ funksiyalar grafiklarining OX o'qida yotmaydigan kesishish nuqtalari orasidagi masofani toping.
A) 2 B) 2,5 C) 2,3 D) 1,5 E) 1,8

10. (99-4-15) $y=\frac{k}{x+2}$, $(k>0)$ funksiyaning grafigi qaysi choraklar orqali o'tadi?
A) I va III B) II va IV C) I, III, IV
D) I, II va III E) I, II va IV

11. (99-5-40) Ushbu $f(x)=|x-1|+|x-3|$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.
A) $[0;\infty)$ B) $[1;\infty)$ C) $[2;\infty)$
D) $[3;\infty)$ E) $[4;\infty)$

12. (99-7-32) Ushbu $y=\sqrt[4]{x}$ funksiya uchun quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) toq funksiya
B) grafigi $(16;2)$ nuqtadan o'tadi
C) aniqlanish sohasida o'suvchi
D) grafigi I chorakda joylashgan
E) aniqlanish sohasi $[0;\infty)$ oraliqdan iborat

13. (99-10-19) $y=\frac{1}{x^2}$ va $y=x^2$ funksiyalarning grafiklari kesishgan nuqtalaridan o'tuvchi to'g'ri chiziqning tenglamasini toping.
A) $y=x$ B) $y=-1$ C) $y=1$
D) $y=x+1$ E) $y=x-1$

14. (00-1-42) Funksiyaning qiymatlar to'plamini toping.

$$f(x)=\frac{|x-2|}{x-2}+2$$

A) $[1;3]$ B) $(1;3)$ C) $[1;3)$ D) $\{1;3\}$ E) $(1;3]$

15. (00-3-60) Argumentning qaysi qiymatida

$$y=\frac{5x}{2|x+1|-5}$$

funksiya 2 ga teng?
A) $-\frac{4}{3}$ B) $-\frac{5}{3}$ C) -2 D) $-\frac{14}{9}$ E) 1

16. (96-1-15) Rasmda qiyidagi funksiyalardan qaysi birining grafigi keltirilgan?



A) $y=|x-1|$ B) $y=|x+1|$ C) $y=|x|-1$
D) $y=\frac{1}{|x|+1}$ E) $y=\frac{1}{|x|-1}$

17. (00-7-17) Koordinata boshidan $y=x^2$ va $y=\frac{1}{x}$ funksiyalarning grafiklari kesishgan nuqtagacha bo'lgan masofani aniqlang.
A) 2 B) 1,5 C) $\sqrt{2}$ D) $\frac{1}{2}\sqrt{2}$ E) 1

18. (00-9-43) $f(x) = 2x^2$ va $\varphi(x) = x + 1$ bo'lsa , x ning nechta qiymatida $f(\varphi(x)) = \varphi(f(x))$ bo'ladi?
A) $\emptyset$ B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

19. (00-9-45) Funksiyaning qiymatlar sohasini toping.

$$f(x) = |x + 2| + |x + 8|$$

A) $[0; \infty)$ B) $[3; \infty)$ C) $[4; \infty)$
D) $[6; \infty)$ E) $[5; \infty)$

20. (00-9-60) Agar

$$f(x - 1) = x^2 + 3x - 2$$

bo'lsa, $f(x)$ ni aniqlang.
A) $x^2 + 2x - 3$ B) $x^2 + 5x - 4$ C) $x^2 + 5x + 2$
D) $x^2 - x - 2$ E) $x^2 - 6x + 5$

21. (00-10-8) $y = |x - 1| - 5$ va $y = 0$ funksiyalar grafiklari kesishgan nuqtalar absissalarining kvadratlari
yig'indisini toping.
A) 36 B) 48 C) 24 D) 52 E) 32

22. (96-9-66) Rasmda qiyidagi funksiyalardan qaysi birining grafigi keltirilgan?



A) $y = |x-1|$ B) $y = |x+1|$ C) $y = |x|+1$
D) $y = \frac{1}{|x|}$ E) $y = |x| - 1$

23. (96-10-16) Rasmda qiyidagi funksiyalardan qaysi birining grafigi keltirilgan?



A) $y = |x-1|$ B) $y = |x+1|$ C) $y = |x|-1$
D) $y = 1 + |x|$ E) $y = 2|x|$

24. (01-6-18) p ning qanday qiymatida tenglamasi $x^2 + y^2 = 64$ bo'lgan aylana va $y = x^2 + p$ funksiyaning grafigi uchta umumiy nuqtaga ega bo'ladi.
A) 8 B) 6 C) -8 D) -6 E) -7

25. (01-7-46) Agar $f(x) = \frac{1-x}{1+x}$ bo'lsa, $f(\frac{1}{x}) + \frac{1}{f(x)}$ ning qiymatini toping.
A) $\frac{4x}{1-x^2}$ B) $\frac{4x}{x^2-1}$ C) $\frac{x^2+1}{x^2-1}$
D) $\frac{2(x^2+1)}{x^2-1}$ E) $\frac{2(x^2+1)}{1-x^2}$

26. (01-11-14) Ushbu $y = x^4$ va $y = 2x^2-1$ funksiyalarning grafiklari nechta umumiy nuqtaga ega?
A) 4 B) 3 C) 1 D) 2
E) umumiy nuqtaga ega emas

27. (02-1-53) Agar $y = x^3 + 1$ va $-1 < x < 2$ bo'lsa, y qanday oraliqda o'zgaradi?
A) $(-1; \infty)$ B) $(0; 9)$ C) $(1; 8)$
D) $(-1; 9)$ E) $(2; 9)$

28. (02-7-13) $f(x) = \frac{3}{x-4}$ funksiyaning qiymatlar to'plamini toping.
A) $(-\infty; 0) \cup (0; \infty)$ B) $(-\infty; 4) \cup (4; \infty)$
C) $(-\infty; 3) \cup (3; \infty)$ D) $(-\infty; -1) \cup (-1; \infty)$
E) $(-\infty; \infty)$

29. (02-7-22) x ning qanday qiymatlarida $y = \frac{3x-1}{x+2}$ funksiyaning qiymatlari 2 dan kichik emas?
A) $(-\infty; -2) \cup [5; \infty)$ B) $(-2; 5]$ C) $[5; \infty)$
D) $(-2; \frac{1}{3}]$ E) $[4; 5]$

30. (02-12-42) $y = x^2$ va $y = \sqrt{8x}$ funksiyalar grafiklarining kesishish nuqtalaridan o'tadigan to'g'ri chiziqning tenglamasini yozing.
A) $y = 1,5x$ B) $y = x$ C) $y = 2,5x$
D) $y = 2x$ E) $y = 0,5x$

31. (02-12-47) $y = ax^3 + b$ kubik parabolaning grafigi $A(1; 18)$ va $B(-1; 14)$ nuqtalardan o'tadi. Qaysi nuqtada bu funksiyaning grafigi OX o'qini kesib o'tadi?
A) $(0; 2)$ B) $(-3; 0)$ C) $(3; 0)$
D) $(-2; 0)$ E) $(-2,5; 0)$

32. (03-6-40)

$$y = \frac{x}{|x|}$$

funksiyaning grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choragida joylashgan?
A) III B) IV C) II, III D) I E) I, III

33. (03-9-47) $f(x) = \frac{4}{\sqrt{x^2+16}}$ $(-3 \le x \le 3)$ funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlari ayirmasini toping.
A) $-0,2$ B) 0,2 C) 0,4 D) $-0,8$ E) 0,8

34. (03-11-16) $y = \frac{2}{5+|3x^2+x-2|} - 2$ funksiyaning eng katta qiymati nechaga teng?
A) $-1,6$ B) $-1,2$ C) $1,4$ D) $-0,8$ E) $-1,8$

35. (03-11-79) $y_1 = x - 2, y_2 = \sqrt{(x-2)^2}, y_3 = (\sqrt{x-2})^2$ funksiyalarga nisbatan quyidagi mulohazalarning qaysi biri to'g'ri?
A) uchala funksiyaning grafigi bir xil
B) birinchi va ikkinchi funksiyaning grafigi ustma-ust tushadi
C) birinchi va uchinchi funksiyaning grafigi ustma-ust tushadi

D) ikkinchi va uchunchi funksiyaning grafigi ustma-ust tushadi
E) uchala funksiyaning grafigi turlicha

36. (03-12-26) $y = |x-1| + |x-3|$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.
A) 3 B) 4 C) 2 D) 1 E) 0

37. (03-12-70) Agar $f(x) = x^4 - 2x^2 + 1$ bo'lsa, $f(1+a) - f(1-a)$ nimaga teng?
A) $8a^3$ B) $4a^2 + 2a$ C) $a^3 + 8$
D) $a^4 + 4a^3$ E) 4

1.12.5 Teskari funksiya.

(98-6-14) Qaysi nuqta $y = x^3 + 5x - 2$ funksiyaga teskari funksiyaning grafigiga tegishli?
A) $(-2;1)$ B) $(0;-2)$ C) $(4;1)$ D) $(-8;1)$ E) $(4;5)$
Yechish: Agar (x_0, y_0) nuqta berilgan funksiyaning grafigiga tegishli bo'lsa, u holda (y_0, x_0) nuqta unga teskari funksiyaning grafigiga tegishli bo'ladi. Shu sababli javoblarda keltirilgan nuqtalarning ordinatalarini berilgan funksiyaga qo'yib tekshiramiz. $y(1) = 4$ bo'lgani uchun $(1;4)$ nuqta berilgan funksiyaning grafigiga tegishli bo'ladi. Demak, $(4;1)$ nuqta unga teskari funksiyaning grafigiga tegishli ekan.
Javob: $(4;1)$ (C).

1. (97-1-9) Quyidagilardan qaysi biri $y = \frac{3}{x+1} - 2$ funksiyaga teskari funksiya?
A) $y = \frac{3}{x-2}$ B) $y = \frac{x+1}{3} - 2$ C) $y = \frac{x+1}{3} - \frac{1}{2}$
D) $y = \frac{3}{x-2} + 1$ E) $y = \frac{3}{x+2} - 1$

2. (97-6-9) Quyidagilardan qaysi biri $y = \frac{2}{x-1} - 1$ funksiyaga teskari funksiya?
A) $y = 1 - \frac{2}{x+1}$ B) $y = 2 - \frac{3}{x}$ C) $y = -\frac{2}{x+1}$
D) $y = \frac{3}{x-2}$ E) $y = \frac{2}{x+1} + 1$

3. (97-11-9) Quyidagilardan qaysi biri $y = \frac{3}{2-x} - 1$ funksiyaga teskari funksiya?
A) $y = x - 2$ B) $y = \frac{3}{x-2} + 1$ C) $y = \frac{x-2}{3} + 1$
D) $y = 2 - \frac{3}{x+1}$ E) $y = \frac{2-x}{3} + 1$

4. (98-11-15) Ushbu $y = 2x^2 - \frac{1}{2}$ $(x \geq 0)$ funksiyaga teskari bo'lgan funksiyani aniqlang.
A) $\sqrt{2x+1} \cdot 2^{-1}$ B) $\sqrt{2x+1} \cdot 4^{-1}$
C) $\sqrt{2x+1} \cdot 2^{-1} - \frac{1}{2}$ D) $\sqrt{2x+1} \cdot 4^{-1} - \frac{1}{2}$
E) $\sqrt{2x+1} \cdot 2^{-1} + \frac{1}{2}$

5. (99-3-29) Funksiyaga teskari funksiyani toping.

$$y = \frac{x-1}{2-3x}$$

A) $y = \frac{2-3x}{x-1}$ B) $y = -\frac{2-3x}{x-1}$ C) $y = \frac{2-3x}{1-x}$
D) $y = \frac{2x+1}{3x+1}$ E) $y = \frac{3x+1}{2x+1}$

6. (00-3-61) Ushbu $y = x^2 - 4x + 7$ funksiyaga $(-\infty; 2]$ oraliqda teskari funksiyani toping.
A) $2 \pm \sqrt{x-3}$ B) $2 - \sqrt{x-3}$ C) $2 + \sqrt{x-3}$
D) $2 + \sqrt{3-x}$ E) $2 \pm \sqrt{3-x}$

7. (00-10-11) $y = \frac{6x+2}{x}$ funksiyaga teskari funksiyani aniqlang.
A) $y = \frac{4}{x-6}$ B) $y = \frac{2}{x-6}$ C) $y = \frac{4}{x+6}$
D) $y = \frac{2}{x+6}$ E) $y = -\frac{2}{x-6}$

8. (01-1-66) Ushbu $y = x^2 - 8$ $(x \geq 0)$ funksiyaga teskari bo'lgan funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) $(-8;\infty)$ B) $[-8;\infty)$ C)$(-8;8)$
D) $[-8;8]$ E) $(-8;8]$

9. (01-8-19) Ushbu $y = \frac{4}{2-x} - 3$ funksiyaga teskari bo'lgan funksiyani ko'rsating.
A) $y = \frac{4}{x-3} - 2$ B) $y = \frac{4}{3-x} - 2$
C) $y = \frac{4}{x+3} + 2$ D) $y = \frac{4}{x-2} + 3$
E) $y = -\frac{4}{x+3} + 2$

1.13 Ko'rsatkichli tenglama va tengsizliklar.

1.13.1 Ko'rsatkichli funksiya va uning xossalari.

$a > 0, \quad b > 0$ uchun

1. $a^{x+y} = a^x \cdot b^y$;
2. $(a^x)^y = a^{xy}$;
3. $\frac{a^x}{a^y} = a^{x-y}$;
4. $(a \cdot b)^x = a^x \cdot b^x$;
5. $(\frac{a}{b})^x = \frac{a^x}{b^x}$

(98-7-23) Quyidagilardan qaysilari kamayuvchi funksiyalar?
1) $y = 0,37^x$; 2) $y = (\sqrt[3]{11})^x$;
3) $y = 3 \cdot (\frac{1}{2})^x$; 4) $y = (\frac{3}{4})^x$;
5) $y = \frac{1}{2} \cdot 3^x$
A) 1; 3; 5 B) 2; 3; 4 C) 1; 4 D) 3; 5 E) 1; 3; 4
Yechish: $y = a^x$ funksiya $0 < a < 1$ da kamayuvchi bo'lgani uchun 1), 3), 4) funksiyalar kamayuvchi bo'ladi. **Javob:** 1), 3), 4) (E).

1. (98-2-30) Quyidagi sonlardan qaysi biri 1 dan katta?
$a = 0,7^{2,3} \cdot 0,3^{0,8}$, $b = 3,2^{-4,2} \cdot 1,2^{-0,8}$,
$c = 0,7^{-1,2} \cdot 0,6^{-0,4}$, $d = 0,6^{0,4} \cdot 0,3^{0,6}$,
$e = 0,4^0 \cdot 3,5^{-1,3}$
A) a B) b C) c D) d E) e

2. (98-5-31) Ushbu $y = a^x$ funksiya uchun qaysi mulahaza noto'g'ri?
A) aniqlanish sohasi barcha haqiqiy sonlar to'plami
B) qiymatlari to'plami barcha musbat haqiqiy sonlar to'plami
C) garifigi (0;1) nuqtadan o'tadi
D) aniqlanish sohasida uzluksiz
E) aniqlanish sohasida har doim o'suvchi

3. (98-9-28) Ushbu
$a = 0,2^{-0,7} \cdot 0,3^{-0,6}$; $b = 0,8^{-1/3} \cdot 3^{0,4}$;
$c = 2^{0,7} \cdot 0,2^{-0,1}$; $d = 1,2^{0,4} \cdot 1,1^{1,5}$
sonlardan qaysi biri 1 dan kichik?
A) a B) b C) c D) d E) bunday son yo'q

4. (98-12-22) Quyidagilardan qaysilari o'suvchi funksiyalar hisoblanadi?
   $1)y = 3^x$; $2)y = (\sqrt[3]{10})^x$; $3)y = (\frac{9}{11})^x$
   $4)y = (\frac{5}{3})^x$; $5)y = (0,84)^x$
   A) 1; 2; 4 B) 1; 2; 3 C) 3; 4; 5
   D) 2; 3; 4 E) 1; 4; 5

5. (99-3-27) Funksiyalardan qaysi biri juft funksiya?
   $y_1 = \frac{a^x+a^{-x}}{2}$; $y_2 = \frac{a^x+1}{a^x-1}$;
   $y_3 = \frac{x}{a^x-1}$; $y_4 = x\frac{a^x-1}{a^x+1}$;
7. (99-8-39) Ushbu $f(x) = 4 - x^2$ funksiya grafigining abssissa o'qini musbat yo'nalishi bilan kesishgan nuqtasiga o'tkazilgan urinmasi tenglamasini yozing.
A) $y = -4x + 8$ B) $y = 4x + 8$
C) $y = 2x - 3$ D) $y = -2x + 5$ E) $y = -4x$

8. (99-8-70) Ushbu $y = 2sin\frac{x}{3}$ funksiya grafigining $M(\frac{3\pi}{2};2)$ nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning tenglamasini yozing.
A) $y = 2$ B) $y - 1 = 0$ C) $y = x$
D) $y = x - 2$ E) $y = -2x$

9. (99-9-52) Abssissasi $x_0 = 0$ nuqtadan $y = x^3$ funksiya grafigiga o'tkazilgan urinmaning tenglamasini ko'rsating.
A) $y = x$ B) $y = -0,5x$ C) $y = 0$
D) $y = 0,5x$ E) $y = 2x$

10. (00-6-28) $y = 3lnx - 0,5x$ funksiya grafigiga abssissasi $x_0 = 3$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning tenglamasini tuzing.
A) $y = 0,5x - 1,5$ B) $y = 3x - ln3$
C) $y = x - 3ln3$ D) $y = 3x - 0,5$
E) $y = 0,5x + 3ln3 - 3$

11. (00-10-58) Ushbu $f(x) = cos2x$ funksiyaga $(\frac{\pi}{4}; f(\frac{\pi}{4}))$ nuqtadan o'tkazilgan urinma tenglamasini ko'rsating.
A) $y = \frac{\pi}{2} - 2x$ B) $y = \pi - 3x$ C) $y = \frac{\pi}{2} + 3x$
D) $y = \pi - 2x$ E) $y = 2\pi + 3x$

12. (01-1-33) Ushbu $y = x^2 + 3x + 2$ funksiyaning grafigiga abssissasi $x = 0$ nuqtada urinma o'tkazilgan.Shu urinmaning abssissasi $x = 11$ bo'lgan nuqtasining ordinatasini toping.
A) 36 B) 33 C) 35 D) 32 E) 34

13. (01-4-35) Ushbu $f(x) = x^3$ funksiya grafigining $A(-1;-1)$ nuqtasiga o'tkazilgan urinmasi tenglamasini ko'rsating.
A) $y = 3x - 2$ B) $y = 3x + 2$
C) $y = x + 2$ D) $y = x - 2$ E) $y = 3x$

14. (01-6-46) $y = f(x)$ funksiyaning grafigiga o'tkazilgan urinma OX o'qi bilan 45^0 li burchak tashlik qiladi.Agar urinish nuqtasining abssissasi 2 ga teng va $f(2) = 18$ bo'lsa, urinmasi tenglamasini ko'rsating.
A) $y = x + 16$ B) $y = x - 16$ C) $y = x + 18$
D) $y = x - 18$ E) $y = x + 14$

15. (01-7-47) Ushbu $y = -x^2 - 2$ chiziqning $y = 4x + 1$ to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan urinmasi tenglamasini ko'rsating.
A) $y = 4x + 6$ B) $y = 4x - 6$ C) $y = 4x - 2$
D) $y = 4x + 2$ E) $y = 4x + 10$

16. (01-8-27) $f(x) = x - lnx$ funksiyaning grafigiga o'tkazilgan gorizontal urinmaning

tenglamasini tuzing.
A) $y=2$ B) $y=1$ C) $y=2-ln2$
D) $y=1+ln2$ E) $y=1,5$

17. (02-1-67) $y=x-3x^2$ funksiyaning grafigiga $x_0=2$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning tenglamasini yozing.
A) $y=1-6x$ B) $y=-11x+12$ C) $y=3x+1$
D) $y=x-3$ E) $y=-12x-1$

18. (02-8-20) a ning qanday qiymatlarida $y=a+xln81$ to'g'ri chiziq, $y=9^x+2\cdot 3^{x+1}-xln81$ funksiya grafigining urinmasi bo'ladi?
A) 7 B) 5 C) 6 D) 8 E) 9

19. (02-10-29) $f(x)=log_3(2x+1)$ funksiya grafigining abssissasi $x_0=1$ nuqtasiga o'tkazilgan urinma tenglamasini ko'rsating.
A) $y=\frac{2x}{3ln3}-\frac{2}{3ln3}+1$
B) $2x-y\cdot ln3-2+ln3=0$
C) $xln3+y=0$
D) $xln3+y+1=0$
E) $\frac{x}{ln3}+2y-2=0$

20. (02-10-65) $y=\sqrt{(5-x^{\frac{2}{3}})^3}$ egri chiziqqa $M(1;8)$ nuqtada urinma o'tkazilgan.Bu urinmaning koordinata o'qlari orasidagi kesmasi uzunligini toping.
A) $5\sqrt{5}$ B) 10 C) 5 D) $7\sqrt{3}$ E) $5\sqrt{7}$

21. (03-2-23) $y=lnx$ funksiya grafigiga o'tkazilgan urinma koordinata boshidan o'tadi.Shu urinmaning tenglamasini yozing.
A) $y=x$ B) $y=2x$ C) $y=ex$
D) $y=\frac{x}{e}$ E) $y=3x$

22. (03-6-69) $y=x^2-2x$ parabolaga uning biror nuqtasida o'tkazilgan urinmaning burchak koeffisenti 4 ga teng. Shu urinmaning tenglamasini toping.
A) $y=4x-4$ B) $y=4x+9$ C) $y=4x+4$
D) $y=4x-5$ E) $y=4x-9$

23. (03-9-44) $A(1;4)$ nuqtadan $y=-2-\frac{2}{x}$ funksiyaning grafigiga ikkita urinma o'tkazilgan. Urinish nuqtalari abssissalarining yig'indisini toping.
A) -1 B) 1 C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{2}{3}$ E) $-\frac{2}{3}$

2.2.10 Hosilaning mexanik ma'nosi.

$S(t)$ qonuniyat bilan harakatlanayotgan moddiy nuqtaning tezligi $\vartheta(t)$, tezlanishi esa $a(t)$ bo'lsin.

1. $\vartheta(t)=S'(t)$
2. $a(t)=\vartheta'(t)$

(99-2-39) Moddiy nuqta $S(t)=3t^3-3t^2+12t(m)$ qonuniyat bo'yicha harakatlanyapti. Uning tezlanishi 0 ga teng bo'lgan paytda tezligi necha m/min bo'ladi?
A) 8 B) 7 C) 9 D) 11 E) 10

Yechish: To'g'ri chiziq bo'ylab $S(t)$ qonun bilan harakatlanayotgan nuqtaning tezligi uchun $\vartheta(t)=S'(t)$, tezlanishi uchun esa $a(t)=\vartheta'(t)$ formulalar o'rinlidir. Demak, $\vartheta(t)=9t^2-6t+12$, $a(t)=\vartheta'(t)=18t-6$. Nuqtaning tezlanishi 0 ga tengligidan

$$18t-6=0,\Rightarrow t=\frac{6}{18}=\frac{1}{3}$$

ekanini topamiz.Uni tezlikning ifodasiga qo'yib

$$\vartheta(\frac{1}{3})=9\cdot\left(\frac{1}{3}\right)-6\cdot\frac{1}{3}+12=1-2+12=11$$

ni topamiz.
Javob: 11 (D).

1. (96-3-83) To'g'ri chiziq bo'ylab $x(t)=-t^3+6t^2+15t$ qonun bo'yicha harakatlanayotgan moddiy nuqta harakat boshlangandan necha sekunddan keyin to'xtaydi.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

2. (96-9-14) To'g'ri chiziq bo'ylab $x(t)=-\frac{1}{3}t^3+\frac{3}{2}t^2+4t$ qonun bo'yicha harakatlanayotgan moddiy nuqtaharakat boshlangandan necha sekunddan keyin to'xtaydi.
A) 5 B) 3 C) 2 D) 4 E) 6

3. (96-12-81) To'g'ri chiziq bo'ylab $x(t)=-t^3+3t^2+9t$ qonun bo'yicha harakatlanayotgan moddiy nuqta harakat boshlangandan necha sekunddan keyin to'xtaydi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

4. (96-13-24) To'g'ri chiziq bo'ylab $x(t)=-\frac{1}{3}t^3+\frac{1}{2}t^2+6t$ qonun bo'yicha harakatlanayotgan moddiy nuqta harakat boshlangandan necha sekunddan keyin to'xtaydi?
A) 2 B) 1 C) 4 D) 5 E) 3

5. (98-2-41) Moddiy nuqta $S(t)=lnt+\frac{1}{16}t$ qununiyat bo'yicha to'g'ri chiziqli harakatlanayapti. Harakat boshlangandan qancha vaqt o'tgach, nuqtaning tezligi $\frac{1}{8}$ m/s ga teng bo'ladi?
A) 15s B) 17s C) 16s D) 14s E) 18s

6. (98-9-40) Moddiy nuqta $S(t)=e^t+cost+5t$ qununiyat bo'yicha harakatlanayapti. Shu nuqtaning $t=0$ dagi tezligini toping.
A) 5 B) 8 C) 4 D) 7 E) 6

7. (98-12-107) Moddiy nuqta $S(t)=-\frac{1}{6}t^3+3t^2-5$ qununiyat bo'yicha harakatlanayapti. Uning tezlanishi nolga teng bo'lganda,tezligi qanchaga teng bo'ladi?
A) 24 B) 18 C) 12 D) 6 E) 15

8. (99-3-57) Ikki moddiy nuqta $S_1(t)=2,5t^2-6t+1$ va $S_2(t)=0,5t^2+2t-3$ qununiyat bo'yicha harakatlanayapti. Qaysi vaqtda birinchi nuqtaning tezligi ikkinchisinikidan uch marta ko'p bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

9. (99-9-51) Moddiy nuqta to'g'ri chiziq bo'ylab $S(t)=6t^2-2t^3+5$ qununiyat bo'yicha harakatlanayapti. Uning tezlanishi 0 ga teng bo'lgandagi oniy tezligi nimaga teng.
A) 8 B) 6 C) 7 D) 9 E) 6,5

10. (00-3-65) To'g'ri chiziq bo'ylab $s = \frac{t^2}{t^2+3}$ qonuniyat asosida harakatlanayotgan jismning $t = 1$ bo'lgan ondagi tezligini toping.
A) 0,4 B) 0,5 C) 0,225 D) 0,375 E) 0,45

11. (00-7-38) Moddiy nuqta to'g'ri chiziq bo'ylab $S(t) = -\frac{1}{12}t^4 + \frac{2}{3}t^3 + \frac{3}{2}t^2$ qonuniyat bo'yicha harakatlanayapti. Harakat boshlangandan qancha sekund o'tgach, uning tezlanishi eng katta bo'ladi?
A) 1,5 B) 2,5 C) 3 D) 1,75 E) 2

12. (01-3-19) Ushbu $S(t) = 4t^2 - \frac{t^3}{3}$ qonuniyat bilan harakatlanayotgan jismning eng katta tezligini aniqlang.
A) 16 B) 20 C) 12 D) 24 E) 36

13. (01-6-45) Moddiy nuqta $s(t) = t^4(km)$ qonununiyatga ko'ra harakatlanayapti. Nuqtaning bolib o'tgan yo'li 16 km ga teng bo'lgan paytdagi tezligini (km/s) aniqlang.
A) 28 km/s B) 30 km/s C) 34 km/s
D) 32 km/s E) 26 km/s

14. (01-11-40) To'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan moddiy nuqtaning tezligi $\vartheta(t) = lnt - \frac{1}{8}t(m/s)$ qonuniyat bo'yicha o'zgaradi. Vaqtning qanday onida (sek.) nuqtaning tezlanishi nolga teng bo'ladi?
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9 E) 5

15. (02-3-50) $S = t\sqrt{t}$ qununiyat bilan harakatlanayotgan moddiy nuqtaning $t = 2$ sekunddagi tezlanisini hisoblang (S metrlarda).
A) $\frac{3}{8}\sqrt{2}$ B) $\frac{3}{4}\sqrt{2}$ C) $\frac{3}{16}\sqrt{2}$ D) $3\sqrt{2}$ E) $\frac{\sqrt{2}}{8}$

16. (02-11-51) To'g'ri chiziq bo'ylab $S(t) = \frac{3t+2}{t+3}$ qonuniyat bo'yicha harakatlanayotgan moddiy nuqtaning $t = 2$ sek ondagi tezligini (m/sek) aniqlang.
A) 0,2 B) 0,25 C) 0,28 D) 0,32 E) 0,5

17. (03-4-44) Ikki moddiy nuqta $S_1(t) = 2t^3 - 5t^2 - 3t(m)$ va $S_2(t) = 2t^3 - 3t^2 - 11t + 7(m)$ qununiyatlar bo'yicha harakatlanayapti. Bu ikki nuqtaning tezliklari teng bo'lgan paytda birinchi nuqtaning tezlanishini (m/s^2) toping.
A) 10 B) 8 C) 14 D) 9 E) 11

2.2.11 Boshlang'ich funksiya va integral.

1. $\int f(x)dx = F(x) + C, \quad bundaF'(x) = f(x)$ va $F(x)$ funksiya $f(x)$ ning boshlang'ich funksiyasi.
2. $\int x^\alpha dx = \frac{x^{\alpha+1}}{\alpha+1} + C, \quad (\alpha \neq -1);$
3. $\int sinxdx = -cosx + C;$
4. $\int cosxdx = sinx + C;$
5. $\int \frac{1}{sin^2x}dx = -ctgx + C;$
6. $\int \frac{1}{cos^2x}dx = tgx + C;$
7. $\int \frac{1}{x}dx = ln|x| + C;$
8. $\int a^x dx = \frac{a^x}{lna} + C;$
9. $\int e^x dx = e^x + C;$
10. $\int tgxdx = -ln|cosx| + C;$
11. $\int ctgxdx = ln|sinx| + C;$

2.2.12 Boshlang'ich funksiyani topish qoidalari.

1. $\int f'(x)dx = f(x) + C.$
2. $\int (f(x) + g(x))dx = \int f(x)dx + \int g(x)dx.$
3. $\int Cf(x)dx = C\int f(x)dx.$

(00-3-70) Ushbu $f(x) = 2x - \frac{1}{x^2} - cos2x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $x^2 + \frac{1}{x} + \frac{1}{2}sin2x + C$
B) $x^2 - \frac{1}{x} + \frac{1}{2}sin2x + C$
C) $x^2 + \frac{1}{x} - \frac{1}{2}sin2x + C$
D) $x^2 + \frac{1}{x} - sin2x + C$
E) $x^2 - \frac{1}{x} - sin2x + C$

Yechish: Boshlang'ich funksiya topish qoidalaridan foydalanib $f(x) = 2x - \frac{1}{x^2} - cos2x$ uchun boshlang'ich funksiya $F(x) = x^2 + \frac{1}{x} - \frac{1}{2}sin2x + C$ ekanini hosil qilamiz.
Javob: (C).

1. (96-1-32) Ushbu $f(x) = 1 - \frac{1}{cos^2 3x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini toping.
A) $x + \frac{1}{3}ctgx + C$ B) $x - \frac{1}{3}tgx + C$
C) $x - \frac{1}{3}tg3x + C$ D) $tg3x + C$
E) $x - \frac{1}{3}ctg3x + C$

2. (96-3-31) Ushbu $2sin3x$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini toping.
A) $-\frac{2}{3}cos3x + C$ B) $\frac{2}{3}cos3x + C$
C) $-\frac{3}{2}sin2x + C$ D) $\frac{3}{2}sin2x + C$
E) $\frac{2}{3}sin3x + C$

3. (96-3-35) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri $y' = 2y$ tenglamaning echimi bo'ladi?
A) $C\frac{e^x}{2}$ B) Ce^{2x} C) $Ce^{\frac{x}{2}}$ D) $2e^x$ E) e^x

4. (96-3-84) Ushbu $f(x) = x^3$ funksiyaning $(2; 1)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{x^2}{2} - 1$ B) $\frac{x^2}{2} + 1$
C) $\frac{x^4}{4} - 3$ D) $\frac{x^4}{2} + 3$ E) mavjud emas

5. (96-6-47) Quyidagi funksiyalarning qaysi biri uchun $F(x) = 2cosx + sinx + c$ funksiya boshlang'ich funksiya bo'ladi?
A) $f(x) = -2sinx - cosx$
B) $f(x) = 2sinx + cosx$
C) $f(x) = -2sinx + cosx$
D) $f(x) = 2sinx - cosx$
E) $f(x) = -2sinx - cosx + 1$

6. (96-6-48) Agar $y = f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi $F(x)$ bo'lsa,$2f(2x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $2F(2x)$ B) $\frac{1}{2}F(2x)$ C) $F(2x)$
D) $2F(x)$ E) $\frac{1}{2}F(x)$

7. (96-7-32) $f(x)=2cos^2x$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini ko'rsating.
A) $2sin^2x+C$ B) $x+\frac{1}{2}sin2x+C$
C) $\frac{2}{3}cos^3x+C$ D) $2x-\frac{1}{2}sin2x+C$
E) $-\frac{2}{3}sin^3x+C$

8. (96-9-24) $f(x)=-x+\frac{x^2}{2}$ funksiyaning $(6;0)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-1+x-5$ B) $-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{6}-18$
C) $-1+x+5$ D) $-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{6}+18$
E) $(6;0)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiya yo'q.

9. (96-9-83) $f(x)=1+\frac{1}{cos^24x}$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini toping.
A) $x-\frac{1}{4}ctgx+C$ B) $x+\frac{1}{4}tgx+C$
C) $x+\frac{1}{4}tg4x+C$ D) $tg4x+C$
E) $x+\frac{1}{4}ctg4x+C$

10. (96-10-34) Ushbu $f(x)=1+\frac{1}{sin^24x}$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini toping.
A) $x-\frac{1}{4}ctg4x+C$ B) $x+\frac{1}{4}tg4x+C$
C) $x-ctg4x+C$ D) $x+\frac{1}{4}ctgx+C$
E) $x+\frac{1}{4}ctg4x+C$

11. (96-11-32) Ushbu $3sin2x$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini ko'rsating.
A) $-\frac{3}{2}\cdot cos2x+C$ B) $-\frac{2}{3}\cdot cos2x+C$
C) $\frac{3}{2}\cdot sin2x+C$ D) $-\frac{3}{2}\cdot sin2x+C$
E) $\frac{2}{3}\cdot cos2x+C$

12. (96-11-36) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri $2y'=y$ tenglamaning yechimi bo'ladi?
A) $C\frac{e^x}{2}$ B) $Ce^{\frac{x}{2}}$ C) Ce^{2x} D) $2e^x$ E) e^x

13. (96-12-32) $2cos3x$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini toping.
A) $\frac{3}{2}sin3x+C$ B) $-\frac{3}{2}sin3x+C$
C) $\frac{2}{3}sin3x+C$ D) $-\frac{2}{3}cos3x+C$
E) $\frac{2}{3}cos3x+C$

14. (96-12-37) Quyidagi funksiyalardan qaysi biri $y'=3y$ tenglamaning yechimi bo'ladi?
A) $Ce^{\frac{x}{3}}$ B) $C\frac{e^x}{3}$ C) $3e^x$ D) e^x E) Ce^{3x}

15. (96-12-82) $f(x)=x^2$ funksiyaning $(3;2)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{x^3}{3}+7$ B) $\frac{x^3}{3}-7$ C) $2x-4$ D) $2x+4$
E) Bunday boshlang'ich funksiya mavjud emas.

16. (96-13-25) Ushbu $F(x)=x-\frac{x^2}{2}$ funksiyaning $(6;0)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $1-x+5$ B) $1-x-5$
C) $\frac{x^2}{2}-\frac{x^3}{6}-18$ D) $\frac{x^2}{2}-\frac{x^3}{6}+18$
E) $(6;0)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiya yo'q.

17. (97-1-23) Agar $F'(x)=x+2$ va $F(2)=2$ bo'lsa, $F(x)$ funksiyani aniqlang.
A) $F(x)=\frac{1}{2}x^2+2x+2$
B) $F(x)=\frac{1}{2}x^2+2x-4$
C) $F(x)=2x^2+2x-10$
D) $F(x)=x^2+x-2$
E) $F(x)=x^2+2x-6$

18. (97-2-47) $F(x)=3tgx+5x+c$ funksiya quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi?
A) $y=-\frac{3}{sin^2x}+5$ B) $y=\frac{3}{sin^2x}+5$
C) $y=3ctgx+c$ D) $y=-\frac{3}{cos^2x}+5$
E) $y=\frac{3}{cos^2x}+5$

19. (97-2-48) Agar $y=F(x)$ funksiya $y=f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo'lsa, $y=f(\frac{x}{2})$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $y=F(\frac{x}{2})$ B) $y=\frac{1}{2}F(\frac{x}{2})$ C) $y=2F(\frac{x}{2})$
D) $y=2F(x)$ E) $y=\frac{1}{2}F(x)$

20. (97-3-32) Ushbu $f(x)=sin^22x$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini ko'rsating.
A) $\frac{1}{3}sin^32x+C$ B) $-\frac{1}{2}cos^22x+C$
C) $\frac{1}{2}x-\frac{1}{8}sin4x+C$ D) $\frac{1}{2}x+\frac{1}{2}cos4x+C$
E) $x-cos4x+C$

21. (97-4-31) Agar $F'(x)=cosx+2x$ va $F(\pi/2)=3$ bo'lsa, $F(x)$ ni toping.
A) $F(x)=-sinx+x^2+2$
B) $F(x)=sinx+\frac{1}{2}x+\frac{\pi^2}{4}$
C) $F(x)=sinx+\frac{1}{2}x^2+2-\frac{\pi}{4}$
D) $F(x)=sinx+x^2+2-\frac{\pi^2}{4}$
E) $F(x)=sinx+x^2+1-\frac{\pi^2}{4}$

22. (97-5-35) Ushbu $f(x)=sin^2x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-\frac{1}{2}x+\frac{1}{4}sin2x+C$ B) $\frac{1}{2}x-\frac{1}{4}sin2x+C$
C) $\frac{1}{4}sin2x+C$ D) $-\frac{1}{4}sin2x+C$
E) $\frac{1}{2}x-\frac{1}{4}cos2x+C$

23. (97-6-23) Agar $F'(x)=2x-1$ va $F(1)=2$ bo'lsa, $F(x)$ ni toping.
A) $F(x)=3x^2-3x+2$ B) $F(x)=x^2-x+2$
C) $F(x)=x^2+x$ D) $F(x)=\frac{x^2}{2}-x+2\frac{1}{2}$
E) $F(x)=2x^2-x+1$

24. (97-7-32) Ushbu $f(x)=sinx\cdot cos2x$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishini ko'rsating.
A) $\frac{1}{3}sin3x+\frac{1}{2}sinx+C$
B) $\frac{1}{2}cosx-\frac{1}{3}cos3x+C$
C) $\frac{1}{2}cosx-\frac{1}{6}cos3x+C$
D) $-cosx\cdot sin2x+C$
E) $-\frac{1}{2}sin2x\cdot cosx+C$

25. (97-8-47) $F(x)=ctgx-2x+C$ quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi?
A) $f(x)=\frac{1}{sin^2x}-2$ B) $f(x)=\frac{1}{cos^2x}-2$
C) $f(x)=-\frac{1}{cos^2x}-2$ D) $f(x)=\frac{1}{sin^2x}+2$
E) $f(x)=-\frac{1}{sin^2x}-2$

26. (97-8-48) Agar $y=F(x)$ funksiya $y=f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo'lsa, $y=2f(-2x)$

funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $y=-2F(-2x)$ B) $y=-F(-2x)$
C) $y=-\frac{1}{2}F(-2x)$ D) $y=F(-2x)$
E) $y=2F(-2x)$

27. (97-9-35) Ushbu $f(x)=ctg^2x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $x-ctgx+C$ B) $-x-ctgx+C$
C) $-x+tgx+C$ D) $-x-tgx+C$
E) $-\frac{2ctgx}{sin^2x}+C$

28. (97-9-91) Agar $f'(x)=\frac{1}{x\cdot ln10}+10x+5$ va $f(1)=6$ bo'lsa, $f(x)$ ni toping.
A) $f(x)=lnx+5x^2+5x-4$
B) $f(x)=\frac{1}{10}lnx+5x^2+5x+4$
C) $f(x)=-lgx+5x^2+5x+10$
D) $f(x)=lgx+5x^2+5x-4$
E) $f(x)=\frac{1}{10}lgx+5x^2+5x+6$

29. (97-10-32) Quyidagilardan qaysi biri $f(x)=sin2x\cdot cosx$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishi?
A) $-\frac{1}{2}cos2x\cdot sinx+C$
B) $\frac{1}{6}cos3x+\frac{1}{2}cosx+C$
C) $-\frac{1}{6}cos6x-\frac{1}{6}cosx+C$
D) $\frac{1}{2}cos2x\cdot sinx+C$
E) $-\frac{1}{2}cosx-\frac{1}{6}cos3x+C$

30. (97-11-23) Agar $F'(x)=x-4$, $F(2)=0$ bo'lsa, $F(x)$ ni toping.
A) $F(x)=x^2-2x$ B) $F(x)=x^2-4x+4$
C) $F(x)=2x^2-4x$ D) $F(x)=\frac{1}{2}x^2-4x+6$
E) $F(x)=\frac{1}{2}x^2-2x+2$

31. (97-12-46) $F(x)=-2ctgx-3x+c$ funksiya quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi bo'ladi?
A) $f(x)=-\frac{2}{sin^2x}+3$ B) $f(x)=\frac{2}{cos^2x}-3$
C) $f(x)=\frac{2}{sin^2x}-3$ D) $f(x)=-\frac{2}{cos^2x}+3$
E) $f(x)=-\frac{2}{sin^2x}-3$

32. (97-12-47) Agar $y=F(x)$ funksiya $y=f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo'lsa,$y=-2f(-2x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-F(-2x)$ B) $2F(-2x)$ C) $-2F(-2x)$
D) $F(-2x)$ E) $F(-x)$

33. (98-1-31) Ushbu $y=e^{1-3x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini ko'rsating.
A) $-3e^x+c$ B) $e^{1-3x}+c$ C) $-3e^{1-3x}+c$
D) $-\frac{1}{3}e^{1-3x}+c$ E) $-\frac{1}{3}e^x+c$

34. (98-2-43) Ushbu $F(x)=e^x-\frac{1}{3}sin3x+ctgx+c$ funksiya quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi?
A) $f(x)=e^x-cos3x-\frac{1}{sin^2x}$
B) $f(x)=e^x+cos3x-\frac{1}{sin^2x}$
C) $f(x)=e^x-cos3x+\frac{1}{sin^2x}$
D) $f(x)=e^x+cos3x+\frac{1}{sin^2x}$
E) $f(x)=e^x-cos3x-\frac{1}{cos^2x}$

35. (98-3-27) Ushbu $f(x)=\frac{1}{cos^2(\frac{x}{3}+1)}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{1}{3}tg(\frac{x}{3}+1)+C$ B) $3tg(\frac{x}{3}+1)+C$
C) $-\frac{1}{3}tg(\frac{x}{3}+1)+C$ D) $-3tg(\frac{x}{3}+1)+C$
E) $3tg\frac{x}{3}+C$

36. (98-5-28) Ushbu $y=2(2x+5)^4$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $Y=(2x+5)^5+C$ B) $Y=\frac{(2x+5)^5}{3}+C$
C) $Y=\frac{(2x+5)^5}{4}+C$ D) $Y=\frac{(2x+5)^5}{5}+C$
E) $Y=4(2x+5)^3+C$

37. (98-6-29) Ushbu $xcosx^2$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini ko'rsating.
A) $\frac{x^2}{2}\cdot sinx^2+C$ B) $-\frac{1}{2}\cdot sinx^2+C$
C) $\frac{1}{3}\cdot sinx^3+C$ D) $-\frac{1}{3}\cdot sinx^3+C$
E) $\frac{1}{2}\cdot sinx^2+C$

38. (98-8-31) Ushbu $y=\frac{2}{e^x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{2}{e^x}+C$ B) $2lnx+C$ C) $e^{-x}+C$
D) $\frac{1}{2e^x}+C$ E) $-2e^{-x}+C$

39. (98-9-41) $F(x)=2cos2x+sinx+C$ funksiya quyidagi funksiyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi hisoblanadi?
A) $f(x)=-4sin2x-cosx$
B) $f(x)=4sinx+cosx$
C) $f(x)=-2sin2x+cosx$
D) $f(x)=-4sin2x+cosx$
E) $f(x)=-2sinx-cosx$

40. (98-10-74) Ushbu $f(x)=\frac{1}{sin^2(3x+1)}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-\frac{1}{3}ctg(3x+1)+C$ B) $\frac{1}{3}ctg(3x+1)+C$
C) $\frac{1}{3}tg(3x+1)+C$ D) $-\frac{1}{3}tg(3x+1)+C$
E) $-3ctg(3x+1)+C$

41. (98-11-78) Ushbu $\sqrt{x}+\sqrt[3]{x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{2}{3}\sqrt{x^3}+\frac{3}{4}\sqrt[3]{x^4}+C$ B) $\frac{3}{2}\sqrt{x^3}+\frac{3}{4}\sqrt[3]{x^4}+C$
C) $\frac{2}{3}\sqrt{x}+\frac{3}{4}\sqrt[3]{x}+C$ D) $\frac{2}{3}\cdot\sqrt{x^3}+\frac{3}{4}\cdot\sqrt{x^4}+C$
E) $\frac{1}{2}\cdot\sqrt{x^3}+\frac{1}{4}\cdot\sqrt[3]{x^4}+C$

42. (99-1-26) Ushbu $f(x)=\frac{1}{x^2}-cosx$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-\frac{1}{x}-sinx+C$ B) $-\frac{1}{x^3}-sinx+C$
C) $\frac{1}{x^2}-sinx+C$ D) $\frac{1}{x}+sinx+C$
E) $-\frac{1}{x^2}+sinx+C$

43. (99-8-1) Agar $f'(x)=sin2x+\frac{1}{x-1}$ bo'lsa, $f(x)$ ni toping.
A) $cos2x+ln|x-1|+C$
B) $2cos2x+ln|x-1|+C$
C) $-cos2x+ln|x-1|+C$
D) $-\frac{1}{2}cos2x+ln|x-1|+C$
E) $-2cos2x+ln|x-1|+C$

44. (99-2-43) $F(x)=\frac{1}{2}x^2+cosx+C$ funksiya $y=f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi. $y=f(x)$ funksiyaning hosilasini toping.
A) $2cos^2\frac{x}{2}$ B) $2sin^2(\frac{\pi}{4}-\frac{x}{2})$ C)$1+2\cdot cosx$
D) $2\cdot sin^2\frac{x}{2}$ E) $1+2\cdot sinx$

45. (99-3-59) Ushbu $f(x)=x+ctg^2x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{x^2}{2}+\frac{1}{3}ctg^3x+C$ B) $\frac{x^2}{2}-\frac{1}{3}ctg^3x+C$

C) $\frac{x^2}{2}-x-ctgx+C$ D) $\frac{x^2}{2}-x+ctgx+C$
E) $\frac{x^2}{2}+x-ctgx+C$

46. (99-3-60) Ushbu $f(x)=\frac{4}{(3-2x)^2}$ funksiyaning grafigi $(-\frac{1}{2};\frac{1}{16})$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{4}{3-2x}+\frac{9}{16}$ B) $-\frac{4}{3-2x}+\frac{49}{16}$ C) $-\frac{2}{3-2x}+\frac{17}{16}$
D) $\frac{8}{3-2x}+\frac{33}{16}$ E) $\frac{2}{3-2x}-\frac{7}{16}$

47. (99-4-32) $y=\pi sin\pi x+2x-4$ funksiyaning $x=1$ bo'ganda qiymati 3 ga teng bo'ladigan boshlang'ich funksiyasi x ning qanday qiymatida nolga aylanadi?
A) 0 B) 1 C) 0,5 D) 2 E) -2

48. (99-7-29) Ushbu $y=\frac{2x}{(x^2+1)ln10}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $Y=\frac{lg(x^2+1)}{ln10}+C$ B) $Y=lg(x+1)+C$
C) $Y=\frac{x^2}{(x^2+1)ln10}+C$ D) $Y=lg(x^2+1)+C$
E) $Y=ln(x^2+1)+C$

49. (99-8-40) Ushbu $f(x)=\frac{3}{4\sqrt{x}}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{3}{2}\sqrt{x}+C$ B) $3\sqrt{x}+C$ C) $\frac{4}{3}\sqrt{x}+C$
D) $-\frac{3}{2}\sqrt{x}+C$ E) $6\sqrt{x}+C$

50. (99-8-41) Ushbu $f(x)=3x^2-2$ funksiyaning boshlang'ich funksiyalaridan qaysi birining grafigi $M(2;4)$ nuqtadan o'tadi?
A) $F(x)=x^3-2x$ B) $F(x)=x^3-2x+1$
C) $F(x)=x^3-2x+5$ D) $F(x)=x^3-2x+8$
E) $F(x)=x^3-2x-2$

51. (99-10-45) Ushbu $f(x)=2cos^2(\frac{x}{2})$ funksiyaning $M(0;3)$ nuqtadan o'tadigan boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $F(x)=x-sinx+3$
B) $F(x)=-x+sinx+3$
C)$F(x)=x+sinx+3$
D) $F(x)=x+cosx+3$
E) $F(x)=x-cosx+3$

52. (00-5-49) Funksiyaning boshlang'ichini toping.

$$\Big(\frac{sin2x-2sin^2x}{1-tgx}\Big)^2$$

A) $\frac{1}{2}x+\frac{1}{8}sin4x+C$ B) $\frac{1}{2}x^2-\frac{1}{8}sin4x+C$
C) $\frac{1}{2}x^2+\frac{1}{8}sin4x+C$ D) $\frac{1}{2}x-\frac{1}{8}sin4x+C$
E) $-\frac{1}{2}-\frac{1}{8}sin4x+C$

53. (00-8-69) Ushbu $f(x)=\frac{1}{2\sqrt{(1-x)^3}}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{1}{\sqrt{1-x}}$ B) $\frac{2}{\sqrt{1-x}}$ C) $-\frac{3}{\sqrt{1-x}}$
D) $\frac{6}{\sqrt{1-x}}$ E) $\frac{6}{\sqrt{(1-x)^3}}$

54. (00-9-1) $F(x)=lncosx+C$ funksiya quyidagi funk-siyalardan qaysi birining boshlang'ich funksiyasi bo'ladi?

$$1)y=-ctgx;\quad 2)y=ctgx;$$

$$3)y=tgx;\quad 4)y=-tgx.$$

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
E) hech qaysisining boshlang'ich funksiyasi bo'lmaydi.

55. (01-1-36) Ushbu $f(x)=3x^2-2cos(2x+\frac{\pi}{3})$ funksiyaning grafigi koordinat boshidan o'tuvchi boshlang'ich funksiyani toping.
A) $x^3-\frac{1}{2}sin(2x+\frac{\pi}{3})-\frac{\sqrt{3}}{2}$
B) $3x^3-sin2x-\frac{\sqrt{3}}{2}$
C) $x^3-sinx+\frac{1}{2}$
D) $x^3-sin(2x+\frac{\pi}{3})+\frac{\sqrt{3}}{2}$
E) $x^3+sin(2x+\frac{\pi}{3})-\frac{1}{2}$

56. (01-1-37) Agar $F'(x)=e^x+sin2x$ va $F(0)=3,5$ bo'lsa, $F(x)$ ini toping.
A) $e^x-\frac{1}{2}cos2x+3$ B) $e^x-\frac{1}{2}cos2x+4$
C) $e^x-cos2x+4,5$ D) $e^x-cosx+3$
E) $e^x+\frac{1}{2}cosx+3$

57. (01-2-37) Ushbu $f(x)=\frac{cos2x}{sinx-cosx}$ uchun boshlang'ich funksiyani toping.
A) $sinx-cosx+C$ B) $ctg2x+C$
C) $cos2x-sinx+C$ D) $sin2x-cosx+C$
E) $-sinx+cosx+C$

58. (01-4-21) Ushbu $f(x)=-\frac{4cos(2x)}{sin^2(2x)}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $tgx+ctgx+C$ B) $tgx-ctgx+C$
C) $ctgx-tgx+C$ D) $\frac{tgx}{ctgx}+C$
E) $\frac{ctgx}{tgx}+C$

59. (01-4-24) Ushbu $f(x)=\frac{1}{x}$ funksiyaning grafigi $(e;2)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyalarini toping.
A) $2ln|x|$ B) $3-ln|x|$ C)$eln|x|$
D) $ln|x|+1$ E) $ln|x|-1$

60. (01-7-51) Ushbu $f(x)=\frac{1}{\sqrt{x-2}}$ funksiyaning grafigi $A(3;5)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyalarini toping.
A) $\sqrt{x-2}+4$ B) $2\sqrt{x-2}+3$
C)$\sqrt{x-2}+3$ D) $2\sqrt{x-2}+4$ E) $\frac{1}{\sqrt{x-2}}+4$

61. (01-8-30) Agar $F'(x)=e^{-3x}$ va $F(1)=0$ bo'lsa, $F(x)$ ni toping.
A) $-3e^{-3x}+1$ B) $-\frac{1}{3}e^{-3x}+\frac{1}{3}$
C) $\frac{1}{3}e^{-3x}+e$ D) $-3e^{-3x}-\frac{1}{3}e^{-3}$
E) $-\frac{1}{3}e^{-3x}+\frac{1}{3}e^{-3}$

62. (01-9-50) Ushbu $f(x)=ln^{-1}x-ln^{-2}x$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyani toping.
A) $\frac{lnx}{x}+C$ B) $\frac{lnx}{x^2}+C$
C) $\frac{x}{lnx}+C$ D) $\frac{x^2}{lnx}+C$ E) $xlnx+C$

63. (01-9-51) Ushbu $f(x)=\sqrt{\frac{1+tg^2x}{1+ctg^2x}}$, $(0<x<\frac{\pi}{2})$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyani toping.
A) $\frac{1}{sin^2x}+C$ B) $\frac{sinx}{cos^2x}+C$
C) $\frac{cosx}{sin^2x}+C$ D) $-lncosx+C$ E) $lncosx+C$

64. (01-9-52) Ushbu $f(x)=\frac{1-sin^2x}{1-sinx}-\frac{1-cos^2x}{1-cosx}$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyani toping.
A) $cosx+sinx+C$

B) $cosx - sinx + C$
C) $-cosx + sinx + C$
D) $-cosx - sinx + C$
E) $cosxsinx + C$

65. (01-11-41) Agar $F'(x) = 3x^2 - 2x$ va $F(0) = 4$ bo'lsa, $F(x)$ ni toping.
A) $F(x) = x^4 + 2x^2 - 4$
B) $F(x) = x^4 - 2x^2 + 4$
C) $F(x) = x^4 - x^2 - 4$
D) $F(x) = x^3 - x^2 + 4$
E) $F(x) = x^3 - x^2 - 4$

66. (01-12-50) Ushbu $f(x) = (lnsinx+1)\cdot cosx$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyani toping.
A) $cosx \cdot lnsinx + C$ B) $sinx \cdot lnsinx - +C$
C) $sinx \cdot lncosx + C$ D) $x + lnsinx + C$
E) $x + lncosx + C$

67. (01-12-51) Ushbu $f(x) = \frac{sin2x-2cosx}{2(sinx-sin^2x)}$, $(0 < x < \frac{\pi}{2})$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyani toping.
A) $\frac{1}{sin^2x} + C$ B) $-\frac{1}{cos^2x} + C$
C) $lnsinx + C$ D) $\frac{2}{cos^2x} + C$ E) $-lnsinx + C$

68. (02-1-69) Agar $F'(x) = sinx$ va $F(1) = 3$ bo'lsa, $F(x)$ ni toping.
A) $3 - cos1 + cosx$ B) $3 + sin1 - sinx$
C) $3 + cos1 - cosx$ D) $3 + sin1 + sinx$
E) mavjud emas

69. (02-2-31) Agar $f'(x) = 6x^2 - 3x + 5$ va $f(4) = 130$ bo'lsa, $f(0) =?$
A) 6 B) 4 C) -4 D) -6 E) 8

70. (02-3-51) $f(x) = (tgx + ctgx)^2$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $tgx - ctgx + C$ B) $tgx - ctgx + 2x + C$
C) $tgx - ctgx + 4x + C$ D)$tgx - ctgx - 4x + C$
E) $2tgx - 2x + C$

71. (02-10-32) $f(x) = 6x^2 - 6x + 7$ funksiyaning $M(1;0)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini ko'rsating.
A) $2x^3 - 3x^2 + 7x - 6$ B) $6x^2 - 6x$
C) $6x^3 - 6x^2 + 7x - 7$
D) $3x^3 - 3x^2 + 7x - 7$
E) $2x^3 - 3x^2 + 7x + 1$

72. (02-10-67) $f(x) = x^{-4}$ funksiyaning $M(2;-3)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $-\frac{71x^3+8}{24x^3}$ B) $-\frac{4}{x^5} - 2\frac{7}{8}$
C) $-2x^{-3} - 3$ D) $-4x^{-5} - 3$
E) $x^{-4} - 1$

73. (03-2-61) $f(x) = (x-1)x^3 + e^{3x} - \frac{1}{3x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{1}{5}x^5 - \frac{1}{4}x^4 + \frac{1}{3}e^{3x} - \frac{1}{3}ln|x| + C$
B) $\frac{1}{4}x^4 - \frac{1}{5}x^5 - \frac{1}{3}e^{3x} + \frac{1}{3}ln|x| + C$
C) $\frac{1}{5}x^5 - \frac{1}{4}x^4 + \frac{1}{3}e^{3x} + \frac{1}{3}ln|x| + C$
D) $\frac{x^4-x^3}{3} + 3e^{3x} + \frac{1}{3}ln|x| + C$
E) $\frac{e^{3x}-x^2}{3} - \frac{x^4-x^3}{3} + C$

74. (03-3-54) $f(x) = \frac{1}{sin^2 2xcos^2 2x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $tg2x - ctg2x + C$ B) $tg2x + ctg2x + C$
C) $\frac{1}{2}tg2x - \frac{1}{2}ctg2x + C$ D) $\frac{1}{2}tg2x + \frac{1}{2}ctg2x + C$
E) $tgx - ctgx + C$

75. (03-6-19) $f'(x) = 6x^3 - 8x + 3, \quad f(2) = 0.$ $f(-2) =?$
A) 10 B) 12 C) -12 D) 18 E) -18

76. (03-7-26) $f'(x) = 6x^3 - 8x + 3, \quad f(-2) = 0.$ $f(2) =?$
A) 10 B) 12 C) -12 D) 18 E) -18

77. (03-7-80) $f(x) = 8x^3 - 5$ funksiyaning grafigi $M(1;4)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $2x^4 - 5x + 7$ B) $24x^2 + \frac{1}{6}$ C) $2x^4 - 5x$
D) $2x^4 - 5x + 1$ E) $4x^4 - 5x + 7$

78. (03-9-48) $f(x) = x - 1 - ctg^2x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\frac{x^2}{2} - ctgx + C$ B) $\frac{x^2}{2} + ctgx + C$
C) $\frac{x^2}{2} - tgx + C$ D) $\frac{x^2}{2} + tgx + C$
E) $x^2 + ctgx + C$

79. (03-11-18) Agar $f'(x) = 12x^2 - 2x - 14$ va $f(2) = 5$ bo'lsa, $f(0)$ ni aniqlang.
A) 5 B) 6 C) 3 D) 0 E) -5

2.2.13 Aniq integral.

(98-8-32) Hisoblang.

$$\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\pi} |cosx|dx$$

A) 1 B) 3 C) -1 D) 4 E) 2,5

Yechish: $-\frac{\pi}{2} \le x \le \frac{\pi}{2}$ da $cosx \ge 0$ ekanidan bu oraliqda $|cosx| = cosx$ tenglik, $\frac{\pi}{2} \le x \le \pi$ da esa $cosx \le 0$ ekanidan bu oraliqda $|cosx| = -cosx$ tenglik o'rinli ekani kelib chiqadi. Shu sababli berilgan integralni ikkita integralga ajratib hisoblaymiz.

$$\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\pi} |cosx|dx = \int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}} cosxdx - \int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} cosxdx =$$

$$= sinx \int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}} - sinx \int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} = sin\frac{\pi}{2} - sin(-\frac{\pi}{2}) -$$

$$-sin\pi + sin\frac{\pi}{2} = 1 + 1 - 0 + 1 = 3$$

Javob: 3 (B).

1. (96-1-31) Integralni hisoblang.

$$\int_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} sinxdx$$

A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ C) $\frac{1}{2}$ D) $-\sqrt{2}$ E) $-\frac{1}{2}$

2. (96-6-49) Integralni hisoblang.

$$\int_0^{e^2-1} \frac{dx}{x+1}$$

A) 3 B) 2 C) -2 D) -3 E) e^2

3. (96-7-31) Hisoblang.

$$\int_0^2 (1-2x)^2 dx$$

A) $4\frac{1}{2}$ B) $-3\frac{1}{3}$ C) 9 D) $4\frac{2}{3}$ E) $-4\frac{1}{2}$

4. (96-9-82) Hisoblang.

$$\int_0^{\frac{\pi}{4}} sin2xdx$$

A) $\frac{1}{2}$ B) -1 C) $-\frac{1}{2}$ D) 1 E) $\sqrt{2}$

5. (96-10-33) Integralni hisoblang.

$$\int_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} cos2xdx$$

A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{\sqrt{3}}{4}$ C) 0 D) $\frac{\sqrt{3}}{4}$ E) $-\frac{1}{4}$

6. (97-1-22) Integralni hisoblang.

$$\int_{-\frac{\pi}{2}}^{0} cos3xdx$$

A) $\frac{1}{3}$ B) 0 C) $-\frac{1}{3}$ D) $\frac{2}{3}$ E) $-\frac{1}{2}$

7. (97-1-62) Hisoblang.

$$\int_{-1}^{2} |2-x|dx$$

A) 2 B) 3 C) 3,5 D) 4 E) 4,5

8. (97-2-49) Hisoblang.

$$\int_0^{\frac{\pi}{4}} (1+tg^2x)dx$$

A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ D) -1 E) $-\sqrt{3}$

9. (97-3-31) Hisoblang.

$$\int_0^1 (3x-1)^2 dx$$

A) 3 B) 1 C) $-\frac{1}{3}$ D) $\frac{7}{9}$ E) $2\frac{1}{3}$

10. (97-6-22) Hisoblang.

$$\int_{\frac{\pi}{4}}^{-\frac{\pi}{4}} cos2xdx$$

A) 0 B) -2 C) -1 D) $\sqrt{2}$ E) $-2\sqrt{2}$

11. (97-6-63) Hisoblang.

$$\int_{-2}^{3} |3-x|dx$$

A) 9 B) 8 C) 4 D) 16 E) 12,5

12. (97-7-31) Hisoblang.

$$\int_{-1}^{0} (2x+1)^2 dx$$

A) $\frac{1}{6}$ B) $\frac{2}{3}$ C) 1 D) $\frac{1}{3}$ E) -1

13. (97-8-49) Hisoblang.

$$\int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{2}} (1+ctg^2x)dx$$

A) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ B) 1 C) $\sqrt{3}-1$ D) -1 E) $\frac{\sqrt{3}}{3}-1$

14. (97-10-31) Hisoblang.

$$\int_{-1}^{0} (1+3x)^2 dx$$

A) 1 B) -1 C) $\frac{7}{9}$ D) $-\frac{1}{3}$ E) $\frac{2}{3}$

15. (97-11-22) Integralni hisoblang.

$$\int_0^{\frac{\pi}{2}} sin5xdx$$

A) $\frac{1}{5}$ B) $-\frac{2}{5}$ C) 1 D) -1 E) 0

16. (97-12-48) Integralni hisoblang.

$$\int_e^{2e} \frac{1}{2x-e}dx$$

A) $ln3$ B) $2ln3$ C) $ln\frac{1}{3}$ D) 3 E) $ln\sqrt{3}$

17. (98-1-32) Integralni hisoblang.

$$\int_0^{2\pi} |sinx|dx$$

A) 2 B) 4 C) 0 D) 1 E) 3

18. (98-2-44) Integralni hisoblang.

$$\int_0^{\frac{\pi}{6}} sin2xdx$$

A) $-\frac{1}{4}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{1}{2}$ D) $-\frac{1}{2}$ E) $\frac{2}{3}$

19. (00-1-45) To'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan moddiy nuqtaning tezligi $V(t) = 3t^2 - 2t + 2$ (m/s) tenglama bilan ifodalanadi. Harakat boshlangandan 3 sek. o'tgunga qadar bu nuqta qancha masofani (m) bosib o'tadi?
A) 24 B) 26 C) 22 D) 20 E) 25

20. (98-3-29) Ushbu $\vartheta(t) = (t^2+t)$ $\frac{m}{sek}$ tezlik bilan to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan moddiy nuqta dastlabki 6 sek vaqt oralig'ida qancha masofani bosib o'tadi?
A) 80 B) 85 C) 90 D) 96 E) 94

21. (98-4-43) a ning qanday qiymatlarida

$$\int_0^2 (t - log_2 a)dt = 2log_2 \frac{2}{a}$$

tenglik o'rinli bo'ladi?
A) $a \in (2;\infty)$ B) $a \in (1;2)$ C) $a \in (0;\infty)$
D) $a \in (-1;1)$ E) $a \in (4;32)$

22. (98-7-41) Hisoblang.

$$\int_{-2}^{0}(|x|+1)dx$$

A) 3 B) 2 C) 4 D) -4 E) 8

23. (98-9-42) Hisoblang.

$$\int_{\frac{\pi}{12}}^{\frac{\pi}{4}}\frac{dx}{sin^2 2x}$$

A) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ B)$-\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $-\frac{\sqrt{3}}{3}$ E) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

24. (98-10-76) $\vartheta(t)=t^2-t+1$ $\frac{m}{sek}$ tezlik bilan to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan moddiy nuqta dastlabki 6 sek vaqt oralig'ida qancha masofani bosib o'tadi?
A) 54 B) 64 C) 56 D) 62 E) 60

25. (98-11-41) Hisoblang.

$$\int_{0}^{ln3}(e^{2t}-e^{-\frac{1}{2}})dt$$

A) $2+\frac{2}{\sqrt{3}}$ B)$2-\frac{2}{\sqrt{3}}$ C) $\frac{2}{\sqrt{3}}-2$
D) $2+\frac{1}{\sqrt{3}}$ E) $2-\frac{1}{\sqrt{3}}$

26. (98-12-40) Hisoblang.

$$\int_{0}^{2}(|x|+1)dx$$

A) 4 B) 2 C) 3 D) 8 E) 1

27. (98-12-106) Tengsizlikni qanoatlantiruvchi sonlar nechta?

$$\int_{1}^{a}(a-4x)dx\geq 6-5a \quad (a>1)$$

A) 1 B) 2 C) 3 D) $\emptyset$ E) 4

28. (99-1-27) Hisoblang.

$$\int_{0}^{2}x^3dx$$

A) 4 B) -4 C) $\frac{16}{3}$ D) 2 E) $\frac{8}{3}$

29. (99-2-44) Hisoblang.

$$\int_{\frac{5\pi}{3}}^{\frac{4\pi}{3}}|sinx|dx$$

A) 1,5 B) -2 C) 1 D) $-1,5$ E) -1

30. (99-4-34) Hisoblang.

$$\int_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}}\frac{3dx}{2cos^2\frac{x}{2}}$$

A)$\frac{3-\sqrt{3}}{2}$ B)$3-\sqrt{3}$ C)$\frac{3-\sqrt{3}}{4}$ D) $3-3\sqrt{3}$
E)$-\sqrt{3}$

31. (99-5-36) Hisoblang.

$$\int_{0}^{\pi}cos^4 5xdx$$

A) $\frac{\pi}{5}$ B) $\frac{2\pi}{5}$ C) $\frac{3\pi}{8}$ D) $\frac{3\pi}{5}$ E) $\frac{\pi}{2}$

32. (99-6-24) Hisoblang.

$$\int_{\frac{2\pi}{3}}^{2\pi}cos(0,25x)dx$$

A) -2 B) 1 C) -1 D) 2 E) 3

33. (00-2-29) Hisoblang.

$$\int_{0}^{2\pi}cos2x\cdot cos7xdx$$

A) 0,5 B) 1 C) 2 D) 1,5 E) 0

34. (00-2-44) b ning qanday qiymatida

$$\int_{-1}^{1}(4x+b)dx$$

integralning qiymati 1 ga teng bo'ladi?
A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{1}{3}$ D) 2 E) 4

35. (00-3-68) Integralni hisoblang.

$$\int_{-3}^{6}x|x|dx$$

A) 81 B) 63 C) 60 D) 84 E) 80

36. (00-3-71) Integralni hisoblang.

$$\int_{-\pi/2}^{-\pi/4}\frac{dx}{cos^2(\frac{\pi}{2}+x)}$$

A) $\sqrt{3}$ B) $\sqrt{3}-1$ C) 0 D) 1 E) $\sqrt{3}/3$

37. (00-4-54) Hisoblang.

$$\frac{1}{16}\int_{0}^{\pi}\frac{dx}{cos^2\frac{x}{4}}$$

A) 1 B) 0,5 C) 0,25 D) 2 E) 4

38. (00-5-50) Hisoblang.

$$\int_{0}^{6}|x-3|dx$$

A) 4,5 B) 18 C) 3 D) 12 E) 9

39. (00-6-29) a va b ning qanday qiymatlarida

$$f(x)=acos\frac{\pi x}{2}+b$$

funksiya uchun $f'(1)=1,5$ va $\int_0^2 f(x)dx=3$ tengliklar o'rinli bo'ladi?
A) $a=3;\quad b=1,5$ B) $a=-3;\quad b=1,5$
C) $a=-\frac{3}{\pi};\quad b=1,5$ D) $a=\frac{3\pi}{2};\quad b=1$
E) $a=\frac{3}{\pi};\quad b=-1,5$

40. (00-7-40) Hisoblang.

$$\int_{\frac{1}{2}}^{2} |x-1|dx$$

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{3}{4}$ C) $\frac{5}{8}$ D) $\frac{1}{4}$ E) $\frac{3}{2}$

41. (00-9-2) Hisoblang.

$$\int_{0}^{2} |x^2-1|dx$$

A) 8 B) $3\frac{2}{3}$ C) $2\frac{2}{3}$ D) $6\frac{2}{3}$ E) 2

42. (00-9-42) Hisoblang.

$$\int_{0}^{2\pi} sin^4 7x dx$$

A) $\frac{3\pi}{8}$ B) $\frac{\pi}{4}$ C) $\frac{3\pi}{4}$ D) $\frac{\pi}{8}$ E) $\frac{3\pi}{2}$

43. (00-10-36) Integralni hisoblang.

$$\int_{0}^{1} \frac{e^x + e^{-1}}{e^{x-1}} dx$$

A) $\frac{e^2-e+1}{e}$ B) $\frac{e^2-e-1}{e}$ C) $\frac{-e^2+e-1}{e}$
D) $\frac{-e^2-e+1}{e}$ E) $\frac{e^2+e-1}{e}$

44. (01-1-38) Integralni hisoblang.

$$\int_{-4}^{4} x|x|dx$$

A) 0 B) $\frac{1}{2}$ C) $-\frac{1}{2}$ D) $\frac{1}{4}$ E) $-\frac{1}{4}$

45. (01-4-20) Integralni hisoblang.

$$\int_{-1}^{0} |5^x - 5^{-x}|dx$$

A) $\frac{10}{ln5}$ B) $\frac{8}{5ln5}$ C) $\frac{4}{ln5}$ D) $\frac{2}{ln5}$ E) $\frac{16}{5ln5}$

46. (01-7-52) Hisoblang.

$$\int_{0}^{\pi/2} sinxcosxdx$$

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{4}$ C) 1 D) $\frac{1}{8}$ E) 2

47. (01-9-6) Integralni hisoblang.

$$\int_{2}^{8} \frac{dx}{xln2}$$

A) 2 B) 1 C) -2 D) -1 E) 4

48. (01-9-11) Integralni hisoblang.

$$\int_{0}^{\pi/18} (cosxcos2x - sinxsin2x)dx$$

A) $\frac{1}{6}$ B) $\frac{1}{3}$ C) 1,6 D) $\frac{2}{3}$ E) $\frac{1}{2}$

49. (01-10-48) Hisoblang.

$$\int_{-\pi/24}^{\pi/24} \frac{dx}{(cos^4 3x - sin^4 3x)^2}$$

A) $\frac{1}{4}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{1}{3}$ D) 1 E) $\frac{1}{6}$

50. (01-10-50) a ning qanday eng katta manfiy butun qiymatida

$$\int_{a}^{0} (3^{-2x} - 2 \cdot 3^{-x})dx \geq 0$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi?
A) -1 B) -2 C) -3 D) -4 E) -5

51. (01-11-42) Hisoblang.

$$\int_{\pi/6}^{5\pi/6} |cosx|dx$$

A) $\frac{1}{2}$ B) 1 C) 0 D) 1,5 E) -1

52. (01-12-52) Hisoblang.

$$\int_{1}^{3} |x-2|dx$$

A) 2 B) 1 C) -2 D) 0 E) -1

53. (02-2-33)

$$\int_{0}^{\frac{\pi}{4}} 6cos3xdx$$

ni hisoblang.
A) $\sqrt{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $-\sqrt{2}$ E) $-2\sqrt{2}$

54. (02-2-35)

$$\int_{0}^{a} xdx \leq a+4$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi a ning qiymatlari oralig'i uzunligini toping.
A) 6 B) 5 C) 4 D) 8 E) 7

55. (02-3-81)

$$\int_{-1}^{3} \frac{1}{\sqrt{2x+3}} dx$$

ni hisoblang.
A) 2 B) 4 C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{2}{3}$ E) 3

56. (02-5-45)

$$\int_{-1}^{1} x(1+|x|)dx$$

ni hisoblang.
A) $\frac{5}{6}$ B) $\frac{5}{3}$ C) $\frac{4}{3}$ D) $\frac{8}{3}$ E) 0

57. (02-7-38)

$$\int_{0}^{\frac{\pi}{2}} (cosx - sinx)^2 dx$$

ni hisoblang.
A) $\frac{\pi}{2}-1$ B) $1-\frac{\pi}{2}$ C) $\frac{\pi}{2}+1$ D) $\pi-1$ E) $1-\pi$

58. (02-10-66)

$$\int_{0}^{2e} \frac{dx}{0,5x+1}$$

ni hisoblang.
A) $2ln(e+1)$ B) 2 C) $ln(e+2)$
D) $2ln\frac{e+1}{2}$ E) 1

59. (02-11-55)

$$\int_1^9 \Big(3\sqrt{x}+\frac{1}{\sqrt{x}}\Big)dx$$

ni hisoblang.
A) 45 B) 52 C) 54 D) 56 E) 60

60. (02-12-56)

$$\int_{\frac{\pi}{6}}^{\frac{\pi}{4}} (1+ctg^2x)dx$$

ni hisoblang.
A) $1+\sqrt{3}$ B) $1-\sqrt{3}$ C) $\sqrt{3}-1$
D) $\frac{\sqrt{3}}{3}-1$ E) $1-\frac{\sqrt{3}}{3}$

61. (03-1-52)

$$\int_1^2 \frac{x}{x+1}dx$$

ni hisoblang.
A) $2+ln\frac{1}{2}$ B) $1+ln\frac{2}{3}$ C) $3-ln\frac{2}{3}$
D) $1-ln\frac{2}{3}$ E) $2-ln\frac{2}{3}$

62. (03-1-53)

$$\int_3^4 \frac{dx}{x^2-1}$$

ni hisoblang.
A) $ln\sqrt{\frac{2}{3}}$ B) $ln\sqrt{\frac{3}{4}}$ C) $ln\sqrt{\frac{5}{6}}$
D) $ln\sqrt{\frac{7}{8}}$ E) $ln\sqrt{\frac{6}{5}}$

63. (03-3-55)

$$\int_4^9 \Big(\frac{2x}{5}-\frac{1}{2\sqrt{x}}\Big)dx$$

ni hisoblang.
A) 7 B) 8 C) 10 D) 12 E) 15

64. (03-4-45) Ikki jism to'g'ri chiziq bo'ylab bir vaqtning o'zida bitta nuqtadan bir yunalishda $V_1(t)=3t^2-5(m/s)$ va $V_2(t)=3t^2+2t+1(m/s)$ qonuniyatlarga ko'ra harakatlana boshladi. Harakat boshlangandan 4 sekund. o'tgach, bu jismlar orasidagi masofa (m) qanchaga teng bo'ladi?
A) 38 B) 42 C) 40 D) 36 E) 44

65. (03-5-48)

$$f(x)=\int_0^x cos^2tdt$$

funksiyaning hosilasini toping.
A) cos^2x B) $\frac{1}{2}cos2x$ C) $cos2x-1$
D) $1+cos2x$ E) $1-cos2x$

66. (03-5-49) Agar

$$a=\int_1^4 \frac{dx}{\sqrt{x}} \quad va \quad b=\int_1^8 \frac{dx}{\sqrt[3]{x}}$$

bo'lsa, ab ko'paytma nechaga teng?
A) 9 B) 3 C) 6 D) 8 E) 12

67. (03-6-25)

$$\int_0^1 \sqrt{x\sqrt{x\sqrt{x}}}dx$$

ni hisoblang.
A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{8}{15}$ C) $\frac{17}{24}$ D) $\frac{24}{41}$ E) $\frac{12}{29}$

68. (03-7-33)

$$\int_0^1 \sqrt{x\sqrt[3]{x\sqrt[4]{x}}}dx$$

ni hisoblang.
A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{8}{15}$ C) $\frac{17}{24}$ D) $\frac{24}{41}$ E) $\frac{12}{29}$

69. (03-9-49)

$$\int_4^9 \Big(\frac{2x}{5}+\frac{1}{2\sqrt{x}}\Big)dx$$

ni hisoblang.
A) 5 B) 8 C) 10 D) 12 E) 14

70. (03-11-21)

$$\int_0^9 \sqrt[3]{x\sqrt{x}}dx$$

ni hisoblang.
A) 18 B) 9 C) 27 D) $6\sqrt{3}$ E) $9\sqrt{3}$

71. (03-12-28)

$$\int_0^4 \frac{dx}{0,5x+1}$$

ni hisoblang.
A) 2 B) $ln16$ C) $ln9$ D) $ln12$ E) $ln18$

2.2.14 Egri chiziqli trapetsiyaning yuzi.

(97-9-92) $y=x^2$ va $y=2x$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) $1\frac{1}{3}$ B) 1 C) $1\frac{1}{4}$ D) $1\frac{1}{2}$ E) $\frac{2}{3}$

Yechish: $y=x^2$, $y=2x$ funksiyalar grafiklarining kesishgan nuqtalarining abssissalarini topamiz. Buning uchun $x^2=2x$ tenglamani yechamiz. Uning ildizlari $x_1=0$, $x_2=2$. Suning uchun berilgan chiziqlar bilan chegaralangan yuza

$$S=\int_0^2 (2x-x^2)dx=\Big(x^2-\frac{x^3}{3}\Big)\Big|_0^2=$$

$$=4-\frac{8}{3}=\frac{12-8}{3}=\frac{4}{3}=1\frac{1}{3}$$

ga teng.
Javob: $1\frac{1}{3}$ (A).

1. (96-3-32) $y=x^2$, $y=0$, $x=0$ va $x=2$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) $\frac{1}{2}$ B) 2 C) 4 D) 8 E) $2\frac{2}{3}$

2. (96-3-85) Uchi $(3;4)$ nuqtada bo'lgan va OX o'qini $(1;0)$ va $(5;0)$ nuqtalardan kesib o'tuvchi parabola hamda $y=0$, $x=4$ chiziqlar chiziqlar bilan chegaralangan $(x\le 4)$ figuraning yuzini toping.
A) 9 B) 8 C) 7 D) $\frac{28}{3}$ E) $\frac{31}{3}$

3. (96-11-33) $y=x^2$, $y=0$ va $x=-2$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.
A) $2\frac{2}{3}$ B) $2\frac{1}{3}$ C) $2\frac{5}{6}$ D) 2 E) $2\frac{3}{4}$

4. (96-12-33) $y=x^3$, $y=0$ va $x=2$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) 8 B) 4 C) $\frac{1}{2}$ D) $2\frac{2}{3}$ E) 16

5. (97-4-32) $y=\sqrt{x}$, $y=0$ va $x=4$ ciziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) $5\frac{1}{3}$ B) $5\frac{2}{3}$ C) 5 D) $6\frac{1}{4}$ E) $6\frac{3}{4}$

6. (97-5-36) Quyidagi chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.

$$y=\frac{1}{\sqrt{x}},\quad y=0,\quad x=1,\quad x=4$$

A) 5 B) 2 C) 3 D) 1 E) 4

7. (97-9-36) Ushbu $y=\frac{3}{\sqrt{x}}$, $y=0$ $x=2$ va $x=4$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) 6 B) 7 C) 5 D) 4 E) 2

8. (98-3-28) Ushbu $y=0$, $x=1$ va $x=4$ to'g'ri chiziqlar hamda $A(1;-3)$, $B(3;-2)$ va $C(5;-3)$ nuqtalardan o'tuvchi parabola bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.
A) 7 B) 7,25 C) 6,75 D) 6,5 E) 6,85

9. (98-10-75) $y=0$, $x=1$ va $x=3$ to'g'ri chiziqlar hamda $A(2;1)$, $B(1;3)$ va $C(3;3)$ nuqtalardan o'tuvchi parabola bilan chegaralangan sohaning yuzini toping.
A) $3\frac{2}{3}$ B) $3\frac{1}{3}$ C) $3\frac{3}{4}$ D) $3\frac{1}{4}$ E) $3\frac{3}{5}$

10. (98-11-48) a ning qanday musbat qiymatida $y=4x$, $y=2x$ va $x=a$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzi 4 ga teng bo'ladi?
A) 8 B) 1 C) 3 D) 4 E) 2

11. (99-8-42) $y=-2x$, $y=0$ va $x=4$ chiziqlar bilan chegaralangan yuzani hisoblang.
A) 8 B) 12 C) 16 D) 20 E) 24

12. (99-8-75) Chiziqlar bilan chegaralangan figurani yuzini hisoblang.

$$y=sin2x,\quad y=0,\quad x=0\quad \text{va}\quad x=\frac{\pi}{2}$$

A) 1 B) $\frac{1}{2}$ C) 2 D) $\frac{3}{2}$ E) $\sqrt{2}$

13. (99-10-46) t ning qanday qiymatlarida $y=x^2$, $x=0$ va $x=t$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzi 9 ga teng bo'ladi?
A) 6 B) 4 C) 5 D) 2 E) 3

14. (00-3-69) $[0;\pi]$ oraliqda $y=sinx$ va $y=\frac{1}{2}$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) $\sqrt{3}-\frac{\pi}{3}$ B) 2 C) $\frac{2+\pi}{4}$ D) $\frac{4-\pi}{2}$ E) $\frac{4-\pi}{4}$

15. (00-10-44) Quyidagi chiziqlar bilan chegaralangan yuzani hisoblang.

$$y=-\frac{x}{3},\quad y=0,\quad va\quad x=3$$

A) 2,5 B) 2 C) 1,5 D) $\frac{4}{3}$ E) $\frac{5}{3}$

16. (00-10-67) Ushbu $y=2-|x|$ va $y=x^2$ funksiya grafiklari bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.(yuza birliklarida)
A) $\frac{7}{3}$ B) 2 C) 2,5 D) 4 E) 5

17. (01-1-39) Ushbu $y=e^x$, $y=e$ va $x=0$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini hisoblang.
A) $e-1$ B) $e+1$ C) e D) 1 E) 2e

18. (01-4-22) Ushbu $y=-x^2$, $y=0$, $x=1$ va $x=2$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) $\frac{7}{3}$ B) $\frac{3}{7}$ C) $\frac{3}{2}$ D) $\frac{5}{2}$ E) $-\frac{7}{3}$

19. (01-4-29) Ushbu $y=\frac{x^2}{2}$ va $y=\frac{x^3}{2}$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) $\frac{1}{12}$ B) $\frac{1}{24}$ C) $\frac{1}{6}$ D) $\frac{1}{13}$ E) $\frac{1}{4}$

20. (01-9-53) Ushbu $y=2x^2$, $y=\frac{2}{x}$, $y=0$ va $x=e$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) 2 B) $2\frac{1}{3}$ C) 1,5 D) $2\frac{2}{3}$ E) 2,5

21. (02-2-34) Ushbu $y=2x^2$, $y=0$ va $x=3$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzi necha kvadrat birlik bo'ladi?
A) 18 B) 27 C) 54 D) 36 E) 9

22. (02-3-52) Ushbu $2x-3y+2=0$, $y=0$, $x=2$ va $x=5$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini hisoblang.
A) 9 B) 7 C) 11 D) 10 E) 8

23. (02-6-55) $y=x^3$ va $y=\sqrt{x}$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini hisoblang.
A) $\frac{2}{5}$ B) $\frac{3}{7}$ C) $\frac{7}{12}$ D) $\frac{4}{9}$ E) $\frac{5}{12}$

24. (02-8-22) a ning qanday musbat qiymatida $y=x^2$ va $y=ax$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzi 36 ga teng bo'ladi?
A) 6 B) 7 C) 8 D) 4 E) 9

25. (02-10-33) $y=2x^2$, $y=x+1$ chiziqlar bilan chegaralangan sohaning yuzini aniqlang.
A) $\frac{9}{8}$ B) 1 C) 1,25 D) 2,4 E) $\frac{8}{9}$

26. (02-11-56) $y=2-2x$, $y=1-x^2$ va $x=0$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.
A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{5}{6}$ E) 1

27. (03-1-54) $y=sinx$, $y=cosx$ va $x=0$ $(x\in[0;\frac{\pi}{4}])$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini hisoblang.
A) $3-\sqrt{2}$ B) $2-\sqrt{2}$ C) $2-\sqrt{3}$
D) $\sqrt{3}-1$ E) $\sqrt{2}-1$

28. (03-2-62) $y=x$; $y=\frac{1}{x}$; $y=0$ va $x=e$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.
A) 1 B) 1,5 C) 2 D) 2,5 E) 3

29. (03-6-23) $x=0$, $y=9-x^2$ va $y=x^2+1$ chiziqlar bilan chegaralangan sohaning yuzini toping.
A) $10\frac{1}{3}$ B) $10\frac{2}{3}$ C) $13\frac{2}{3}$ D) $18\frac{1}{3}$ E) $21\frac{1}{3}$

30. (03-6-24) $x=1$, $y=1-|x-1|$ va $y=-1+|x-1|$ chiziqlar bilan chegaralangan sohaning yuzini toping.
A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{2}{3}$ C) 1 D) $\frac{3}{2}$ E) 2

31. (03-6-70) $x \in [0;\pi]$ da $y = sinx$ funksiyaning grafigi va x o'qi bilan chegaralangan yuzani toping.
A) 1 B) 1,5 C) 2 D) 2,5 E) 3

32. (03-7-31) $y = 9 - x^2$ va $y = x^2 + 1$ chiziqlar bilan chegaralangan sohaning yuzini toping.
A) $10\frac{1}{3}$ B) $10\frac{2}{3}$ C) $13\frac{2}{3}$ D) $18\frac{1}{3}$ E) $21\frac{1}{3}$

33. (03-7-32) $y = 1 - |x-1|$ va $y = -1 + |x-1|$ chiziqlar bilan chegaralangan sohaning yuzini toping.
A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{2}{3}$ C) 1 D) $\frac{3}{2}$ E) 2

34. (03-7-69) $y = \sqrt{x}$, $y = x - 6$ va $y = 0$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.
A) 18,5 B) 36 C) 4,5 D) 18 E) 13,5

35. (03-9-50) $y = 4 - x^2$, $y = -4x + 8$ chiziqlar va OY o'qi bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.
A) 1,5 B) 2 C) $2\frac{2}{3}$ D) 3 E) $3\frac{1}{3}$

36. (03-11-20) $y = 3 - |x-3|$ funksiya grafiga va OX o'qi bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.
A) 9 B) 8 C) 12 D) 6 E) 10

37. (03-12-29) $y = |cosx|$; $y = 0$; $x = \frac{\pi}{2}$ va $x = \frac{2\pi}{3}$ chiziqlar bilan chegaralangan sohaning yuzini toping.
A) 1 B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{\sqrt{3}-1}{2}$ D) $\frac{2-\sqrt{3}}{2}$ E) $\frac{2\sqrt{3}-3}{2}$

2.3 Maxsus yo'l bilan yechiladigan masalalar.

1. Agar $A + B + C = 0$ va $A \geq 0, \quad B \geq 0, \quad C \geq 0$ bo'lsa, u holda $A = 0, \quad B = 0, \quad C = 0$ tengliklar bir vaqtda bajariladi.

2. Agar A soni uchun $f(x) \leq A, \quad g(x) \geq A$ bo'lsa, $f(x) = g(x)$ tenglama $\begin{cases} f(x) = A \\ g(x) = A \end{cases}$ sistemaga teng kuchli.

3. $P(x)$ ko'phad koeffisientlari yig'indisi $P(1)$ ga, x ning juft darajalari oldidagi koeffisientlari yig'indisi $\frac{1}{2}(P(1) + P(-1))$ ga; x ning toq darajalari oldidagi koeffisientlari yig'indisi $\frac{1}{2}(P(1) - P(-1))$ga teng.

4. $x^3 + ax^2 + bx + c = 0$ tenglamaning ildizlari x_1, x_2, x_3 bo'lsin. U holda $x_1 + x_2 + x_3 = -a$, $x_1x_2 + x_2x_3 + x_3x_1 = b, \quad x_1x_2x_3 = -c$.

5. Ifodalarning eng katta yoki eng kichik qiymatlarini topishda quyidagi tengsizliklardan foydaliniladi:
1) $a + b \geq 2\sqrt{ab}, \quad a, b \geq 0$;
2) $p^2 + q^2 + r^2 \geq pq + qr + pr, \quad$ p, q, r-ixtiyoriy sonlar.

6. $P(x)$ ko'phadni $x - a$ ga bo'lgandagi qoldiq $P(a)$ ga teng.

7. $n! = 2^m \cdot 3^n ... p^k$ ko'paytmada $k = [\frac{n}{p}] + [\frac{n}{p^2}] + [\frac{n}{p^3}] + ...$, bu yerda $[a]$ orqali a sonining butun qismi belgilangan.

(99-5-16) Tenglamaning ildizlari nechta?

$$cos(lg(2 - 3^{x^2})) = 3^{x^2}$$

A) $\emptyset$ B) cheksiz ko'p C) 1 D) 2 E) 3

Yechish: $-1 \leq cosx \leq 1$ bo'lgani uchun tenglama chap qismining eng katta qiymati 1 ga teng. $3^{x^2} \geq 3^0 = 1$ bo'lgani uchun tenglama o'ng qismining eng kichik qiymati 1 ga teng. Tenglik bajarilishi uchun

$$\begin{cases} cos(lg(2 - 3^{x^2})) = 1 \\ 3^{x^2} = 1 \end{cases}$$

bo'lishi kerak ekan. Ikkinchi tenglamadan $x^2 = 0$, ya'ni $x = 0$ ni topamiz. $x = 0$ son 1-tenglamani ham qanoatlantiradi. Shuning uchun berilgan tenglama yagona $x = 0$ yechimga ega ekan.
Javob: 1 (C).

1. (97-12-10) Agar $(a - |b|)^2 + (a - 2)^2 = 0$ bo'lsa, $2a - 3b$ ning qiymatini toping.
A) -2 B) 10 C) 2 va 10
D) -2 va 10 E) -10

2. (98-11-61) Agar x va y sonlari

$$x^2 + y^2 + (y-1)^2 = 2xy$$

tenglikni qanoatlantirsa, $x+y$ qanchaga teng bo'ladi?
A) 4 B) 1 C) 3 D) 2 E) 5

3. (98-12-80) Agar

$$x^2 + y^2 + 2(2x - 3y) + |z - xy| + 13 = 0$$

bo'lsa, $x + y + z$ ni toping.
A) 8 B) 11 C) -5 D) -7 E) aniqlab bo'lmaydi.

4. (99-5-10) $m, n, k \in N$. $m^2 + 2n^2 + 2nk = 25$, $2mn - k^2 = 25$ bo'lsa, $\frac{(m+n)^2}{2k}$ ni hisoblang.
A) 1 B) 2 C) 5 D) 10 E) 15

5. (99-5-33) Agar

$$8(x^4 + y^4) - 4(x^2 + y^2) + 1 = 0$$

bo'lsa, $|x| + |y|$ ning qiymatini toping.
A) 1 B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{1}{4}$ D) 2 E) $\frac{1}{16}$

6. (99-9-8) Agar $n - m = (a-2)^2, \quad p - n = (b-3)^2$ va $m - p = (c-4)^2$ bo'lsa, $a + b + c$ yig'indi nechaga teng?
A) 8 B) 10 C) 11 D) 7 E) 9

7. (99-10-8) Agar $m - n = (2x + y)^2, \quad n - m = (4x - y - 12)^2$ bo'lsa, xy ni toping.
A) -6 B) 6 C) -8 D) 8 E) 9

8. (99-10-18) Nuqtaning koordinatalari

$$x^2 - 4x + y^2 - 6y + 13 = 0$$

tenglamani qanoatlantiradi. Nechta nuqta shu tenglamani qanoatlantiradi.
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4 E) birorta ham nuqta qanoatlantirmaydi.

9. (00-2-7) Agar $4a^2+9b^2+16c^2-4a-6b-8c+3=0$ bo'lsa, abc ko'paytmaga teskari sonni toping.
A) $\frac{1}{24}$ B) 12 C) 48 D) 24 E) $\frac{1}{12}$

10. (00-6-14) Tenglamalar sistemasi nechta yechimga ega?
$$\begin{cases} y=x^2+7x+11 \\ y=y^2+3x+15 \end{cases}$$
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1 E) $\emptyset$

11. (00-9-39)
$$9(x^4+y^4)-6(x^2+y^2)+2=0$$
ekanligini bilgan holda, x^2+y^2 ning qiymatini hisoblang.
A) $\frac{1}{3}$ B) 1 C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{4}{3}$ E) 3

12. (00-10-80) Ushbu
